

UNIVERSITY OF SCIENCE AND TECHNOLOGIES

TADJIBAEVA SHOXIDA ABDURAZAKOVNA

**TA'LIM SUB'EKTLARI ORASIDA IXTILOF VA
NIZOLAR OLDINI OLISHNING PEDAGOGIK
SHART-SHAROITLARI**

MONOGRAFIYA

**«ILM ZIYO ZAKOVAT»
TOSHKENT - 2023**

УДК: 494.376:22.25:12

КБК: 81.653.00

К 677

TADJIBAEVA SHOXIDA ABDURAZAKOVNA

**TA'LIM SUB'EKLARI ORASIDA IXTILOF VA NIZOLAR OLDINI
OLISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI**

[*Monografiya*] – Т.: “Ilm ziyo zakovat”, 2023, 136 б.

Mazkur monografiya oliy ta'lim muassasalarining pedagogika va psixologiya yo'naliishida ta'lim oluvchi talabalar, shuningdek, barcha pedagogik faoliyat bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar uchun mo'ljallangan.

Monografiyada ta'lim jarayonini tashkil etishda uning ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirish, pedagogik nizo va ixtiloflarning asosiy tushunchalari, ularning tasnifi, pedagogik nizolarning kelib chiqish sabablari va ularni oldini olishning pedagogik-psixologik xususiyatlari va shart-sharoitlari, yechimlari kabi masalalar yoritilgan.

Ushbu monografiyani yozishdan asosiy maqsad, rivojlangan davlatlarda ta`lim sub`ektlari orasida ixtilof va nizolar oldini olish tajribalari bilan tanishish, yoshlarga xayotdagi ixtilof va nizolar bo'yicha keng nazariy va amaliy bilimlar berish orqali jamiyatda mustaqil va faol fuqaro sifatidagi ishtiroki uchun zamin yaratishdan iboratdir.

Ma'sul muharrir:

Sh.A.Abdullayeva – pedagogika fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

U.I.Maxkamov – pedagogika fanlari doktori, professor

D.A.Madjidova – pedagogika fanlari nomzodi falsafa doktori PhD, dotsent

Ushbu monografiya University of science and technologies Ilmiy kengashining 2023 yil 25 noyabrdagi 4-sonli Qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-9524-0-9

© ТАДЖИБАЕВА.Ш.А.

© «Ilm ziyo zakovat» 2023 й.

So‘z boshi

Jahon ta’lim tizimida global o‘zgarishlar natijasida erkin fuqaro shaxsini tarbiyalashga bo‘lgan e’tibor yoshlarni ijtimoiy munosabatlar tomon yo’llash, gumanizm, tolerantlik, ijtimoiy intellekt, insonlar bilan o‘zaro munosabatda kommunikativlik kabi fazilatlarni rivojlantirish texnologiyalarini amaliyatga tatbiq etishga undamoqda. YUNESKO tomonidan 2030 yilgacha qabul qilingan xalqaro ta’lim konsepsiyasida “ta’lim oluvchilarda muloqotda hamkorlik qobiliyatları va qiziqishlarini kuchaytirish”¹ dolzarb vazifa sifatida belgilanib, ularning ijtimoiy tajriba orttirishi uchun tabiiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, shaxslararo munosabatlarda kirishimlilik, madaniyatlilik, kengfe’llik, xushmuomalalikni maromiga etkazish prinsiplariga amal qilish, mazkur sifatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan yirik loyihalar amaliyatga tatbiq etilmoqda.

Jahon va ilmiy tadqiqot ta’lim muassasalarida mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash bo‘yicha keng ko‘lamdagি ishlar amalga oshirilib, dunyoning turli mintaqalari va alohida davlatlarida destruktiv holatlarning kuchayishi natijasida yoshlar, ayniqsa, ta`lim oluvchilarining individual-psixologik va ijtimoiy rivojlanishida ijtimoiy muhit, yon-atrofdagilarning ta’sirini tadqiq qilish, o‘smir va o‘spirin yoshidagi o‘quvchilarda yuqori darajadagi asabiylilik va qo‘zg‘aluvchanlik, o‘zgalar va yon-atrofdagilar bilan munosabatlarini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga fiziologik hamda ijtimoiy-psixologik omillar bilan tavsiflanuvchi bu o‘zgarishlar ta’lim oluvchi ruhiyatida ham yuz berib, pedagogik jamoada ta’lim sub’ektlari orasida turli nizolar va ziddiyatlarning paydo bo‘lishiga sabablarini hamda ularni kamaytirish yo‘llarini belgilash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda yoshlarda umuminsoniy qadriyatlar bilan birga shaxslararo munosabatlarda hurmat, hamandardlik, sabr-toqat, mehr-oqibat

¹ Incheon declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea). 6p. 26P.

tuyg‘ularini rivojlantirish yoshlar tarbiyasi, ma’naviy-ma’rifiy sohadagi ishlarni kengaytirishning me’yoriy asoslari yaratilmoqda. 2022yil 28yanvar PF-60 2022-2026yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot stretegiyasi” to‘g‘risida. So‘nggi besh yillik islohatlarining natijasida mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma’rifiy asoslari yaratildi. Shu jihatdan, O‘zbekiston Respublikasining barqarorligiga, ya’ni uning ijtimoiy, ma’naviy yuksalishiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan destruktiv g‘oyalarning oldini olish, pedagogik jamoada turli ixtilof va nizolar profilaktikasini o‘tkazish dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi PQ- 4623-sun “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori, 2019 yil 11 iyuldagagi PF-5763-sunli “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 12iyuldagagi 2019 yildagi 577-sun “O‘quvchilarni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” qarori va mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-xuquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini tashkil etishda pedagogik konfliktologiya metodlaridan foydalanish strategiyalarini takomillashtirish Sh.Abdullaeva[21], V.Karimova[46], O.Musurmonova[58], Sh.Shodmonova[94], G‘.Shoumarovlar [96]; ta’lim muassasalarida tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etish va pedagogik jamoa istiqbolini J.Yo‘ldoshev[42], M.Quronov[101], R.Djuraev[40], R.Safarova[78], Z.Nishanova[62] tomonidan tatqiq etilgan.

Ta’lim muassasalarida nizo, uning mazmun-mohiyati, psixologik jihatlariga P.I.Pidkasistiy[69], I.P.Podlsiy[70], Z.Kresan[51], V.Lazarev[52], V.Bespalko[29], N.Nemov [61] larning ilmiy ishlarida alohida e’tibor qaratilgan.

Ta’lim jarayonini tashkil etishda uning ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirish, pedagogik nizolarning kelib chiqish sabablari va ularni oldini olishning psixologik xususiyatlari F.Galton[107], M.Born[105]; R.Bolton[106], J.Fitzgeraldlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Bugun mamlakatimizdagi barcha

ta'lismuassasalaridagi pedagogik jamoasida ixtilof va nizolarni oldini olish bo'yicha ishlarni takomillashtirish muammosi alohida tadbiqot predmeti sifatida tanlanganini ko'rish mumkin. Mazkur monografiya oliy ta'lismuassasalarining pedagogika va psixologiya yo'nalishida ta'lismuluvchi talabalar, shuningdek, barcha pedagogik faoliyat bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar uchun mo'ljallangan.

Monografiyada pedagogika fanining sohalaridan biri - pedagogik konfliktologiya fanining shakllanishi, uni o'r ganishning o'ziga xosliklari, pedagogik nizo va ixtiloflarning asosiy tushunchalari, ularning tasnifi va oldini olishning pedagogik shart-sharoitlari, echimlari kabi masalalar yoritilgan.

Ushbu monografiyani havola etishdan asosiy maqsad, rivojlangan davlatlarda ta'lim sub`ektlari orasida ixtilof va nizolar oldini olish tajribalari bilan tanishish, yoshlarga xayotdagi ixtilof va nizolar bo'yicha keng nazariy va amaliy bilimlar berish orqali jamiyatda mustaqil va faol fuqaro sifatidagi ishtiroki uchun zamin yaratishdan iboratdir.

I BOB. PEDAGOGIK JAMOADA IXTILOF VA NIZOLARNI OLDINI OLISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1-§. Umumiy o‘rta ta’lim pedagogik jarayonida paydo bo‘ladigan ixtilof va nizolarning mohiyati, sabablari, pedagogik-psixologik xususiyatlari

Dunyoning AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniya, Xitoy, Singapur, Janubiy Koreya kabi rivojlangan mamlakatlarida ta’lim jarayonlarini qulaylashtirish maqsadida pedagogik konfliktologiyadan foydalanish texnologiyalarini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish tendensiyalari kuzatilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda ta’lim eng noyob kapital sifatida qadrlanayotgan bugungi sharoitda uzluksiz ta’limning barcha bosqichlari, shu jumladan, umumiy o‘rta ta’limda «ta’lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyatga joriy etish» dolzarb vazifa etib belgilandi².

Jahonda va mamlakatimizda ta’lim barqaror taraqqiyotni ta’minlaydigan asosiy kuch sifatida e’tirof etilib, kompetensiyaviy yondashuvlar asosida ta’lim jarayonini yangi mohiyatda tashkil etish, pedagogik metodlar va texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish va usullarini takomillashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Binobarin, ta’lim-tarbiya jarayonida barkamol insonni shakllantirish orqali mustaqil fikrlovchi, ijodiy izlanuvchi, kuchli irodali, ishchan, g‘oyaviy e’tiqodli, ma’naviyati yuksak, pok vijdonli shaxsni kamol toptirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldaggi PQ- 4623-son “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari rivojlantirish, mazkur tizimning muhim pog‘onasi bo‘lmish umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilarining har biridan ijodkorlik g‘oyalariga asoslangan kasbiy salohiyat va insoniy sifatlarga ega bo‘lish, ular tarbiyalayotgan yoshlarda intellektual sifatlar

²Incheon declaration/ Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).

bilan birga yuksak ma’naviy madaniyatni shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirish muammolarining echimini topish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim tizimining “ishlab chiqarish mahsuloti” – barkamol shaxs va kadr, ya’ni ta’lim sub’ektlari hisoblanadi. Binobarin, ta’limdagi pedagogik faoliyatda turli nizolarning paydo bo‘lishi tabiiy holatdir, chunki bu faoliyatda bulajak rakobatbardosh kadrlarni etishtirishga yo‘naltirilgan ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy, tijorat tadbirdari o‘z ifodasini topganligi bois, har qanday pedagogik yangilik shu jarayon ishtirokchilarida turli qarashlarni vujudga keltiradi. Ma’lumki, bugungi kunda intellektual va kreativ tafakkur, ma’naviy etuklik, mafkuraviy uyg‘oqlik, jismoniy sog‘lomlik, fanlarni chuqur o‘zlashtirilganlik, fuqarolik barkamol shaxsni tarbiyalab bo‘lmaydi.

Umumiyo‘rta ta’lim muassasalari o‘smir yoshidagi o‘quvchilarning yosh davri xususiyatlari tarkib topishidan kelib chiqib, ko‘plab individual- psixologik va ijtimoiy omillar muhim o‘rin egallaydi. Shaxs rivojlanishida ijtimoiy muhit, yon-atrofdagilarning ta’siri kuchli bo‘lib, yuqori darajadagi asabiylig va qo‘zg‘aluvchanlik, o‘zgalar va yon-atrofdagilar bilan munosabatlarning keskinlashuviga olib kelishi mumkin. Fiziologik hamda psixojitmoiy omillar bilan tavsiflanuvchi inson psixikasida ham o‘zgarishlar yuz berib, psixologik himoyaning proeksiya, ratsionalizatsiya, regressiya, kompensatsiya, o‘rin almashtirish, siqib chiqarish, ratsionalizatsiya singari mexanizmlari namoyon bo‘lishi kuzatiladi. Bu o‘rinda, pedagogik jamoada sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan ixtiloflar va nizolar (qarashlar, ilmiy, uslubiy jihatdan nomuvofiq g‘oyalar to‘qnashuvi ko‘rinishida) va shaxsiy (raqobatchilik ko‘rinishida)ning oldini olishga qaratilgan texnologiyalarni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu vazifa pedagoglar jamoasi, psixologik xizmat orqali, fan o‘qituvchilarining mahorati, ularning etukligi, chuqur kasbiy bilimi, ko‘nikma va malakasi, maxsus bilimi yordamida amalga oshirilib, didaktik va tarbiyaviy ahamiyatga molik muammolarni pedagogik konfliktologiya orqali hal qilish imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyatga joriy qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Ilmiy manbalarda ta’kidlanishicha, yoshlik davrida psixologik himoya turli mexanizmlarining samaradorlik darajasi bir xil bo‘lmaydi. Yuqorida aytilganidek, bu

davrda psixologik himoya mexanizmlari sifatida proeksiya va ratsionalizatsiya ko‘proq ko‘zga tashlanadi.

Yoshlik davrining turli bosqichlarida himoya mexanizmlari bir tekisda shakllanib, rivojlanmaydi. Regressiya³ va kompensatsiya⁴ singari psixologik himoya mexanizmlari 16 yoshda eng yorqin darajada ifodalansa, proeksiya, o‘rin almashtirish⁵ va siqib chiqarish⁶ kabi mexanizmlar ulg‘aya borish jarayonida jadalligi kamayib, ratsionalizatsiya⁷ va qayta faol (reakтив) ta’limning jadalligi oshib boradi. Shu jihatdan olganda, umumiy umumiy o‘rta ta’lim sub’ektlari orasida ixtilof va nizolarning oldini olish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari pedagogik jamoasida ta’lim sub’ekti bo‘lmish o‘quvchilarda psixologik himoya mexanizmlarining faolligi jarayonida eng muhim ahamiyat kasb etuvchi omillar sifatida shaxsning hissiy va kommunikativ xususiyatlarini ko‘rsatish mumkin. Bunda psixologik himoyaning har bir shakliga muayyan shaxsiy tavsifnomaga ega insonning psixologik portreti, qiyofasi mos keladi. Maxsus shaxs tavsiflarining mutanosibligi asosida psixologik himoyaning u yoki bu shakli afzal ko‘rilishi xususida taxmin qilish mumkin. Psixologik himoyaning ifodalanishida jins xususiyatlarining ham ta’siri mavjud. Yigitlarda psixologik himoyaning siqib chiqarish kabi mexanizmi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlar namoyon qilinsa, qizlarda qayta faollashuv mexanizmining bu jihatdan etakchiligi ko‘zga tashlandi. Qizlarga muloqotga kirishuvchanlik, hissiyotga beriluvchanlik, itoatkorlik va konformizm xos bo‘lsa, yigitlarda hissiy barqarorlik, yetakchilikka intilish, qat’iylik ustuvor jihatlar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan «Bugungi kunning eng asosiy vazifasi – hayotimizning barcha sohalarida, ayniqsa, boshqaruvda tarmoq

³Regressiya – Freyd nazariyasi bo‘yicha himoya mexanizmlaridan biri bo‘lib, inson tahlikali holatlarda odatda bolaligida o‘zlashtirgan xulq-atvor shakllariga murojaat etadi.

⁴Kompensatsiya – insonning muayyan sohadagi biror bir kamchiligi, nuqsoni yoki ojiz tomonini boshqa sohalarda o‘zini namoyon qilish orqali bekitishga harakat qilishi..

⁵O‘rin almashtirish – psixoanalizda bostirilgan xohish yoki impulsning boshqa inson yoxud ob’ektga yo‘naltirilishi.

⁶ Siqib chiqarish – ongdan nomuvofiq mayl va kechinmalarni ongning anglanmagan sohasiga chiqarib tashlash.

⁷Ratsionalizatsiya - insonning o‘z xatti harakatlarini o‘zi va boshqalarga ijtimoiy jihatdan ma’qullangan va ratsional usul va vositalar orqali tushuntirishga urinishi.

bo‘g‘inlarini idora etishda yangicha fikrlaydigan, qiyin damlarda mas’uliyatni o‘z zimmasiga ola biladigan, hayot bilan hamqadam yurishga qodir, imoni pok, bilimdon, ishbilarmon odamlarni topish, ularga ishonch bildirishdan iboratdir», deb ta’kidlangan. Zero, ta’lim jarayonini innovatsion tashkil etishda pedagogik konfliktologiya metodlaridan foydalanish strategiyalarini takomillashtirilishi tegishli sohada erishiladigan yutuq va muvaffaqiyatlarning garovidir. Didaktik va tarbiyaviy jarayonlarni yangi mazmunda tashkil etish va mexanizmlarini takomillashtirish, ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishlar va zamonaviy talablarga mos keladigan, insonparvarlik va demokratik tamoyillarga asoslangan modernizatsiyalashgan ta’limni tashkil etish muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2017 yil 6 apreldagi 187-sen qarori asosida umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limning 16 ta umumta’lim fanlari bo‘yicha kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan DTS va o‘quv dasturlari ishlab chiqilgan. Shu asosda bugungi kunda respublikada ta’limning uzluksizligi, uzviylici, o‘quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda tayanch va fanga oid kompetensiyalar shakllantiriladi. Biroq, hanuzgacha pedagogik jamoada ixtiloflarni va nizolarning oldini olish hamda ta’lim jarayonining sub’ektlari bo‘lmish o‘qituvchi va o‘quvchilarning pedagogik nazokatlarini tadqiq qilish etarlicha olib borilmagan. Ayni paytda, umumiy o‘rta ta’lim tizimida pedagogik jamoaning istiqboliy rivojlanishini ta’minlaydigan ixtilof va nizolarning oldini olishga qaratilgan tadqiqotlarni amalga oshirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Shunday ekan, umumiy o‘rta ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilar o‘zining keng dunyoqarashi, chuqur fikrlashi, uzoqni ko‘ra bilish qobiliyati, yangiliklarga tayyor bo‘lishi lozim, chunki ular tarbiyalayotgan yosh avlodda aynan shunday sifatlar shakllantiriladi. Binobarin, dunyo hamjamiyati va davlatlar o‘rtasidagi turli madaniy, ta’limiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning integratsiyalashuvi ta’limning hamma bosqichlarida, shu jumladan, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini pedagogik jamoasida ixtilof va nizolarning oldini olish texnologiyalarini

takomillashtirishni talab etadi.

Didaktik va tarbiyaviy jarayonlarda pedagogik konfliktologiya- pedagogik omillarning samaradorligini oshirish maqsadida shaxsga axloqiy, intellektual, estetik, jismoniy, sotsiologik, ekologik va ijtimoiy psixologik ta’sir ko‘rsatish uchun xizmat qiladi. Ta’lim oluvchilarning shaxsiy-xarakterologik sifatlarini aniqlash metodikasini egallash, uni pedagogik amaliyatga tatbiq etish, kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning muhim unsurlaridan biridir. Ta’lim muassasalari o‘qituvchilari ko‘pincha o‘quvchi-yoshlarning aqliy qobiliyatlarini o‘rganishga e’tibor qaratadilar, ammo ta’lim jarayonida o‘quvchilarning tarbiyalanganlik darajalarini (keng ma’noda) tadqiq etish, pedagogik konfliktologiya metodlaridan foydalanish mexanizmlarini uzlucksiz ta’lim tizimida yagona uzviylik va yaxlitlik nuqtai nazaridan talqin qilishga, uning echimlarini topishga o‘rinishmaydi. Zero, pedagogik konfliktologiya vositasida ta’lim sifati va samaradorligini oshirish, o‘qituvchining tolerantlik prinsiplari asosida ta’lim jarayonini boshqarish, tahsil oluvchilarning bilim egallahshlarini faollashtirish, ularni intellektual rivojlantirish uchun ruhiy iqlimni tashkil qilish kabi muhim vazifalar amalga oshiriladi.

Umumiy o‘rta ta’lim sub’ektlari orasida ixtilof va nizolarning oldini olishda asosiy e’tibor ijtimoiy-madaniy kontekstda sodir bo‘ladigan neyrofiziologik jihatlarga qaratilishi maqsadga muvofiq. Shunga ko‘ra, nizolar biologik jihatdan asosiy, determinantlashgan emas, balki, biologik jihatdan ahamiyatli omildir.

Tegishli yo‘nalishda olib boriladigan tadqiqotlarda ixtilof va nizolarning biologik va neyrofiziologik asoslari bilan bir qatorda, uning psixik negizlari ham o‘rganib chiqilishi maqsadga muvofiqdir. “Inson psixikasining biologik va ijtimoiy tabiatidan kelib chiqqan holda ta’kidlash mumkinki, shaxs ixtilof va nizolarni keltirib chiqishiga psixik darajadagi sababchi sifatida qondirilmagan ehtiyojlar xizmat qiladi”. Binobarin, yoshlar xulqining anglanmagan reguliyativ mexanizmlarini, shaxsning yoshlik davrini tavsiflovchi hissiy-irodaviy, kommunikativ, intellektual xususiyatlarini o‘rganish, shaxs xususiyatlari bilan bog‘liq yoshlik davriga xos himoya mexanizmlarini tadqiq etish, jins xususiyatlari bilan bog‘liq ravishda yoshlik davridagi psixologik himoya ko‘rinishlarining o‘ziga xos jihatlarini tahlil qilish, o‘quvchining

individual-psixologik tavsifi va turli himoya mexanizmlari xususiyatlari o‘rtasidagi mutanosiblik, bog‘liqlikni o‘rganish, mazkur davr mohiyatini anglashda psixologik himoya muammosiga ham e’tibor qaratilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek xalqi tarixining XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi davri tarixan qisqa vaqt ni tashkil etgan bo‘lsa-da, xalqning tarixiy taqdirida muhim ahamiyatga molik bo‘lgan davr hisoblanadi. Shu davrda maydonga kelgan jadid ma’rifatparvarlik harakati maktab va maorif, matbuot, adabiyot va san’at sohalarida islohotchilik ishlarini amalga oshiribgina qolmay, xalqning madaniy, ma’rifiy va ruhiy hayotini butunlay o‘zgartirib yubordi. Hozirgi zamon yoshlarining bu kabi ilm-salohiyatli bo‘lishi, maktabchilik asoslari, dars o‘tish tartiblarini joriy etilishida jadidlarning o‘rnini beqiyosdir.

Ma’lumki, XX asr boshlarida Turkistonda keng yoyilgan jadidchilik harakati namoyondalari o‘z faoliyatlarida jamiyat ijtimoiy-ma’rifiy hayotiga turli mazmundagi yangi islohotlar, yangi qarashlarni targ‘ib qiladilar. Ular jamiyat inqirozining asosiy sababini savodsizlik, ilmsizlik, ma’rifatsizlikda ko‘rib, asosan, xalqni ilm-ma’rifatli qilish, diniy va dunyoviy bilimlarni teng o‘rganish, ta’lim-tarbiya tizimini yangilash va rivojlantirish yuzasidan jadal islohotlarni amalga oshiradilar. Jadidchilik harakatining maqsad va g‘oyalarini chuqur va ta’sirchan targ‘ib etishda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon singari adabiy siymolarning faoliyati nihoyatda yuqori bo‘lib, ular jadid adabiyotining yorqin siymolari, ma’rifatparvar shaxslar sifatida tarix sahifalaridan muqim o‘rin egallahsgan. Jumladan, ulug‘ mutafakkir, mahoratli pedagog, iste’dodli adib Abdulla Avloniy merosi bu jihatdan nihoyatda yuksak ahamiyat kasb etadi. Abdulla Avloniy jadid ma’rifatidan bahramand holda o‘z faoliyatida ushbu ulug‘vor g‘oyalarni chuqur targ‘ib etishga harakat qildi, yoshlarni ma’nana barkamol etib tarbiyalash, milliy qadriyat va an’alarni asrab-avaylashga qaratilgan nodir asarlar yaratib qoldirdi. Abdulla Avloniyning jadidchilik harakatidagi eng qimmatli vazifasi zamonaviy ruhdagi diniy va dunyoviy fanlarni qamrab olgan “usuli jadid” maktablarini ochishi, ushbu maktablar uchun “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim” singari darsliklar, “Turkiy guliston yoxud axloq” asarini yaratishi

hamda yosh avlod ta’lim-tarbiyasi borasida qayg‘urib, o‘zi asos solgan maktablarda pedagog sifatida faoliyat ko‘rsatishi bilan belgilanadi. Shu bois nafaqat o‘zbek adabiyoti, balki o‘zbek pedagogikasi tarixida ham Abdulla Avloniyning alohida o‘rni, mustahkam maqomi mavjud. Bugungi o‘zbek pedagogikasi, didaktikasini Abdulla Avloniyningsamarali mehnatlarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ushbu jihatdan adib ijodiy merosi ta’lim bosqichlarida uzviylik va uzlusizlik asosida o‘qitiladi. Adib o‘zining pedagogik qarashlarida ham, badiiy-publitsistik asarlarida ham, avvalo, insonning ruhiy-ma’naviy kamolotini tarbiyalashni ustuvor deb biladi. Insoniy fazilatlar, odamiylik sifatlarini ulug‘laydi, yaxshilik, ezgulikni, ilm-ma’rifatni targ‘ib qiladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchining ruhiy himoya mexanizmlarining faolligi jarayonida eng muhim ahamiyatga ega omillar sifatida shaxsning hissiy va kommunikativ xususiyatlarini ko‘rsatish mumkin. Bunda psixologik himoyaning har bir shakliga muayyan shaxsiy tavsifnomaga ega o‘quvchining psixologik portreti, qiyofasi mos keladi. Maxsus shaxs tavsiflarining mutanosibligi asosida psixologik himoyaning u yoki bu shakli afzal ko‘rilishi xususida taxmin qilish mumkin. Shaxslararo munosabatlar, inson xulqini tadqiq qilish fenomeni so‘nggi yuz yillik davomida ilmiy jamoatchilik e’tiborida bo‘lib kelmoqda. “O‘yinlar nazariyasi” va “transaksion tahlil”ning asoschisi E.Bern⁸ o‘z qarashlarida o‘zaro munosabatlarda namoyon bo‘ladigan psixologik manipulyatsiya unsurlarini yoritgan va shaxslararo munosabatlarda ularning namoyon bo‘lishini tavsiflagan [28] bo‘lsa, D.Karnegi⁹ o‘z kitoblarida insonlar o‘rtasida muloqot olib borish, muomala etiketiga rioya qilish asosida ular qalbiga yo‘l topish, ular ongiga ta’sir ko‘rsatish masalalariga alohida e’tibor qaratgan va jamoani boshqarishda jamiyatda yashayotgan har bir qatlamning ontogenetik davr mobaynida shakllangan psixologik holatlaridan kelib chiqib, amalga oshirish maqsadga muvofiq ekanligini ko‘rsatib o‘tgan. [47]

⁸ Bern E. Igrы, v kotorые igrayut lyudi. Lyudi, v kotorые igrayut v igry (Psixologiya chelovecheskix vzaimootnosheni). – M.: Progress, 1992.

⁹ Karnegi D. Yazыk ubejdeniy. – M.,1999.

A.Maslou¹⁰ har bir shaxsda ifodalanadigan antimanipulyativ (assertiv) xulqni o‘rganishda muayyan mezon asosida ish ko‘rib, shaxsning o‘zini o‘zi ro‘yobga chiqarish tushunchalarini ilmiy istilohga kiritgan. [54] Bugungi kunda ham bu sohadagi ilmiy izlanishlar jahonning etakchi ilmiy markazlari va oliv ta’lim muassasalarida, jumladan, Italiyaning Bolonya universiteti huzuridagi Layf Kouching instituti, Germanianing Gumbold universiteti huzuridagi Ta’lim instituti, Bavariya akkreditatsiyalash, sertifikatlash va sifatni kafolatlash instituti, Fransiyaning Sorbonna universiteti huzuridagi Ta’lim sifatini kvalimetrik tahlil qilish instituti, AQShning Yel, Princeton universitetlari, Yaponianing Tokio pedagogika universiteti, Rossianing Moskva davlat universitetining boshqaruvi kadrlarini tayyorlash o‘quv-ilmiy markazi, A.S.Pushkin nomidagi Sankt-Peterburg pedagogika instituti, Rostov-Dondagi Janubiy Federal universtitetlarida (Rossiya) olib borilmoqda.

Ta’lim sub’ektlari (ham o‘qituvchi, ham o‘quvchi) larning o‘zaro munosabatlarini tadqiq qilishga zarurat bugungi globallashuv jarayonida destruktiv axborot oqimining ko‘payayotganligi bilan izohlanadi. O‘quvchilar orasida nizo, stress, ixtilof profilaktikasini olib borish, axborot psixologik xavfsizligini ta’minlash individual, guruhiy va jamiyat darajasida tegishli ishlar olib borilishini taqozo etmoqda.

Nizo, ixtilof kabi tushunchalarning genezisi, mohiyat va mazmuniga mavjud ilmiy nazariyalarga suyangan holda ta’rif berish, tasniflash, pedagogik jamoada ularning oldini olish uchun muayyan ijtimoiy-psixologik asosni yaratish, takomillashtirish hozirgi kunda pedagogika fani oldida turgan muhim vazifalardandir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalkimiz bilan birga quramiz” nomli asarida har bir fuqaroning vatanparvar va yurtparvarlik fazilatlariga ega bo‘lishi, ona yurtini chin qalbidan sevishi va ardoqlashi, el-yurti uchun o‘zini ayamasligi, bu yo‘lda jonini ham fido qilishiga tayyor bo‘lishi lozimligini uqtiradi [8,12].

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlardan

¹⁰ Maslou A. Novye rubeji chelovecheskoy prirody. – M., 1999.

ko‘zlangan pirovard maqsadga erishishda ta’lim sohasi muhim ahamiyat kasb etib, bu jarayonda Kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismi bo‘lgan umumiyligi o‘rtalim tizimining natijaviylici umumiyligi o‘rtalim muassasalarini faoliyati samaradorligini innovatsion talablar asosida oshirib borish vazifasini qo‘yadi. Mazkur vazifani amalga oshirishda xalq ta’limi muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonini zamonaviy tashkil etishda pedagogik konfliktologiya imkoniyatlaridan foydalanish talab etiladi.

Konfliktologiya (yunon tilida «konfliktus»- konflikt - nizo; logos - ta’limot degan ma’noni bildiradi)-o‘rganilayotgan jarayonda sodir bo‘layotgan nizo, ziddiyat, ixtiloflarning kelib chiqish sabablari va ularning oldini olish haqidagi pedagogikada yangi fan tarmog‘i.

Pedagogik nizo – bu ruhiy tizilmalarda stixiyali sodir bo‘ladigan qarama-qarshi fikrlar to‘qnashuvi, qarashlar, g‘oyalarning bir-biriga nomutanosibligi natijasida paydo bo‘ladigan, pedagogik jarayon ishtirokchilarida salbiy hissiy kechinmalarni keltirib chiqaruvchi ruhiy holat shakli.

Pedagogik nizolar o‘z mohiyatiga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linadi.

Ularni quyidagicha turkumlashtirish mumkin:

- 1) *shaxslararo*
- 2) *guruhlararo*
- 3) *shaxs va guruhi o‘rtasidagi*
- 4) *uzoq muddatli*
- 5) *yaqin muddatli*
- 6) *xufyona*
- 7) *oshkora va h.k..*

Nizolarni bartaraf etish bo‘yicha konstruktiv va destruktiv konfliktlar kabi guruhlarga ajratish mumkin.

Pedagogik amaliyotda pedagog-psixologlar va o‘qituvchilar shaxsning alohida sifatlarini o‘rganadilar, lekin olingan natijalarga asoslangan holda, rivojlanishning barcha tarkiblariga umumiyligi baho berishga har doim ham musharraf bo‘lavermaydilar.

Chunki tajriba uzluksizligini ta'minlash integrativ yondashishni taqozo etadi, ko'p omillik tahliligina uning echimiga ijobiy ta'sir etadi.

O'zbekistonda ta'lim tizimidagi islohotlarning muhim jabhasi sifatida barkamol shaxs tarbiyasi masalalari o'rta ga qo'yildi, yoshlarni barkamol shaxs qilib shakllantirishning huquqiy asoslari ishlab chiqildi. Unda O'zbekiston Respublikasi davlat qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Qarorlari va ijtimoy-siyosiy g'oyalari, Davlat Dasturlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari, me'yoriy va huquqiy xujjatlar ta'limdagi islohotlarning mazmuni va dolzarb vazifalarini belgilab berdi [1,2,3,4,5,6,7,8,9,10,11,12,13,14,15]. Mustaqillik yillarida yoshlarning ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy, tibbiy, ma'naviy, shuningdek ta'limiy manfaatlarini muhofaza qilishga qaratilgan 200 dan ortiq qonunlar, farmonlar, qarorlar va boshqa turdag'i me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Binobarin, mamlakat ta'lim tizimini tubdan isloh qilish borasidagi o'ta muhim ijtimoiy-siyosiy maqsadning umumiy nazariy hamda hayotga tatbiq etish asoslari, pedagoglar faoliyatini yangi ko'lamma tashkil etish masalalari ishlab chiqilmoqda.

Mamlakatimizda "2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot stretegiyasi" to'g'risida" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan chiqarilgan qaror[4]ga asosan, ta'lim tizimida zamonaviy o'quv-laboratoriya, kompyuter va ishlab chiqarish asbob- uskunalari hajmi kengaydi. Tahsil oluvchilar uchun umumiy fanlar bo'yicha nafaqat to'liq bilimlar hajmini egallash, ayni vaqtda ushbu o'quv yurtlaridagi zamonaviy texnika va texnologiyalarni o'zlashtirish imkoniy yaratilmoqda.

Ta'lim sohasidagi amalga oshirilgan islohotlar jarayonining o'ziga xos bo'g'ini sifatida umumiy o'rta ta'lim tizimida mamlakat aholisining 40 % tahsil oladi. Bugungi kunda respublikada 6639 ta umumiy o'rta ta'lim maktablari faoliyat yuritmoqda. O'zbekistonda ta'lim tizimi sakkiz tilda olib boriladi. Bular: o'zbek, rus, qoraqalpoq, qozoq, kirg'iz, tojik, turkman tillari. Qariyb 90 % maktablarda o'qish o'zbek tilida olib boriladi. 5,5 % maktablarda o'qish - rus tilida, 2,5 % - qoraqalpoq tilida, 2 % - tojik tilida, 0,4 % – qirg'iz tilida, 0,2 % - turkman tilida olib boriladi. Ta'lim jarayoni shunday qurilganki, o'quvchilar o'z ona tili bilan birgalikda, bir necha boshqa chet

tillarini o‘rganish imkoniyatiga egadirlar. Shuning uchun ham keng aholi qatlamlari ichida ahillik va birdamlikni saqlash, ular o‘rtasida turli nizo va ixtiloflaming kelib chiqishiga yo‘l qo‘ymaslik muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, bugungi kunda zamonaviy ilg‘or pedagogik axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayoniga keng ko‘lamda joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq eta olish eng dolzarb vazifalar qatoridan o‘rin egallagan ekan, ta’lim sub’ektlari orasida tarbiyaning ta’sirchan mexanizmlarini ta’lim jarayoniga singdirish, ko‘p jihatdan pedagogik konfliktologiya metodlariga murojaat etishni taqozo etadi.

Umumiy o‘rta ta’limda pedagogik konfliktologiyadan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish, o‘qituvchidan yuksak kompetentlik xususiyatlariga ega bo‘lishni talab etadi va zamonaviy ta’lim texnologiyalari, axborot va kompyuter texnologiyalari, o‘quv predmetini o‘qitish usullari, o‘qituvchilikning umummadaniy va amaliy tayyorgarligini namoyon ettirish nazarda tutiladi.

Xorij va MDH mamlakatlari olimlari: G.Royleke, X.Feger, R.Rollet, K. Leongard, A.Bass, A.Shmelevlar pedagogik konfliktologiyani: «pedagogik faoliyatni optimallashtirishda, qulaylashtirishda zarur bo‘lgan axborotni qo‘lga kiritish jarayoni» [56, 78],-deb ta’kidlaydilar.

Muomala odobiga rioya qilish pedagoglar jamoasiniig maqsadiga, o‘qituvchilarning ahloqiy saviyasiga bog‘liq. Bu jarayonda pedagoglar orasida o‘zaro fikr almashish, o‘rtoqlarcha munozaralar qilish natijasida har bir o‘qituvchining bilim darajasi ortadi, o‘zaro aloqalari mustahkamlanadi. Maktablarda pedagoglarning o‘zaro aloqa shakllari xilma-xildir. Muomala odobini shakllantirishda o‘qituvchilarning o‘zaro ijodiy hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Bunday sharoitda pedagoglar bir-birlarini darhol tushunadilar, yutuqlaridan quvonib, o‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalashning muammoli masalalarini birgalashib hal etadilar. Bunday hamkorlik ko‘pincha bir xil fanlardan dars beradigan pedagoglar o‘rtasida mavjud bo‘ladi. Pedagoglar jamoasida o‘zaro tajriba almashish bir-birlarining darslariga kirish, tarbiyaviy tadbirlarini kuzatish shaklida amalgalashish oshiriladi. Afsuski, ayrim hollarda maktab ma’muriyati o‘zaro darslarga kirish natijalari yozilgan daftardagi kamchiliklarni ro‘kach qilib, pedagogik kengashlar va yig‘ilishlarda o‘qituvchilarni

tanqid qiladilar. Bu bilan muomala odobi mezonlariga, ahloqiy munosabatlarga ziyon etkazadilar. Vaholanki, pedagogning faoliyatiga kuzatilgan bitta darsning natijasiga qarab baxo berib bo‘lmaydi. Bunday kuzatish daftarlariga pedagog darsda erishgan yutuqlarni, yangi usullarni yozib, tahlil etib, boshqalarga namuna sifatida ko‘rsatish muomala odobi talablariga mos bo‘lib, jamoada ahloqiy vaziyatni yaxshilashga xizmat qiladi.

Pedagogik faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, o‘qituvchi bilan pedagoglar jamoasi orasida qarama-qarshilik vujudga kelishi mumkin. Ma’lumki, o‘qitish jarayonida pedagog o‘quvchilar bilan yakkama-yakka holda muloqotda bo‘ladi. Shuning uchun ham ayrim kishilarda ta’limning samarasi pedagoglar jamoasiga emas, faqat o‘qituvchining o‘ziga bog‘liq, degan xato tushuncha hosil bo‘ladi. Bunday tushunchada bo‘lgan pedagog pedagoglar jamoasidan ajralib qoladi. Shuning uchun ham pedagoglar jamoasi har bir o‘qituvchining hulqini to‘g‘ri yo‘naltirib borishi lozim. Chunki o‘quvchilarga ilm, tarbiya beradigan kishining o‘zi odobli bo‘lmog‘i shart.

Maktabda ta’lim tarbiya ishlarining samarasi ayrim o‘qituvchigagina emas, avvalo, maktabda inoq, ahil pedagoglar jamoasi yaratilganligi, ularning yuksak ahloqiy — ma’naviy darajasiga bog‘liqdir.

D.A.Kasimova o‘zining “Nizo, stress: kelib chiqish sabablari va ularni boshqarish” nomli kitobida[45] rahbar, ishchi va boshqa xodimlar o‘rtasida sodir bo‘ladigan nizo va stress holatlari tavsifini keltirgan. Olimaning yozishicha, “boshqarish jarayonida nizo — bu rahbar, ishchi va boshqa xodimlar o‘rtasida muayyan masalalarni hal qilishda tomonlarning bir-biri bilan bir echimga kela olmaganligi tufayli vujudga keladigan vaziyatdir” Fikrini davom ettirib, muallif nizolarni quyidagicha ta’riflaydi: “Ishlab chiqarishdagi nizolar kishilar kayfiyatiga salbiy ta’sir qiladi va ularning ish qobiliyatini pasaytiradi, jamoadagi *“ruhiy iqlim”* ni yomonlashtiradi, kadrlar qo‘nimsizligini ko‘paytiradi. Shuning uchun bu masalalarga doimo e’tibor berish, mehnat jamoalarini boshqarishni, kadrlar turg‘unligini ta’minlovchi shartlardan biridir. Ishlab chiqarishda nizoli vaziyatlarning oldini olishning barcha imkoniyatlaridan foydalanish lozim”. Demak, muallifning fikriga

qo'shilgan holda, shuni ta'kidlash joizki, nizo qanday xarakterga ega bo'lmasin va u qay darajada katta yoki kichik bo'lmasin, barcha holatlarda nizoning sabablari hamda uni vujudga keltirgan sabablar diqqat bilan tahlil kilinishi lozim.

S.A.Novikovaning «Preduprejdenie konfliktov v professionalnoy deyatelnosti pedagogicheskogo kollektiva vuza» mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida[65] nizo va uning kelib chiqish sabablari to'g'risida fikr yuritib, shunday yozadi: "Shaxslar o'rtasidagi nizo ko'p xollarda ularning u yoki bu masalaga bo'lgan nuqtai nazarlarining mos tushmasligi, rahbarlar o'rtasida resurslarni taqsimlash, xodimlar bilan rahbar o'rtasida esa ish sharoitini qoniqarsizligi kabilar yuzasidan vujudga kelishi mumkin. Bir lavozimga ikki nomzod qo'yilganda ham shu turdag'i nizolar kelib chiqish holatlari bo'ladi.

Shaxslar to'qnashuvi ham shaxslararo nizo tufayli bo'lishi mumkin. Zero, har xil toifa, fe'ljadi odamlar hamma vaqt ham bir-birlarini tushunavermaydilar. Garchi bir ko'rinishda bizga shundoq tuyulsada, shaxslararo nizolarning 75—80 foizi moddiy manfaatdorlik zamirida sodir bo'ladi".

T.V.Vrachinskayaning "Конфликт в педагогическом взаимодействии в отечественной педагогике XIX - середины XX веков" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida[36] nizolarning pedagogik-psixologik xususiyatlari o'r ganilgan. Olima ularning kelib chiqish sabablarini tahlil qilib, quyidagi fikrlarni bildiradi: "Har bir ishlab chiqarish jamoasida xodimlarning o'zaro munosabati ikki tarkibiy: *formal* (*yoki rasmiy*) va *noformal* (*yoki norasmiy*) doirada amalga oshadi.

Formal guruh xodimlarning ishlab chiqarish va ijtimoiy faoliyatidagi ma'muriy jihatdan mustahkamlangan rasmiy aloqalarini ko'rsatib beradi. Formal guruh kishilarning lavozim burchlaridan kelib chiquvchi o'zaro munosabatlariga ko'ra belgilanadi.

Noformal guruh shaxsiy simpatiya va antipatiyalar asosidagi norasmiy munosabatlarni, manfaatlarning umumiyligini, xarakterlarning o'xhashligini, o'zaro bir-birini tushunishni ifodalaydi.

Har ikkala guruh doimo bir-biriga ta'sir qilib turadi va shu jarayonda nizoli holatlar ham vujudga kelib turadi". Uning fikricha: "Guruhalraro nizolarga: bo'limlar

bilan bo‘limlar o‘rtasidagi; ma’muriyat bilan kasaba uyushmasi o‘rtasidagi; bo‘limlar bilan ma’muriyat o‘rtasidagi; bo‘limlar bilan kasaba uyushmasi o‘rtasidagi nizolar misol bo‘la oladi. Bu turdagilarning nizolar, ayniqsa, bir yo‘nalishdagi boshqaruv guruhlari bilan shtabli boshqaruv guruhlari o‘rtasida sodir buladigan nizoli vaziyatlarda yaqqolroq ko‘rinadi”. Muallifning fikriga qo‘shilgan holda, shuni ta’kidlash mumkinki, guruhlararo nizolar o‘z tabiatiga ko‘ra aralash nizolar bo‘lib, ularning vujudga kelishi barcha yuqoridagi nizo turlarining ta’siri ostida bo‘ladi.

Mavxumligiga qarab, nizolar *ochiq* yoki *yopiq* ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin.

Ochiq nizolar odatda qarama-qarshi tomonlarning ko‘z oldida, to‘g‘ridan- to‘g‘ri vujudga keladi. Ular to‘qnashish sodir bo‘lgunga qadar to‘liq etilgan bo‘ladi. Bunday nizolar rahbariyat nazorati ostida turganligi sababli korxona uchun unchalik xavf tug‘dirmaydi va ularni boshqarish oson kechadi.

“Yopiq nizolar, -deb yozadi K.Xorni,- o‘ta xavflidir. Bunday nizolarni astasekin, belgilangan fursatda *portlaydigan minaga* o‘xshatsa bo‘ladi. Agar nizo hali “*etilmagan*” yoki ularni odamlar nigoxidan yashirilsa, boshqacha qilib aytganda nizo kishilar “*ichida*” bo‘lsa, bilingki, bu nihoyat xavfli va uni boshqarish juda qiyin” [89]. K.Xorni ta’kidlashicha, “yopiq nizolar ko‘pincha *fitna, ig ‘vo, hiyla-nayrang, fisq-fasod* shaklida rivojlanish oqibatida vujudga keladi. Ular oraga nifoq solish, buzg‘unchilikka qaratilgan bo‘lib, *yolg‘on-yashiq, uydirma, bo ‘hton* gaplar muxoliflar uchun asosiy qurol vazifasini bajaradi. Ochiq nizolar esa, ko‘pincha nido, chaqiriq shaklida rivojlanishi oqibatida vujudga keladi. Ular ochikdan-ochiq chaqiriq, tovush chiqarish, da’vat etishda o‘z ifodasini topadi”. Demak, bunda ijtimoiy guruh a’zolari o‘zlariga qarama-qarshi bo‘lgan rasmiy yoxud norasmiy guruhlarning manfaatini o‘zining manfaati tomon burishga harakat qilishi muqarrar.

Boshqa rus olimasi Safranova Irina Valentinovnaning “Управление конфликтами в коллективе дошкольного образовательного учреждения” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida[80] maktabgacha ta’lim muassasalarida nizolarning kelib chiqish sabablarini tahlil qilib, ularni ikki guruhga ajratadi. Bular: 1) Ob’ektiv nizolar. Tashkilotning rivojlanish jarayonida yuzaga chiqadigan real kamchiliklar va muammolar bilan bog‘liq nizolar-amaliy nizolar bo‘lib, ishlab

chiqarishni rivojlantirish, rahbarlik uslubini takomillashtirish, korxonada normal "ruhiy iqlim" ni yaratish uchun xizmat kiladi;

2) Sub'ektiv nizolar esa ta'lif sub'ektlarining u yoki bu voqealikka bo'lgan shaxsiy fikrlarining turlichaligi oqibatida vujudga keladigan nizolardir. "Bu nizolar tabiat bo'yicha his-tuyg'uga, hissiyotga berilish, qiziqqonlik oqibatida yuzaga chiqadi. Odatda, bunday nizolar bir-birini ruhan ko'ra olmaydigan yoki bir-birini tushunmaydigan, yoxud tushunishni hohlamaydigan kishilarning qarama-qarshi fikrlari oqibatida vujudga keladi". Shunga o'xhash fikrni Kokkonen Yelena Ioganovaning «Konstruktivnoe razreshenie pedagogicheskix konfliktov na osnove modifikatsii stilya verbalnogo obshcheniya» mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida[48] uchratishimiz mumkin. Muallif nizolarning oliy ta'lifdagi o'rnini va dinamik xususiyatlarini o'rganar ekan, nizolar quyidagi holatlarda vujudga kelishini ta'kidlaydi:

mehnatni tashkil qilishdagi kamchiliklar; xaq
to'lashning takomillashtirilmagani; yomon
mehnat sharoitlari;
mehnat haqidagi qonunlarning buzilishi;
rahbarning qoniqarsiz saviyasi;
o'zaro munosabatlar madaniyatining past saviyasi va boshqalar.

Dissertatsiyada olima jamoa a'zolari orasidagi nizolarning asosan to'rt xili keng tarqalganini bayon etadi:

1. *Ichki shaxsiy nizo* bir kishiga rahbar tomonidan bir-biriga zid topshiriqlar berilishi va natijada, rahbarning pirovard talabi bir-biriga mos kelmasligi, bunday holda bajaruvchi nima qilishini bilmay, xunob bo'lgan xolatlarda vujudga keladi. Tadqiqotlar va kuzatishlar bunday vaziyatlar: ishchining o'z ishidan qoniqmaganlik, o'ziga va korxonaga ishonchsizlik, shuningdek, xodimda asab buzilishi xolatlarining tez-tez sodir bo'lib turishi natijasida vujudga kelishini ko'rsatadi.

2. *Shaxslararo nizo* hayotda eng ko'p tarqalgan nizolardir. Bunday nizolar, masalan: oilada:

- er bilan xotin o'rtasida;

- ota bilan farzand o‘rtasida;
- ona bilan farzand o‘rtasida;
- farzand bilan farzand o‘rtasida va hokazo.

ishlab chiqarishda:

- xodim bilan xodim o‘rtasida;
- xodim bilan rahbar o‘rtasida;
- rahbar bilan rahbar va hokazolar
- o‘rtasida bo‘lishi mumkin.

3. Shaxs bilan guruh o‘rtasidagi nizolar, odatda ayrim shaxsning u yoki bu narsaga nisbatan bo‘lgan fikrining yoki manfaatining guruh fikriga yoki manfaatiga mos tushmaslik oqibatida vujudga keladi. Aytaylik, biror oliv ta’lim muassasasi dotsenti o‘zining asosiy ish joyidan tashkari pul topish maqsadida boshqa 2—3 joyda, shu jumladan, firmada ishlayotgani umumkafedra manfaatiga zid keladi. Chunki, kafedra jamoasi uning shuncha joyda ishlab asosiy ish joyidagi ishni bajara olmay, o‘lda-jo‘lda ishlashidan manfaatdor emas. Bunday qarama-qarshi holat ular o‘rtasida nizoning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

Xuddi shunday holat rahbarning biror-bir bo‘lim xodimlariga nisbatan qo‘llagan noo‘rin jazosi rahbar bilan guruh o‘rtasidagi to‘qnashuvga olib kelishi mumkin.

Z.Freyd o‘zining “Inson qalbidagi nizolar: intrapsixik interpretatsiya” asarida (“Конфликты человеческой души: интрапсихическая интерпретация”) nizo – bu inson ruhiy holatining ajralmas elementidir,-deb yozadi.[86] Uning fikricha, inson hamisha nizolar olamida yashaydi, ya’ni o‘z-o‘zi bilan ichki nizoda bo‘luvchi insonlar ruhiyati barqaror insonlarga nisbatan ko‘pchilikni tashkil qiladi. Aynan shunga o‘xshash fikrlarni amerikalik olim K. Xornining “Bizning ichki nizolarimiz”, “Interpersonal muammolar interpretatsiyasi” («Наши внутренние конфликты»; “Интерпретация интерперсональных проблем”) [91], E.Eriksonning “Nizolarga yangicha qarash” (“Новый взгляд на конфликты”), “Nizo tashqi vaziyatga aggressiv javob sifatida” (“Конфликт как форма агрессивного ответа на внешнюю ситуацию) [98], M. Doychning: “Nizo raqobatchilik vaziyatiga javob shakli” (“Конфликт как форма ответа на конкурентную ситуацию”) kabi asarlarida

uchratish mumkin.[39]

E.Eriksonning “Nizo tashqi vaziyatga agressiv javob sifatida” mavzusidagi ilmiy ishlanmasida kishilar o‘rtasida ortiqcha nizolarni tarqatishga sababchi bo‘luvchi bir necha toifadagi *“nizoli”* shaxslarni ajratadi. Bular:

Namoyishkorona shaxs. Bular har doim diqqat markazda bo‘lishga intiladilar. Har qanday ehtirosli bahslarning tashabbuskoridir.

Kibr havoli shaxs. Bular:

- o‘zлari haqida yuqori fikrda bo‘ladilar;
- o‘zgalarning fikri bilan hisoblashmaydilar;
- o‘zlarining hatti-harakatiga tanqidiy nuqtai nazardan qaramaydilar;
- jizzaki, nozik kungil, salga xafa bo‘ladilar;
- atrofdagilarga zahrini sochib “qovushtirib” tarqatadilar.

Jilovsiz shaxs. Bular:

- o‘z-o‘zini juda ham sust nazorat qiladilar;
- beixtiyor harakatlari bilan ajralib turadilar;
- tajovuzkor bo‘ladilar;
- hech xam tushuntirib bo‘lmaydigan kishilardir.

O‘ta aniq shaxs. Bular:

ortiqcha talabchan bo‘ladilar;

har doim shubhada bo‘ladilar;

vahimachi bo‘ladilar;

ikir-chikirga beriluvchan bo‘ladilar. Demak, nizoli vaziyatning tashqi unsurlari ham mavjud. Bular quyidagilardir: haddan tashqari hissiyotga berilish; fikrini aniq izhor eta olmaslik; bir-birini tushunishini hohlamaslik; asosga ega bo‘lmagan noshukurlik va hokazo.

Rus olimi L.Sidorenko o‘zining “Nizolarning kelib chiqish mohiyati” (“Сущность происхождения конфликтов”) kitobida: ”nizo funksional bo‘lishi, ya’ni jamoa faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qilishi, yoki disfunktional bo‘lishi, ya’ni ham shaxsiy qoniqishni, ham korxona faoliyati samaradorligining pasayishiga olib kelishi mumkin”-deya ta’kidlaydi.[79]

O‘zbek psixolog olimi G‘. Shoumarov ta’kidlashicha, “ nizo-bu rahbar, ishchi va boshqa xodimlar orasida muayyan masalalarni hal qilishda tomonlarning bir-biri bilan bir echimga kela olmaganligini bildiradi. Jamoa a’zolari orasidagi nizolarning ko‘pchiligi ishlab chiqarishning qoniqarsiz tashkil qilinganligi, rahbarlarning ish jarayonida o‘ziga buysunuvchi jamoa a’zolarining ruhiy holatlarini hisobga olmaganligi, zarur ish sharoitining yaratilmaganligi va boshqa sabablar natijasida vujudga keladi”.[96] Demak, nizolar qanchalik ko‘p bo‘lsa, mehnat jamoalarida ijtimoiy-ruhiy iqlim shunchalik yomonlashadi. Pedagogik jamoalarida ayrim nizo chiqarishga moyil shaxslar bo‘lishi tabiiy. “Bunday shaxslar ish paytida foydali mehnat bilan shug‘ullanish o‘rniga o‘zlarining nizolarida ko‘rsatilgan masalalar rahbar xodimlar tomonidan qanday qabul qilinayotgani to‘g‘risida fikr yuritib, o‘zлari va boshqalarni ishdan chalg‘itib, ishga halaqit beradilar. Bunday nosog‘lom vaziyat jamoat a’zolari asabiga tegadi, ayrim ishchi xodimlar bundan vaqtincha manfaatdor bo‘lib, ular g‘iybatlar uyuştirib, vaziyatni keskinlashtirishga harakat qiladilar. Jamoadagi ijtimoiy-ruhiy holat yomonlashadi, bu esa o‘z-o‘zidan ishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi”.

G‘.Shoumarov, E.G‘oziev, N.Safaev, Sh.Barotov, A.Jabborov, B.Umarov, Z.Nishonova, M.Bekmurodov, V.Karimova, Q.Nazarov, D.Muhamedova, Z.Kamaletdinova, N.Sog‘inov, G.To‘laganova, M.Otajonov, E.Quljonov, N.Komilova singari O‘zbekiston olimlarining fikriga ko‘ra, kishi ongi, xulqi, xarakteri mikro va makro muhitdagi faoliyat orqali boshqariladi. Ijtimoiy muhitdagi nizolar va ixtiloflar kishi ongi va xulqida turli og‘ishlarni keltirib chiqaradi.

U.D.Qodirovning “Yoshlarni destruktiv g‘oyalar ta’siridan himoyalashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari” mavzusidagi 19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya ixtisosligi bo‘yicha psixologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasida yoshlar submadaniyati xususida fikr yuritilgan bo‘lib, tadqiqotchi “bir tomondan, yoshlar submadaniyati – bu, yigit va qizlarning o‘z imkoniyatlarini namoyon qilish, ro‘yobga chiqarishga bo‘lgan kuchli xohishlari ifodasi bo‘lsa, ikkinchidan, jamiyatdagi hayot tarzi, qabul qilingan xulq-atvor me’yorlari va qadriyatlarga nisbatan o‘ziga xos ko‘rinishdagi stixiyali qarshiligidir. Uchinchidan,

submadaniyat ko‘rinishlari yoshlar uchun ularning o‘zi ko‘pam tushunavermaydigan turli muammolardan himoya vositasi sifatida maydonga chiqadi. Umuman olganda, yoshlar submadaniyati – ezoterik, eskapik, urbanistik madaniyat bo‘lib, yoshlar tomonidan ularning o‘zlari uchun yaratiladi. Uni rasmiy, umumqabul qilingan jamiyat madaniy hayoti tizimi tarkibidagi o‘ziga xos madaniy tizim deyish mumkin. Ushbu tizim esa uning egalari hayot tarzi, qadriyatlar ierarxiyasi, dunyoqarashi va yo‘nalganligini bildiradi”-deb yozadi. Muallif fikrini davom ettirib, “hozirgi davrda zamona yoshlarini tashvishlantirayotgan bir qancha ijtimoiy muammolardan boxabar bo‘lish ularning hayotiy qadriyatları yo‘nalishini aniqlashda va shunga mos holda ta’lim-tarbiya ishlarini rejalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarni o‘ylantiradigan muammolar sirasiga bandlik, ularning moliyaviy- iqtisodiy holati masalalarini, kelajak, istiqbol bilan bog‘liq rejalarini kiritish mumkin”.[100] Haqiqatdan ham, nizo va ixtiloflarning oldini olishda yoshlarning destruktiv g‘oyalar, guruhlar ta’siriga tushib qolishining sabab va motivlarini aniqlash hamda mazkur holatning oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar tizimini yaratish, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

1.1-jadval.

Nizolarning kelib chiqish sabablari

T/R	Nizolarning kelib chiqish sabablari	Mohiyati
1	Ta’sirlarga qarshilik qilish kontrargumentlash	Shaxs tomonidan bildirilayotgan fikrlar yoki g‘oyalarga qarshi fikr Bildirish
2	Konstruktiv tanqid	Qarama-qarshi fikr bildiruvchiga nisbatan axloqdoirasida javob

		bera olish
3	Energetik mobillik	Quvvai hofizani asrash
4	Ijod	Nizo asosida yangi g‘oyalarni kashf etishga kirishish
5	Mas’uliyatdan qochish hissi	Aybni boshqalarga to‘nkash maqsadida, o‘zini chekkaga olish
6	Ruhiy o‘z-o‘zini himoya qilish	Ichki nizolar mavjudligi tufayli tashqi vaziyatlarga qarshilik qilish
7	Mensimaslik; Konfrontatsiya	Suhbatdoshining fikrlarini ichki qarshilik ko‘rsatish

Tadqiqotlar natijalaridan ma’lum bo‘lishicha, o‘quvchilar o‘rtasida nizo va ixtiloflarning paydo bo‘lishi ijtimoiy-pedagogik, ijtimoiy-psixologik va iqtisodiy muammolarga borib taqaladi. Turli yoshlar submadaniyatlarining a’zolari va ularga mansub bo‘lmaganlar ham umumiyligida qadriyatlarga ega bo‘lish ehtimoli mavjuddir. Bunday qadriyatlarga erkinlikka intilish, katta avloddan mustaqil tarzda xatti-harakatlarini amalga oshirish istagini kiritish mumkin. Yoshlarning o‘zlarining fikricha, bunday mustaqillik nafaqat iqtisodiy, balki dunyoqarash jihatidan, hayotiy pozitsiyalarni va axloqiy tamoyillarni tanlash nuqtai nazaridan ham bo‘lishi zarur.

Ilmiy manbalarni o‘rganish, tahlil qilish natijasida, nizolar va ziddiyatlarni boshqarish uchun ularni yuzaga kelish sabablarini bilish zarurligi anglanadi.

Fikrimizcha, nizolarning kelib chiqish sabablari bir necha guruhlarga bo‘linadi (1.1-jadval)

Pedagogik jamoada ixtiloф va nizolarning pedagogik-psixologik xususiyatlari turli-tumandir. Pedagogik jamoalarida ijtimoiy-ruhiy iqlimning holati nizolar soni bilan belgilanadi.

Nizo(konflikt)larni to‘rtta asosiy turi mavjud, bular: shaxsning o‘ziga xos ichki nizolar; inson shaxsiyati va guruh orasidagi nizolar; insonlar orasidagi nizolar; guruhlar orasidagi nizolardir.

Pedagogik jamoalarda sog‘lom ruhiy iqlimi yaratish uchun rahbariyat, o‘qituvchi, psixologlar har bir o‘quvchining shaxsiy fazilatlarini, yoshi va qobiliyatlarini inobatga olishi zarur. Shuningdek, o‘quvchilar o‘rtasidagi hamkorlik va o‘zaro yordamni, bir-biri bilan chambarchas bog‘laydigan ijtimoiy aloqa maromini,

sog‘lom turmush tarzini va o‘qishdagi sog‘lom raqobatni tashkil etishga, faoliyati natijalarini ruyobga chiqarishda ma’suliyat sezish tuyg‘usini mustahkamlashga, ijodiy g‘ayrat va ko‘tarinkilik ruhida o‘qishga sharoit yaratishga e’tibor berish zarur.

Nizolar nafaqat pedagogik jamoaning manfaatlari va ehtiyojlarini qondirilishiga to‘sinqlik qilishi, balki, ayrim hollarda nizolar turli nuqtai nazarlarni yuzaga chiqarish, qo‘sishimcha ma’lumot olish, turli alternativ variantlarni ishlab chiqish, va demak, to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi. Alovida o‘quvchilar orasida ro‘y beradigan nizolar eng keng tarqalgan nizolar turi hisoblanadi. Ko‘pincha u raqobatli tengdoshlar, yoki turli qarama-qarshi xarakterli, fikrlash doirasi va qadriyatlari tizimiga ega o‘smirlar orasida ro‘y beradi. Bu nizolar turini muvofiqlashtirish - eng murakkab ishlardan sanaladi. Keyingi guruh nizolari alovida shaxslar va guruh orasida yuz beradigan nizolardir. Albatta bu hol ko‘pincha biror kishi butun guruhga qarama-qarshi, zid pozitsiyani egallashi hollarida ro‘y beradi. Va nihoyat, guruhrular orasidagi nizolar turli guruhrular orasidagi qarama- qarshi fikrlar to‘qnashuvidan kelib chiqib, disfunktional vazifani bajaradi.

Bundan tashqari tashkiliy-ma’muriy ta’sir choralarini, tavsiyalar va ko‘rsatmalar, xujjatlarni to‘g‘ri ishlab chiqish muhimdir. Nizolar o‘z-o‘zicha hal bo‘ladi deb, qo‘l qovushtirib o‘tirish o‘rinsiz. Rahbar aynan boshqa faoliyat turi kishilaridan shunisi bilan farq qiladiki, u o‘z nizolarini boshqarish pedagogik jamoa faoliyatidagi eng murakkab va o‘ziga xos vazifalardan biridir.

Turli mavjud submadaniyatlarni tahlil qilish yoshlari muhitida umumiylilikka intilish ruhi ustuvor ekanligidan dalolat beradi. Bu barcha davrlarda bo‘lib kelgan. Biroq, shu bilan birga, o‘quvchilarni bunday guruhlarga birlashtiruvchi g‘oyalar ijtimoiy ahamiyatga ega g‘oyalar bo‘lmadan, ko‘proq yigit va qizlarning romantika, ko‘ngilxushlikka nisbatan ehtiyojlarini, jamoalarga birlashishning yangi shakllarini topishga bo‘lgan intilish-larini ifodalovchi g‘oyalardir.

Tadqiqotlar yoshlarning turli rasmiy va norasmiy guruhlarga birlashishida asosan siyosiy, iqtisodiy emas, balki ko‘proq psixologik omillar ustuvor ahamiyat kasb etishini ta’kidlaydilar [100].

Norasmiy yoshlari guruhlari tarkibidagi yoshlarni birlashtiruvchi motivlarni

quyidagicha tasniflash mumkin:

- yolg‘izlik hissidan qutulish, hissiy jihatdan o‘ziga yaqin muloqotga, jamoada birlashishga intilish;
- o‘z fikrini himoya qilish, erkinlik, mustaqillikka intilish;
- yangi ijtimoiy rollarni qidirish, odatiy, bir maromdagi hayotdan qochish.

Hozirgi vaqtida destruktiv kult va tashkilotlar safiga kiruvchi yoshlarning ko‘payayotganligi g‘oyat achinarli holdir. Destruktiv kult tashkilotlarining yoshlar ongiga psixologik ta’siri va oqibatlari masalalarini o‘rgangan tadqiqotchi Sh.F.Mustafaevaning ta’kidlashicha, DKT (destruktiv kult tashkilotlari) totalitar, paratotalitar va madaniy turlarga bo‘linadi [57]. Barcha DKTlar ma’naviy-axloqiy barqarorlik, insonning psixoemotsional va ijtimoiy-moddiy holatiga vayronkor ta’sir ko‘rsatadi. DKTlar o‘z jinoiy faoliyatlarini ta’lim, moddiy ta’minlanganlik, sog‘liqni saqlash, dinshunoslik va falsafa sohalaridagi xayrli maqsadlar ortiga yashirishga urinadilar.

Madaniy DKTlar faoliyati ham hozirga kelib jahonning ko‘p mamlakatlarida rivojlanmoqdaki, mazkur guruhlarga ko‘p hollarda o‘smirlardan iborat rokerlar, metallistlar, emo va gotlarni kiritish mumkin. Emo va gotlar guruhlari, odatda o‘z dunyoqarashlari asosiga o‘lim instinkti (*mortido*)ni hayotga qiziqish instinkti (*libido*)dan ustun qo‘yadilar, shu boisdan ular orasida suitsidlar eng ko‘p kuzatiladi. Dunyoda kechayotgan siyosiy jarayonlarga nazar tashlasak, yoshlar orasida ekstremizm hozirgi vaqtida kuchayib borayotganligini ko‘rish mumkin. Mazkur jihat nima bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligini, yoshlar orasida ekstremizm tarqalib borayotganligining sababini aniqlashda aynan yoshlar tajovuzkor- ekstremistik harakatlarga moyil tahlikali guruhni tashkil etishini yodda tutish kerak. Yoshi nuqtai nazaridan ularga maksimalizm va nigilizm, radikalizm va betoqatlik, tavakkalchilik va murosasizlik, guruhbozlik, beqarorlik, shoshqaloqlik xususiyatlari xos bo‘lib, qulay vaziyatlarda bu muayyan aksilijsimoiy faollikni ishga tushirib yuboruvchi mexanizm sifatida namoyon bo‘lishi mumkin.

Umumiyl o‘rta ta’limda jamiyatning barcha bo‘g‘inlarida singari tabiiy holatda stress vaziyatlari ham uchrab turadi.

Tadqiqot doirasida stress, ularning kelib chiqish sabablari va turlarini aniqlash uchun biz pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, fiziologiya va boshqa sohalarga oid ilmiy manbalarni o'rgandik.

Stress — inglizcha (stress) so‘zdan olingan bo‘lib, asabiylik, keskinlik degan ma’nolarni anglatadi.


Asabiylik turli jismoniy va aqliy ishlar haddan tashqari oshib ketishi, xavfli vaziyat tug‘ilgan paytlarda, zarur choralarini zudlik bilan topishga majbur bo‘lganda vujudga keladigan ruhiy holatdir. Bunday holatga tushgan kishilarga nisbatan: "u asabiylashdi" deb aytishadi. Shu ma’noda asabiylik tushunchasi:

- salga asabiylashaveradigan, bo‘lar-bo‘lmasga qizishib, tutaqib ketadigan, zardasi tez, jizzaki kishi;
- asablarning kasalligi tufayli yuz bergen, asablar faoliyatining buzilganligi natijasida yuzaga kelgan xastalik;
- asablarning buzilishi bilan bog‘liq bo‘lgan holat (janjal, boshqarish) kabilar ma’nosida talqin kilinadi.

D.A.Kasimovaning fikricha, “Stress — bu oddiy va ko‘p uchrovchi holat. Qattiq bezovta bo‘lish, hayajon va uyqusizlikdan biz hammamiz uni sezamiz. Ozgina stresslarning ziyoni bo‘lmasligi mumkin. Umuman asabiyashmaydigan kishilarning o‘zi yo‘q. Tanida joni bor har qanday kishi u yoki bu darajada asabiylik holatiga tushadi. Ammo haddan tashqari asabiyashishdan qochish kerak. U noxush oqibatlarga olib keladi. Stressga duchor bo‘lmaslik uchun hayrli ishlarni ko‘proq qilish kerak”[45]. Demak, sabr-qanoatli bo‘lish, mashakqatli mehnatni relaksatsiya bilan birga olib borish, orom olish, tinchlanish, ishda xushfe'l, tavozeli bo‘lish, o‘zaro hurmat va xushmuomalali inson bo‘lishga intilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Stressning sodir bo‘lishiga asosan ikki yo‘nalishdagi omillar sabab bo‘ladi (1.2-rasm).


Pedagogik jamoada o‘z faoliyatidan qoniqmaslik stressga sabab bo‘luvchi eng muhim omillardan hisoblanadi. O‘qituvchilar hamda o‘quvchilar undan nima kutilayotganligini, bu ishni qanday qilish kerakligi va bu ish qanday baholanishini bilsagina xotirjam faoliyat ko‘rsatishadi.



1.2-rasm. Pedagogik jamoada stressning sodir bo‘lishiga asos bo‘luvchi omillar

M.Doychning fikricha, ish qobiliyati va omadsizlik inson salomatligiga qattiq ta’sir ko‘rsatadi. “Haddan tashqari ko‘p ish yoki, aksincha, beishlik ham stressga olib keladi. Bunday sabablar tufayli sodir bo‘lgan asabiylashish eng ko‘p tarqalgandir. Ish xaddan tashqari ko‘payib ketganda bezovtalanish, moddiy boyliklarga nisbatan befarq bo‘lish hissiyoti kuchayadi. Xuddi shuningdek, ish bilan kam ta’minlanganda yuqoridagi holatlar takrorlanadi. Qiziqmagan ish bilan band bo‘lish ham stressni yuzaga keltiruvchi sabablardan hisoblanadi”.[39] Demak, pedagogik faoliyatda ham o‘quv topshiriqlari qancha qiziqarli bo‘lsa, ta’lim sub’ektlari shuncha kam bezovtalanishadi. Organizm uchun salbiy tuyg‘ular bo‘lgan quyidagilar ham asabiylashish uchun salbiy ruhiy sabablar rolini o‘ynashi mumkin.

Sog‘lom va ahil pedagoglar jamoasi yosh o‘qituvchilarni ahloqiy tarbiyalash, ularning pedagogik mahoratini oshirish maskanidir. Maktabda ahil pedagogik jamoa bo‘lsa, ayrim o‘qituvchilarning xudbinligiga barham beriladi.



1.3-rasm. Nizo va ixtiloflarning kelib chiqishiga sabab bo‘luvchi ruhiy holatlar

Pedagoglar jamoasi o‘zining har bir a’zosiga hurmat bilan qarashi, uning yutuqlari va kamchiliklaridan ogoh bo‘lishi, ularni tuzatishga ko‘maklashishi zarur. Pedagoglar jamoasining pedagogga qo‘yayotgan talablari, muomalasi adolatli bo‘lmog‘i kerak. O‘quv yurtlarini bitirib, maktabga endigina kelgan yosh o‘qituvchi haqida alohida g‘amho‘rlik ko‘rsatishi zarur. Va o‘z o‘rnida ishga yangi kelgan yosh o‘qituvchining pedagoglar jamoasi bilan muomalasi, o‘zini tuta bilishi ham ahloqiy munosabatlar shakllanishida muximdir. Nizo va ixtiloflarning kelib chiqishiga ayrim ruhiy holatlar ham sabab bo‘ladi (1.3-rasm).

Pedagogik jamoaning a’zolari mayda-mayda to‘dalarga bo‘linib, guruxbozlik yo‘liga kirib ketsa, jamoada muomala odobi qoidalari, ma’naviy-ahloqiy vaziyat buziladi, bular-bo‘lmasga o‘qituvchilar orasida nizolar chiqaveradi. Ma’lumki, tarbiyaviy jarayon konfliktlarsiz sodir bo‘lmaydi. Demak, pedagoglar jamoasining ijodiy faoliyatida fikrlar to‘qnashuvi bo‘lishi ham mumkin. Ijodiy munozaralarda, pedagogik jarayonda vujudga keladigan tortishuvlarning ba’zilari o‘qituvchilar o‘rtasidagi yaxshi muomala munosabatlarni buzmasdan turib hal etiladi. Bunday holda jamoatchilikning fikri odob normalariga binoan umumiyl manfaatni himoya qilayotgan, jamoaning ishiga ijodiy ruh, yangilik kiritayotgan o‘qituvchi tomonida bo‘ladi.

Ayrim hollarda esa bunday konfliktlar ijobjiy hal etilsa ham og‘ir asoratlar qoldiradi. Shunday nizolar ham bo‘ladiki, pedagoglar jamoasi sha’niga dog‘ tushiradi.

Pedagogik jarayonda sodir bo‘layotgan qarama-qarshiliklar, nizolarning

sabablari xilma-xil bo‘ladi. Bulardan biri, maktab ma’muriyati o‘qituvchilarning fikri, tanqidiy mulohazalariga e’tibor bermasligi, noto‘g‘ri muomala qilishi natijasida yuz beradi. Bu ko‘pincha, maktab rahbarlarining ish uslubiga bog‘liq. Maktab rahbari o‘z sha’niga aytilgan tanqidiy fikrlarni to‘g‘ri tushunib, qabul qilsa, o‘z kamchiliklarini bartaraf etishga intilsa, o‘qituvchilarning kamchiliklarini ko‘rsatish va tuzatishni talab qilish borasida ahloqiy huquqqa ega bo‘ladi.

Pedagogik odob nuqtai nazaridan tanqid shu kamchilikni sodir etgan kishining shaxsiga emas, balki kamchilikni bartaraf etishga, ta’lim - tarbiya ishini, pedagoglarning o‘zaro muomalasini yaxshilashga yo‘naltirilgandagina to‘g‘ri hisoblanadi. Muomala odobini shakllantirishda tanqid va o‘z-o‘zini tanqidning roli kattadir. O‘ziga, o‘z faoliyatiga tanqidiy yondoshmaydigan rahbar oqibatda mag‘rurlikka, o‘zboshimchalikka mubtalo bo‘ladi. Mas’uliyat xissi pasayib ketadi. Odatda, bunday maktab rahbarlari o‘z martabasi, shuhrati va mansabini saqlab qolish uchun ko‘zbo‘yamachilikka yo‘l qo‘yadi. Afsuski, o‘qituvchilar va mакtab rahbarlari orasida o‘z faoliyatiga tanqidiy qaray olmaydiganlar, ko‘zbo‘yamachilikka yo‘l qo‘yayotganlar anchagina uchraydi, o‘z- o‘zini tanqid esa yo‘q darajada, ayrim o‘qituvchilar tanqidga noto‘g‘ri munosabatda bo‘ladilar. Pedagogik jamoada xushmuomalalik, o‘zaro do‘slik va hamkorlik pedagogik mahoratni oshirishga, ta’lim - tarbiya yo‘llarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Bunday muxit ishni yaxshilashga qaratilgan prinsipial tanqid va o‘z - o‘zini tanqidni rad etmaydi. O‘qituvchining xato kamchiliklarini to‘g‘ri ko‘rsata bilish, xamkasbdoshining mulohazalarini hamdardlik sifatida qabul qilish lozim. Kishi o‘z sha’niga aytilgan tanqidni to‘g‘ri tushunishi — o‘qituvchining ahloqiy madaniyatidan, pedagoglik burchini yuksak darajada anglashidan dalolat beradi.

1.2-§. Pedagogik jamoada ixtilof va nizolarning oldini olish bo‘yicha xorij davlatlari tajribasi

Pedagogik jamoada nizo va ixtiloflarning oldini olishda ijtimoiy tajribani

reproduktiv ravishda o‘zlashtirish va ijodiy mahsuldorlikka erishish malakalarini egallahda muhitning ijodiy xarakterga ega ekanligi, shaxslararo va xizmat munosabatlarining maqsadga muvofiq tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Argayl va uning hamkasabali (Argyle, Furnham, Graham, 1981)

«assertiv» (o‘jar) xulqqa ta’rif berishar ekan, ushbu xulqning kelgusida salbiy holatda taraqqiy etishiga ta’sir etuvchi omillarini ko‘rsatib, insonning «assertiv» xulqi noma’lum vaziyatlarni yuzaga keltirilishini uqtirib o‘tadilar. Insonlar muloqot jarayonida u yoki bu nuqtai nazarni asoslash uchun dalillar yoki faktlarga tayanishi va aksincha, tovushini balandlatib, aggressiv holatini namoyish etishlari mumkin”[108].

Polyak prakseolog olimi T. Kotarbinskiy o‘zining “«Fikrlar kurashi texnikasi” va «Yaxshi faoliyatni tashkil qilish haqidagi risola” nomli kitoblarida yozishicha, nizolarni boshqarish va ularni bartaraf etish mumkin.[49] Olimning fikricha, nizoli vaziyatlarni boshqarishning bir qator samarali usullari mavjud (1.2-jadval).

1.2-jadval.

Nizoli vaziyatlarni boshqarish usullari (T. Kotarbinskiy qarashlari bo‘yicha)

T/R	<i>Tarkibiy-tashkiliy usullar</i>	<i>Strategik usullar</i>
1	Talabni tushuntirish usuli	Uzoqlashish masalani silliqlash
2	Muvofiqlashtirish va integratsiyalash usuli	Majburlash
3	Umumtashkiliy (kompleks) maqsadlarga intilish	Kelishuv
4	Rag‘batlantirish	muammoni hal qilish

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, pedagogik jamoada nizoning oldini olish uchun pedagogik jamoaadolatliligi, madaniy saviyasi bilan ta’lim sub’ektlarini hamkorlikka intiltirishi lozim. Ya’ni, ushbu nizoli vaziyatda xokimlik mavqeida emas, balki teng huquqiylik asosida echim topilishi shart.

1.3-jadval.

Nizoli vaziyatlarni boshqarish usullari (Mualliflik qarashlari

bo‘yicha)

Nº	<i>Tarkibiy-tashkiliy usullar</i>	<i>Strategik usullar</i>
1	Tomonlarning bir-birini tan olishini ta’minlash	Murosa qilinayotgan oqibatni aniqlash
2	Gapni bo‘lmay tinglash	Nizo jarayonidagi holat o‘zgalar tomonidan qanday qabul qilinishi (tushunishi) ni anglash
3	Empatiyaga moyillik bildirish, suhbатdoshini tushuna olishni namoyish qilish	Muhokama qilinayotgan mavzuni aniq tasavvur qilish
4	Mavzuga nisbatan umumiy qarashlarni hosil qilish	Nizo mazmunini tahlil kilish;
5	Hamkorlikda umumiy xulosa (murosa)ga kelish	Nizoni bartaraf etish uchun hamkorlikda yagona yo‘l tanlash

Jadvalda ifodalanganidek, pedagogik jamoada sog‘lom ruhiy iqlim yaratish uchun o‘qituvchilar va psixologlar quyidagilarga alohida e’tibor berishi lozim:

- Ta’lim sub’ektlarining shaxsiy fazilatlariga;
- Yoshi, qobiliyati, malakasi, iste’dodiga;
- Ta’lim sub’ektlari o‘rtasidagi hamjihatlikka
- O‘zaro yordamni bir-biri bilan chambarchas bog‘laydigan ijtimoiy aloqa maromiga;
- Sog‘lom raqobat muhitini tashkil qilganiga;
- Jamoa a’zolari ishining unumдорligiga;
- Motivatsiyani shakllantirishga.

Umuman olganda, shaxsning psixologik salomatligi, himoyasi murakkab, ko‘p darajali ijtimoiy, ijtimoiy-psixologik va individual-shaxsiy mexanizmlarning mavjudligida namoyon bo‘ladi. Shaxs psixologik himoyasining shakllanishi, faoliyatining ba’zi yo‘nalishlari va asosiy darajalarining tadqiqi o‘z navbatida uning tizim sifatida xarakterini tasavvur qilishga imkon beradi.

Ta’lim sub’ektlarining psixologik salomatligida og‘ish va buzilishlarning namoyon bo‘lishi tipik destruktiv xususiyatlarga ega yangi shaxs tavsifnomalarining yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Ye.V.Rudenskiy Rossiya Federatsiyasi fuqarolari xarakterlarida tobora kuchliroq ko‘zga tashlanayotgan frustratsiya, nizoga moyillik, tajovuzkorlik, inversiya, defenivlik, egotsentrizm, definzivlik, infantillik kabi xususiyatlarni ajratib ko‘rsatadi.[75]

G.G.Pocheppovning fikricha, axborot urushlari doirasida aholi, kishilar ongingin chetdan boshqarilish xavfi yuzaga kelishi insonlarni jizzaki va betoqat qilayotganligini, ommaviy axborot tizimlari vositasida jamoatchilik fikri boshqa o‘zanga yo‘naltirilishini, yangi qadriyatlar, yasama, jozibador hayot tarzi, “ommaviy madaniyat” targ‘ib-tashviq etilishini ko‘rsatadi. Bunda xalq, davlat, jamiyat va eng avvalo shaxs xavfsizligiga daxl etuvchi, chalg‘itadigan xabarlar tarqatiladi. Bunda turli shakl, ko‘rinish va mazmundagi psixik jihatdan ta’sir etadigan vositalardan faol foydalaniladi.[71]

Shunday qilib, pedagogik jamoada nizolarning oldini olish murakkab jarayon bo‘lib, unda o‘qituvchi o‘quvchilarning fikri, mulohazalarini tinglay bilishi, o‘zaro muomala-munosabatlarini to‘g‘ri tashkil qilishi, ruhiy ta’sir etishi lozim.

“Psixik ta’sir deganda, shaxs yoki guruhning boshqa shaxs yoxud guruh psixikasiga nutq va nutqning ishtirokisiz muayyan maqsadlarni nazarda tutgan holda ko‘rsatadigan ta’siriga aytiladi”. Biroq, “ma’lum maqsadni ko‘zlab, boshqa insonning hissiy holati, xulq-atvori, ongi, tafakkurini o‘zgartirish singari g‘arazli niyatda amalga oshiriladigan manipulyativ ta’sir aholiga katta xavf tug‘diradi” [71].

Psixologik himoyasi yaxshi rivojlanmagan kishilarning manfaatdor shaxslar yoki siyosiy guruqlar, oqimlar tomonidan amalga oshiriladigan manipulyatsiya qurbaniga aylanishi ehtimoli yuzaga keladi. Shuni nazardan qochirmaslik kerakki, manipulyatsiya ta’siriga berilmaslik ancha mushkuldir. Chunki, insonning eng zarur ehtiyojlari va motivlarini nazarda tutib qilingan murojaat odatda, e’tiborsiz qolmaydi.

Germaniya ta’lim tizimida pedagogik jamoada ixtilof va nizolarning oldini olish uchun ushbu nizolarni keltirib chiqargan pedagogik-psixologik xususiyatlar o‘rganilishi qayd etiladi.

AQShda umumiyl o‘rta ta’lim maktablarida (*Secondary school*) pedagogik nizolarni oldini olish uchun maxsus psixologik xizmat tashkil qilingan bo‘lib, ushbu xizmat tizimida maktab o‘quvchilarining o‘rtacha 10-12 nafariga 1 ta psixolog va ijtimoiy pedagog shtatlarida faoliyat yurituvchi mutasaddilar xizmat qilishadi. Ular pedagogik va psixologik diagnostika natijalari asosida nizoning kelib chiqish sabablarini aniqlash imkoniga ega bo‘ladilar. Rivojlangan mamlakatlardagi ushbu

ilg‘or tajribalarni o‘rganish, tahlil qilish va shu asnoda milliy ta’lim tizimida ham shunga o‘xhash metodikalarni yaratish, pedagogik amaliyotga ularni tatbiq etish alohida dolzarblik kasb etuvchi ijtimoiy-pedagogik masalalar sirasiga kiradi.

Janubiy Koreya ta’lim tizimida pedagogik nizolarni oldini olishga mo‘ljallangan uzuksiz psixologik seminarlar tashkil etiladi. Ularda o‘qituvchilarni yangi pedagogik va psixologik uslublar bilan tanishtirish amalga oshiriladi, o‘qituvchilar o‘z hamkasblari va taklif etilgan psixolog, shifokor mutaxassislardan maslahat olishlari mumkin bo‘ladi. Shuningdek, pedagogik va psixologik treninglarni tashkil qilish va boshqa ish usullari amalga oshiriladi.

Bugungi kunda Yevropa mamlakatlarida, xususan, Fransiya, Buyuk Britaniya davlatlarining ta’lim muassasalarida nizolarning oldini olishning bir necha samarali usullari qo‘llaniladi. Ularni, nizo kelib chiqish tabiatiga ko‘ra, ikki guruuhga bo‘lish mumkin: bular tuzilmaviy va ta’lim sub’ektlari orasidagi konflikt vaziyatlarini hal qilish usullaridir. Nizoni bartaraf etishdan avval uni yuzaga kelish sabablari turli usullar yordamida tahlil qilinadi.

Birinchi jadvalda ifodalanganidek, rivojlangan davlatlarda rahbar xodimlar, o‘qituvchilar, tahsil oluvchilar, ota-onalar uchun nizolarni boshqarishda katta tajriba mavjud. Ta’lim sub’ektlarining fuqaro sifatidagi faolligini oshirish, shaxsiy rivojlanishiga ko‘mak beruvchi metodik yordam ko‘rsatish uchun xatto axborot xizmati tizimidan ham foydalilaniladi. Bu esa mazkur mamlakatlarda guruhlararo munosabatlarda psixologik xizmat yaxshi yo‘lga qo‘yilganligini ko‘rsatadi. Ushbu jarayonni tashkil etishda psixologik markazlar, xususiy muassasalarning ishtiroki ham salmoqlidir.

Pedagogik jamoalarda nizolarni hal qilish va bartaraf etishning beshta tuzilmaviy usuli mavjud bo‘lib, bular:

1.4-jadval.

Dunyo miqyosidagi ta’lim muassasalarida nizolarni oldini olish bo‘yicha ilg‘or tajribalar

Nº	Mamlakatlar	Nizolarni bartaraf etish uchun elektron-metodik yordam	Nizolarni bartaraf etish usullari	Tashkilotning asosiy ish yo‘nalishi
	Buyuk Britaniya, Vengriya, Germaniya, Gollandiya, Gresiya, Ispaniya, Polsha, Ruminiya, Slovakiya, Finlyandiya, Chexiya MDH Mamlakatlarida	Ota-onalar n Portal (<u>www.magyarorszag.hu(Vengriya)</u> (<u>www.riik.ee</u>)) World Affaigs Council (AQSh) «Elektron Rossiya» (Rossiya) FMD	Nizoga p berish Vaziyatni yumshatish Majbur qilish Kompromiss Qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etishga undash	Rahbar xodim, o‘qituvchilar, o‘quvchilar faoliyatidagi nizolarni boshqarish bo‘yicha metodik yordam ko‘rsatish; Qonunchilik asosida nizolarning oldini olish va tartibga solish

Pedagogik jamoalarda nizolarni hal qilish va bartaraf etishning beshta tuzilmaviy usuli mavjud bo‘lib, bular:

- 1) Faoliyat bo‘yicha talablarni chuqur tushuntirish (koordinatsiya);
- 2) o‘zaro kelishtirish va integratsiya;
- 3) o‘zaro singdirish mexanizmlarini qo‘llash;
- 4) umumtashkiliy kompleks maqsadlarni belgilash;
- 5) taqdirlash orqali rag‘batlantirish tizimini qo‘llashdir.

Psixologiya nuqtai nazaridan, insonlar orasidagi insoniy munosabatlar oqibatida yuzaga keladigan nizolarni hal qilishda 5 ta usul mavjud bo‘lib, bular: nizoga chap berish; yumshatish; majbur qilish; kompromiss-ya’ni o‘zaro bitimga kelish va muammoni hal qilishdir.

Chap berishda tashkilotlarda qarama-qarshiliklar va nizolardan o‘zini olib qochish, bunday vaziyatga tushmaslikka intilish xos bo‘ladi. Yumshatish usulida har ikki tomon maqsadlar umumiyligiga, tashkilot manfaatlari birligiga e’tiborni qaratadi. Majbur qilishda taklif etilayotgan fikrni so‘zsiz qabul qilishni mavqeい yoki kuch ta’siri orqali qabul qilish ko‘zda tutiladi. Albatta bu usullar qatorida o‘zaro bitimga kelish (kompromiss), manfaatlар to‘qnashuvini bartaraf etish hamda muammoni hal qilish, ya’ni fikrlardagi ziddiyat farqini tan olib boshqa tomon fikrini o‘rganishga intilish eng

o‘rinli va qo‘l keladigan usul hisoblanadi. Chunki bu ikkala holda kishi shaxsiyatini bug‘uvchi, u bilan hisoblashmaslik holati ro‘y bermaydi. Bu to‘liq bo‘lmasada, qisman o‘z-o‘zidan qoniqish hissini beradi. Mashhur psixoterapevt V. L. Levi ichki va tashqi taqlid qilish insonlarni murosaga olib kelishdagi va nizolarning oldini olishga xizmat qiluvchi funksiyasini aniqlagan. Inson o‘zining ichki sezgisi, intuitsiyasi bilan (ong bilan sezish) o‘zgalar xatti-harakati, so‘zi, mimikasini taqlid qiladi. Mana shunday taqlid qilish natijasida, inson o‘zgalar fikrini tushunishga, unga qarshi chiqmaslikka o‘rganadi.[53]

Shunday qilib, xorij tajribalari ko‘rsatishicha, nizolar va ziddiyatlarning oldini olishda nizo sabablarining chuqur o‘rganilishi, shaxslar bilan ishlash tajribasi, yumshoqlik va maxsus ruhiy xususiyatlari hamda qobiliyatları zarur.

1.3-§. Nizolarning oldini olishda pedagogik jamoa va oila hamkorligi

Globallashuv jarayonlarining salbiy oqibatlari o‘zining qamrovi, ta’sir kuchi, tobora ommaviy tus olishi bilan kam taraqqiy qilgan va endi taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatlar xalqlarini milliy ma’naviyatiga tajovuz qilmoqda. Bu tajovuz nafaqat ommaviy axborot vositalari - televidenie, internet yoki uyali telefonlar vositasida, shuningdek, insonlarning hayot kechirishi va turmushi uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy tangsizlik vositasida ham amalga oshirilmoqda. “Hozirgi vaqtda dunyoda ikki qarama-qarshi qutb barham topgan bo‘lsada, turli xil maqsad manfaatlarni ifoda etuvchi mafkuralar tortishuvi to‘xtagani yo‘q. Ochiq aytish kerakki, bu tortishuvlardan ko‘zlangan maqsad – inson, avvalambor, yoshlar qalbini egallah, muayyan mamlakat yoki mintaqadagi biror millat yoki xalqning ongiga, uning sezgi tuyg‘ulariga ta’sir o‘tkazish, uni o‘z dunyoqarashiga bo‘ysundirish, ma’naviy jihatdan zaif va tobe qilish. Fikr qaramligi, tafakkur qulligi esa har qanday iqtisodiy yoki siyosiy qaramlikdan ham dahshatlidir” [15]. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, o‘smir yoshidagi o‘quvchilar orasida nizolar va ziddiyatlarning oldini olish, bu sohada ta’sirchan mexanizmlarni topish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta’kidlaganidek, “Biz mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash bo‘yicha katta ishlarni amalga oshirmoqdamiz. Ammo xolisona tan olib aytadigan bo‘lsak, bugungi kunda butun dunyoda aholining, birinchi navbatda, yoshlarning ongi va qalbini egallah uchun qanday keskin kurash borayotganini, diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, “ommaviy madaniyat” kabi tahdidlar kuchayayotganini hisobga oladigan bo‘lsak, farzandlarimiz tarbiyasi, ma’naviy-ma’rifiy sohadagi ishlarimizni bir zum ham susaytirmsandan, aksincha, ularni yangi bosqichga ko‘tarishimiz zarur”[9]¹¹.

Mamlakatimizning barqarorligiga, uning ijtimoiy, ma’naviy yuksalishiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan destruktiv oqimlar, patogen g‘oyalar ta’siriga tushib qolmasligi uchun muayyan ijtimoiy-pedagogik asosni yaratish, takomillashtirish hozirgi kunda pedagogika fani oldida turgan muhim vazifalardandir. Mazkur masala, ta’lim sub’ektlari orasida nizolar va ziddiyatlarning oldini olish genezisi, mohiyati va mazmuniga mavjud ilmiy nazariyalarga suyangan holda ta’rif berish, tasniflash, tahsil oluvchilarning sog‘lom tafakkurini rivojlantirish zaruratini keltirib chiqaradi. Hozirgi vaqtda patogen g‘oyalar va destabillashtiruvchi guruhlarning paydo bo‘lishi sabablari, faoliyat doirasi kengayishining oldini olish maqsadida o‘smir yoshidagi o‘quvchilar orasida nizolar va ziddiyatlarning oldini olish muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etib, bu sohada ijtimoiy-pedagogik tadqiqotlarni olib borish dolzarb bo‘lib hisoblanadi.

Nizolarning oldini olishda pedagogik jamoa va oila hamkorligi muhim o‘rin egallaydi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim-tarbiya ishlarining samaradorligi

¹¹ Mirziyoev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017, 17-bet.

faqat o‘qituvchining tayyorgarligi, ma’naviy qiyofasi va o‘z vazifasini qanday bajarishigagina bog‘liq bo‘lib qolmasdan, o‘quvchi yashaydigan muhit va oilaning ta’siriga ham bog‘liqdir. Oila o‘quvchini ahloqiy tarbiyalash, uning ma’naviy-ahloqiy yo‘nalishlarini shakllantirishning muhim omilidir. Oila o‘quvchi tarbiya oladigan eng birinchi jamoa bo‘lib, o‘quvchi unda ahloqiy qoidalar, urf - odatlarni bilib oladi,

dastlabki ahloqiy tajriba orttiradi.

O‘quvchini to‘g‘ri tarbiyalashda uning oldida ota-onaning obro‘sí yuqori bo‘lishi kerak. Ota-onalarning fuqarolik qiyofasi, hayoti, ishlari, yurish turishi, jamiyat oldida o‘z oilasi uchun javobgarlik tuyg‘usi ular obo‘sining asosidir. Mehnat va ijtimoiy faoliyatni oilaviy vazifalar bilan qo‘shib olib boradigan, o‘z o‘quvchilarining hayotiga qiziqadigan va ularga mohirlik bilan rahbarlik qiladigan ota-onalar eng obro‘li kishilardir – bularning xammasi xam onaga, xam otaga baravar taalluqlidir.

Oilada shaxsning ijtimoiy fazilatlari tarkib topadi. O‘quvchi maktabga qadam qo‘yganda yaxshi va yomon narsalar haqida tasavvurga ega bo‘ladi. O‘qituvchi o‘quvchida qanday ahloqiy tushunchalar mavjudligini va bu tushunchalar, ahloqiy fazilatlar qanday sharoitda shakllanganligini ham bilmog‘i kerak.

Tarbiyaning samaradorligi ko‘pincha oila va maktabning o‘quvchiga nisbatan bir xil talab qo‘ya bilishiga bog‘liq. Shuning uchun ham pedagogik ahloqqa o‘qituvchi bilan ota - onalarning o‘zaro munosabatlari, muomalasi masalasiga katta e’tibor beriladi, pedagog oila bilan aloqa va hamkorlik qilmasdan turib o‘quvchini ahloqiy tarbiyalash vazifasini bajara olmaydi. Pedagog o‘quvchilarning ota - onalari bilan aloqa bog‘lab, o‘quvchini tarbiyalashda ular bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi lozim.

O‘quvchini maktabga, o‘qishga qabul qilayotganda pedagog uning ota - onasi bilan tanishadi. O‘qituvchi bilan ota - onaning muomalasi, aloqalari ana shu tanishuvdan boshlanadi, pedagog bilan ota - onalar o‘rtasida ahloqiy — pedagogik munosabatlar o‘quvchi maktabni bitirguncha davom etadi. Pedagogik amaliyot shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilar ko‘pincha tarbiyasi qiyin o‘quvchilarning ota - onasi bilan aloqa o‘rnatadilar. Pedagogning ota - onaga e’tibori ko‘pincha o‘quvchining yomon hulqi, salbiy qiliqlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Agar o‘quvchi mo‘min - qobil, odobli bo‘lsa, ayrim pedagoglar uning ota-onasi, oiladagi tarbiyasiga deyarli e’tibor bermaydi. Maktab oilada shakllangan ahloqiy fazilatlarni mustahkamlashi yoki salbiy sifatlarni qayta tarbiyalashi lozim bo‘ladi. Har bir o‘quvchini yaxshi odam qilib tarbiyalashda pedagog ham, ota — ona ham manfaatdor. Maqsad birligi o‘qituvchini ota - onalar bilan bog‘lab turadi. O‘quvchini yoqtirsa ham, yoqtirmasa ham ota - onasi bilan aloqada bo‘lish pedagogning vazifasi. Pedagogning ota onalar orasidagi obro‘sí

ko‘pincha o‘quvchining fikri, mulohazalari asosida shakllanadi. Vaholanki, o‘quvchining fikri xato bo‘lishi ham mumkin. Shuningdek, pedagogning ota - onalar to‘g‘risidagi fikri ham o‘quvchining suvrati va siyratidan olgan taassurotlariga asoslanadi. O‘qituvchi odobi pedagogda ham, ota - onada ham xato fikr, noto‘g‘ri taassurot qoldirmasligini taqozo qiladi.

Pedagoglar jamoasida o‘zaro muomala — munosabatlar kollegiallik va yakka boshchilikka, intizomni saqlashga asoslanadi. Pedagogning umumiyligi ish uchun mas’uliyat hissi va odob qoidalari kishidan jamoada o‘zini tuta bilish, intizomga bo‘ysunishni talab etadi. Bu pedagogning ahloqiy fazilatlari bilan bog‘liq. Pedagogik faoliyat pedagogdan o‘z-o‘ziga, kasbdoshlariga talabchan bo‘lishni taqozo qiladi. Bunday talabchanlik xolis, beg‘araz, umuminsoniy va milliy ahloqqa mos bo‘lishi lozim.

Jamoatchilik fikri, pedagogik nuqtai nazarlarning xarakteri, yagona talablarga ixtiyoriy ravishda rioya qilish, odob normalarini ongli bajarish pedagoglar jamoasidagi ma’naviy - ahloqiy vaziyatni yaxshilaydi. Bunday ahloqiy muhitda o‘zaro muomalada hayrihohlik, ijodiy hamkorlik, yaxshi kayfiyat, yuksak mehnat intizomi vujudga keladi. Pedagogik faoliyat zavqli, samarali bo‘ladi. Bunday pedagogik jamoada pedagog ilhom bilan ishlaydi, o‘z ishidan qanoat hosil qiladi.

Pedagogning ota — onalar bilan to‘g‘ri muomala qila olishi murakkab, nozik ish. Chunki hozirgi ota — onalarning ko‘pchiligi o‘rtaligida yoki oliy ma’lumotli kishilar, ular vaqtini matbuot, televidenie, radio orqali ko‘pgina pedagogik axborotlarni bilib oladilar. Mulkchilik munosabatlarining o‘zgarishi ham muomala odobiga ta’sir etadi. Bu xol pedagogdan yuksak pedagogik madaniyatli bo‘lishini taqozo qiladi.

Turli sabablarga ko‘ra o‘quvchining bir mактабдан ikkinchisiga o‘tib o‘qish hollari pedagogik amaliyotda uchrab turadi. O‘quvchi o‘quvchilarining yangi jamoasiga qo‘shilib ketgunicha qancha vaqt o‘tadi. Bu davrda sodir bo‘ladigan voqealar o‘qituvchi bilan ota - onalarning muomala, munosabatlariga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Umumiyligi o‘rtalim maktab o‘quvchilarida nizo va ixtiloflarni oldini olishga yo‘naltirilgan sog‘lom tafakkurning shakllanish bosqichlari ota - onalar bilan aloqa

qilish yo‘llari, tarbiya metodlari va vositalarning xilma- xilligiga ham bog‘liqdir. Bu yo‘nalishda sinf rahbarining oila bilan olib boradigan hamkorligi shakllariga quyidagilarni kiritish mumkin.

O‘quvchining kundalik daftaridan pedagog ahloqiy tarbiyaning, o‘quvchiga ta’sir o‘tkazishning muhim vositasi sifatida foydalanishi mumkin va lozim. Aks holda u dars jadvali va uy vazifalari yoziladigan oddiy bir daftarga aylanib qoladi. Ayrim o‘qituvchilar o‘quvchining kundalik daftariga hatto, olgan bahosini qo‘yishga ham e’tibor bermaydilar, sinf rahbarlari ham bu masalaga turlicha yondoshadilar: ba’zilar o‘quvchining hafta davomida olgan hamma baxolarini yozib ko‘rsa, ba’zilari faqat «ikki» yoki faqat «to‘rt», «besh» baholarini va qoldirgan darslarinigina yozib, to‘g‘risiga imzo qo‘yadilar. Shu bilan birga kundalik daftarga o‘quvchining hulqi va u o‘qishda erishgan yutuqlari, maslahat va takliflarini yozadigan sinf rahbarlari ham bor. O‘quvchining kundalik daftarida uchraydigan: «Darslarda faolroq qatnashadigan bo‘lding, pedagoglaring sendan mammun», «Fizika va biologiyadan dars qoldirgan kunlaringda o‘tilgan mavzularni o‘zlashtirib ol, boshqa fanlardan biliming tuzuk», «Jamoatchilik ishlariga, mehnatga munosabatingni o‘zgartir, faolroq bo‘l», «Sinfdoshlaring bilan xushmuomala bo‘l, o‘zingni tuta bil, irodangni ishga sol», «Uyda nima ishlar qilishingni menga aytib tur» kabi yozuvlar shundan dalolat beradi. Pedagog o‘quvchi bilan gaplashayotgandek tuyulsa ham, aslida bu yozuvlar ota-onalar uchun ham eslatmadir.

Maktab bilan oilaning o‘zaro hamkorligi, munosabatlarini yaxshilashda ota-onalar majlislari, o‘qituvchilarning uyiga pedagogiig borishi, ota-onalarning pedagogik bilimi va ahloqiy madaniyatini oshirish muhim rol o‘ynaydi. Buning uchun maktab rahbarlari, pedagoglar pedagogik muomala odobi qoidalarini o‘zlari yaxshi egallagan bo‘lishlari va targ‘ibot qilishlari zarur.

Albatga, hamma o‘qituvchilarni muomala odobini buzishda ayblab bo‘lmaydi, ko‘pgina pedagoglar ota — onalar majlisidan tarbiyaning vositasi sifatida o‘rinli foydalanadilar. Maktab bilan oila o‘rtasidagi muomala — munosabatlar jarayonida konfliktlar, nizolar sodir bo‘lishi tabiiydir. Chunki o‘quvchilarning individual xususiyatlari, xarakteri juda xilma - xildir. Ular bilan muomalada hech kutilmagan

hodisalarga duch kelinadi. O‘quvchi tajribasizligi tufayli xato qilishi mumkin. Bunday paytlarda maktab rahbari va pedagoglar muomala odobi qonuniyatlariga qat’iy amal qilishlari talab etiladi.

Shunday vaziyatlар ham bo‘ladiki, o‘g‘il bolalar yoki qiz bolalar mакtabda o‘zboshimchalik qiladi, lekin oilada xushyor va gapga qulоq soladi yoki aksincha. Oilada muomalasi qo‘pol, o‘zboshimcha, o‘smirlarning paydo bo‘lish sababi nimada? Bunday holatlarning hammasi uchun bir xil sabab va to‘g‘ri javobni topish amri mahol. Chunki har bir holatda uning sabablari turlicha bo‘lishi mumkin. Demak, o‘qituvchi va ota - onalarning maqsadlari bir xil bo‘lsa ham, ularning hamkorligi, bir - birini tushunishi, muomala munosabatlari qarama-qarshiliklarsiz bo‘lmaydi.

Pedagogik jarayonda o‘qituvchi bu muammoga o‘quvchini ahloqiy tarbiyalash nuqtai nazaridan vaziyatga qarab yondashmog‘i lozim. Shunday ota-onalar ham borki, bo‘lar-bo‘lmasga farzandini jazolayveradi. Bunday vaziyatlarda pedagog o‘quvchining barcha xatolarini hadeb ota-onasiga aytaverishi shart emas.

Shuningdek, hal etilgan mojarolar, ilgari bo‘lib o‘tgan voqealarni pedagog tomonidan ota-onaga etkazaverish yaxshi natija bermaydi. Tarbiya masalasida pedagogning va ota-onalarning fikrlari bir — biriga to‘g‘ri kelmasa ham bu sohada ular birga bajargan yaxshi ishlarini yo‘qqa chiqarmaslik lozim. Pedagogik odob pedagogdan ota-onalar bilan faqat ularning ko‘magi zarur bo‘lgan paytlardagina emas, balki muntazam ravishda aloqada, yaxshi muomalada bo‘lib turishni talab etadi. Shu bilan birga, ota - onalar jamoatchiligining yordami bilan pedagogik vaziyatlarda sodir bo‘lgan ziddiyatlarga, o‘quvchining hulqiga, ahloqiy tarbiyasiga salbiy ta’sir etayotgan yoki mакtab, pedagoglar haqida nojo‘ya so‘zlarni aytib yuradigan ota-onalarga ta’sir etishi mumkin. Ayrim noqobil ota - onaning xatosini tashkil qilishga sinf ota-onalar jamoasini jalb etish ham maqsadga muvofikdir. Ayrim jamoatchi faollar ularga pedagogdan ko‘ra ko‘proq ta’sir o‘tkazishi mumkin.

Ayrim ota- onalarda, pedagog mening o‘g‘lim yoki qizimga nisbatan noto‘g‘ri muomala, adolatsizlik qilyapti, degan taassurot mavjud bo‘ladi. O‘quvchi, ko‘pincha, o‘zining biror nojo‘ya hatti- harakatini, yomon qilig‘ini o‘zicha izohlab, to‘g‘ri deb hisoblab, pedagogning tanbehini esa o‘ziga nisbatan adolatsizlik deb, xato o‘ylaydi va

bu o‘zining xato fikrini ota- onasiga etkazadi. Ota - ona ham o‘quvchining so‘ziga ishonib, voqealiga nima ekanligini aniqlamay, pedagogni yomonlash yo‘liga o‘tadi. Pedagogik odobning talablaridan biri shundan iboratki, pedagog ota — onalar bilan muomala qilganida bu holatni e’tibordan qochirmasligi lozim. Pedagogik muomala odobining talablaridan biri o‘qituvchining sabr — toqatl bo‘lishidir. Ota- onaning mакtab va boshqa o‘qituvchilar haqidagi tanqidiy fikr — mulohazalarini diqqat bilan eshitish, hatto bunday tanqid noto‘g‘ri bo‘lgan taqdirda ham, pedagog ota-ona bilan muomalada o‘zini tuta bilmog‘i shart.

Biroq, bunday pedagog ota - onaning u haqida yoki boshqa pedagoglar haqida aytayotgan fikrlariga befarq qarashi kerak, degan xulosa chiqmaydi. Bunday paytlarda kat’iyatsizlik ko‘rsatish jamoatchilik orasida o‘qituvchi haqida noto‘g‘ri fikr paydo bo‘lishiga olib keladi. Ayrim ota- onalarning bunday fikr-mulohazasi xatoligini asoslab, odob qoidalarini saqlagan holda rad etish, pedagogning gapi haq ekanligiga ishontirish kerak.

Ba’zi ota-onalar farzandining o‘zlashtirishi to‘g‘risida gaplashish uchun maktabga kelib, bolasining go‘yo qobiliyatli-yu, u yoki bu pedagog yaxshi o‘qitmayotganidan arz qila boshlaydi. Bunday vaziyatda nizo paydo bo‘lmasligi uchun o‘qituvchi jahli chiqib turgan ota- onaga ahvolni yotig‘i bilan tushuntirish, bu hatoni tuzatish yo‘llarini birga izlash o‘rniga jahl qilib, e’tiroz bildirish yo‘liga o‘tadi. Ota-ona bilan pedagog o‘rtasidagi nizolar ana shunday vaziyatlarda kelib chiqadi, uni bartaraf etish mакtab rahbarlarining zimmasiga tushadi. Bunday voqealar sodir bo‘lmasligi yoki ularning oldini olish uchun pedagog o‘quvchining qobiliyati va bilimlarini to‘g‘ri, asosli baxolashi, o‘quvchilarning ba’zilarini hadeb yomonlayvermasligi, ota- onalar bilan odob doirasidan chiqmay muomala qilishi talab etiladi. Pedagog ota- onalar bilan muomala jarayonida o‘quvchining taqdiriga befarq emasligini, uni kelajakda yaxshi odam bo‘lib etishishiga tilakdosh ekanligini tushuntirish lozim. Ayrim ota — onalarga o‘quvchisini haddan tashqari erkatalishlari zararli ekanligini, yomon oqibatlarga olib kelishi mumkinligini tushuntirish kerak. O‘qituvchi xushmuomalalik bilan ayrim ota- onalarga jamiyat oldidagi burchini, o‘quvchini kelajakda o‘z mehnati bilan yashaydigan, ishbilarmon qilib tarbiyalash

zarurligini ko‘rsata olishi darkor. Pedagogning asosiy vazifalari, pedagogik odobning muhim talablaridan biri o‘quvchiga ota- onasining yaxshi fazilatlarini aytib, o‘quvchida ota- onasiga nisbatan hurmat, muhabbat tuyg‘usini o‘stirish, mustahkamlashdan iborat.

Amerikalik psixolog olim Abraam Maslou ehtiyojlar nazariyasida ehtiyojlar ierarxiyasi to‘g‘risida fikr yuritib, shunday deydi: “Ehtiyojlarning eng quyi pog‘onasiga fiziologik ehtiyoj (uyqu, ochlik, tashnalik va h.k.)lar mo‘jassamlashadi”. Agar ular doimiy ravishda qondirib turilsa, faol xulq- atvor determinantlari sifatida xizmat qilmay qo‘yadi, chunki qondirilmagan ehtiyojlarga kishini faol harakatlarni amalga oshirishga undaydi. Fiziologik ehtiyojlar qondirilgandan so‘ng xavfsizlik, himoyalanishga bo‘lgan ehtiyoj yuzaga chiqadi. Undan so‘ng muayyan ijtimoiy guruhga mansub bo‘lish va unda barqaror o‘rin egallash kabi ijtimoiy ehtiyojlar o‘rin egallaydi. Keyingi ehtiyoj o‘zini o‘zi baholashning yuqori darajasiga ega bo‘lish hamda boshqalar tomonidan hurmat qilinishiga erishishdir, nihoyat, barcha ehtiyojlarining qondirilishiga erishgan insonning eng so‘nggi bosqichdagi ehtiyoji o‘zini o‘zi takomillashtirish, ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga intilish, shaxs sifatidagi qobiliyatlarini namoyon etishda ifodalanadi [54]. Maslouning fikricha, inson o‘zining asosiy ehtiyojlarini qondirolmasa, unda ziddiyatli vaziyatlarni keltirib chiqaruvchi, qo‘srimcha mexanizmlarning ishga tushishiga sabab bo‘ladigan nosog‘lom, patogen harakatlar namoyon bo‘ladi. Demak, olim fikricha, barcha ehtiyojlarining qondirilishi insonning turli nizo va ziddiyatlardan oqilona chiqib ketishga yordam beradi.

Psixolog olim A.Adlerning fikricha, inson hayoti asosiy qonuni sifatida shaxsning ustunlik, afzallikka intilishini ko‘rsatish mumkin [23]. Bu intilishning konstruktiv yo‘nalishda qo‘llanishi faoliyatni umumjamoa manfaatidan kelib chiqib, amalga oshirishga xizmat qiladigan shaxslar faoliyatida namoyon bo‘ladi.

K.Rodjersning ta’kidlashiga ko‘ra, insonning barcha harakatlari qandaydir bir umumlashtiruvchi motiv asosida yuzaga keladi va amalga oshiriladi. Mazkur motivni u faollashuvga moyillik, rag‘bat deb ataydi.

Shunday qilib, pedagogik odobning muhim talablaridan biri pedagog ham, ota-

ona ham, maktab rahbarlari ham o'smir yoshidagi o'quvchilar bilan muomala qilganda pedagogik odobni saqlashi, o'quvchining izzat - nafsga tegmasligidir. O'qituvchilar jamoasi ijobiy ijtimoiy-ruhiy munosabatlar va ijobiy kommunikatsiya asoslarini shakllantirishda o'quvchilarga yordam berishlari lozim, ana shundagina ta'lif sub'ektlari orasida nizo va ixtiloflarning oldini olishga erishiladi.

Birinchi bob bo'yicha xulosalar

1.Dunyoning turli mintaqalari va alohida davlatlarida destruktiv holatlarning kuchayishi natijasida umumiy o'rta ta'lif maktablari o'quvchilarining individual-psixologik va ijtimoiy rivojlanishida ijtimoiy muhit, yon-atrofdagilarning ta'siri kuchli bo'lib, o'smir va o'spirin yoshidagi o'quvchilarda yuqori darajadagi asabiylilik va qo'zg'aluvchanlik, o'zgalar va yon-atrofdagilar bilan munosabatlarining keskinlashuvi sodir bo'layotganligi kuzatilmoqda. Fiziologik hamda psixoijsimoiy omillar bilan tavsiflanuvchi bu o'zgarishlar o'quvchi ruhiyatida ham yuz berib, pedagogik jamoada ta'lif sub'ektlari orasida turli nizolarning paydo bo'lishiga sabab bo'lishi tendensiyasining intensivlashuvi kuzatilmoqda. Shu jihatdan olganda, ta'lif sub'ektlari orasida nizo va ixtiloflarning oldini olish texnologiyalarini takomillashtirish muhim ijtimoiy-pedagogik hodisa hisoblanadi.

2.Milliy va xorijiy pedagogika fani hamda umumiy o'rta ta'lif muassasalari amaliyoti misolida muammoning holatini o'rganish, tahlil qilish, umumlashtirish natijasida, mualliflik nuqtai nazaridan tadqiqot doirasida "*ixtilof*", "*nizo*" atamalari ilmiy-pedagogik jihatdan asoslandi.

3.Mamlakatimizda keyingi yillarda ijtimoiy, ma'naviy, siyosiy va iqtisodiy sohalarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarda yoshlarga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikning yorqin ifodalishini kuzatish mumkin. Davlat hamda jamiyat oldida turgan va hal qilinishi lozim bo'lgan bir qator vazifalar negizida yoshlarda umuminsoniy qadriyatlar bilan birga shaxslararo munosabatlarda hurmat, empatiyaga moyillik, sabr, oqibat tuyg'ularini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

4.Umumiy o'rta ta'lif sub'ektlari orasida ixtilof va nizolarning oldini olishda asosiy e'tibor ijtimoiy-madaniy kontekstda sodir bo'ladigan neyrofiziologik jihatlarga

qaratilishi maqsadga muvofiq. Shunga ko‘ra, nizolar biologik jihatdan asosiy, determinantlashgan emas, balki, biologik jihatdan ahamiyatli omildir.

5.Xorij va mamlakatimiz olimlari tomonidan pedagogik nizolar va ularning sabablari borasida olib borgan ilmiy izlanishlari tahlil etilganda quyidagilar ayon bo‘ldi. Nizo-bu ta’lim sub’ektlari orasida muayyan masalalarni hal qilishda tomonlarning bir-biri bilan bir echimga kela olmaganligini bildiradi. Nizo(konflikt)larning to‘rtta asosiy turi mavjud, bular:

- shaxsning o‘ziga xos ichki nizolar;
- inson shaxsiyati va guruh orasidagi nizolar;
- insonlar orasidagi nizolar;
- guruuhlar orasidagi nizolardir.

Nizolarni hal qilishning to‘rtta tuzilmaviy usuli mavjud bo‘lib, bular: ishga bo‘lgan talablarni yaxshilab tushuntirish (koordinatsiya);

o‘zaro kelishtirish va integratsiya;

o‘zaro singdirish mexanizmlarini qo‘llash; umumtashkiliy kompleks maqsadlarni belgilash; taqdirlash orqali rag‘batlantirish tizimini qo‘llashdir.

Umumiyl o‘rta ta’lim sub’ektlari orasidagi kommunikativ munosabatlar oqibatida yuzaga keladigan nizolarni hal qilishda 5 ta usul mavjud bo‘lib, bular: nizoga chap berish; yumshatish; majbur qilish; kompromiss-ya’ni o‘zaro bitimga kelish; muammoni hal qilishdir.

II BOB. UMUMIY O‘RTA TA’LIM PEDAGOGIK JAMOASIDA
IXTILOF VA NIZOLARNING OLDINI OLISH
TEXNOLOGIYaLARINI TAShKIL ETISH

**2.1-§. Umumiy o‘rta ta’lim pedagogik jarayonida nizolarning
oldini olish texnologiyalari**

Umumiy o‘rta ta’lim pedagogik jarayonida nizolarni boshqarish, ularning oldini olish shakl va usullarini to‘g‘ri tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, pedagogik usullardan biri – ishontirish orqali nizo va ixtiloflarning oldini olish mumkin. Ishonuvchanlik - nerv sistemasining normal holati bo‘lib, uning aks etishi turli hollarda turlich raqish kechadi. U yoshga (yoshlik davrida yuqori), jinsga (ayollarda ishonuvchanlik yuqori), intellektga (ma’lumot oshishi bilan ishonuvchanlik pasayadi), sog‘liq holati (charchaganda, kasallikdan so‘ng ishonuvchanlik yuqori bo‘ladi)ga va boshqa omillarga bog‘liq. Bundan tashqari ishontiruvchi shaxsining nufuzi, salobati, ko‘rinishi, obro‘sni ham muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik amaliyotda nizolarni boshqarish, ularning oldini olish shakl va usullarini quyidagicha turkumlash maqsadga muvofiq (2.1-jadval).

Jadvalda ifodalanganidek, so‘z bilan ishontirish eng qiyin tarbiyaviy vositalardan biridir. Buning uchun pedagog etarli darajadagi salohiyatga, boy tajriba va chuqr dunyoviy, ilmiy, kerak bo‘lsa, diniy bilimlarga ega bo‘lishi lozim. Bunda tinglovchilar fikrini o‘zgartira oladigan mantiq yoki suhbat ohangini tanlash juda muhimdir. O‘qituvchining nutqi o‘zining mazmundorligi, ta’sirchanligi, o‘ziga jalb etish quvvatini mujassam etganligi, go‘zal va ta’sirchan nutq matnini tuza bilish, til boyliklari va badiiy tasvir vositalaridan o‘rinli foydalanish xususiyatlari bilan tavsiflanishi shart.

Ishontirishda axborotning mazmunli bo‘lishi, tinglovchi esa unga ongli munosabatda bo‘lishini nazarda tutadi.

2.1-jadval.

Pedagogik amaliyotda nizolarni boshqarish, ularning oldini olish shakl va usullari

Nº	Nizoning oldini olish usullari va shakllari	Metod tavsifi	Natija
1	<p>Metod: Ishontirish</p> <p>Shakllar: dars, darsdan tashqari tadbirlar Sinf soatlari Ma’naviyat soatlari; Patternlar Ota-onalar majlisi Pedagogik konsilium Tarbiyaviy chelenjlar Seminar-treninglar</p>	Muayyan mavzu yuzasidan biror fikr yoki xulosani mantiqiy asoslash, ijtimoiy fikr tug‘dirishdir.	Ishontirish asosida pedagog o‘quvchilar, sinf, guruh jamoasi, ota-onalar ongiga ta’sir qiladi va ularni shu asosda faoliyat ko‘rsatishga undaydi.
2	<p>Metod: Uqtirish</p> <p>Shakllar: dars, darsdan tashqari tadbirlar; Pedagogik trening, psixologik trening, Sinf soatlari Ma’naviyat soatlari Ota-onalar majlisi Pedagogik konsilium</p>	Ta’lim sub’ektlarining muloqot va faoliyati jarayonida o‘zaro ta’sir etish vositalaridan biridir.	Ta’lim sub’ektlari ruhiyatiga uning o‘ziga sezdirmasdan ta’sir etish, shaxs psixikasi tarkibiy tuzilishiga beixtiyor kirib borish va kundalik hayotdagi qiliqlar, intilishlar, motivlar va yo‘l-yo‘riqlarda uqtirish namoyon bo‘ladi.
3	<p>Metod: Taqlid</p> <p>Shakllar: Ma’naviyat soatlari Ota-onalar majlisi Pedagogik konsilium Pedagogik va psixologik trening Tarbiyaviy chelenjlar</p>	Inson ruhiyatini o‘ziga rom qilish turidir. U asosan individning ma’lum bir hulq-atvor, harakat tarzi, qiliqlari takrorlanishini anglatadi.	Ichki taqlid qilishda kishining tashqi qiyoфasi ham hisobga olinadi. Ichki va tashqi taqlid qilishni bilish yosh o‘qituvchiga o‘z ustida ishlashga xizmat qiladi.

Tajriba-tadqiqot ishlarida (2017-2021yy.) biz pedagogik jamoada nizolarning oldini olishga yo‘naltirilgan metodikani amaliyotga tatbiq qilish uchun Toshkent tumanidagi 11, 18, 22-maktablar, Samarkand shaxrining 1, 6, 42-umumiyl o‘rta ta’lim maktablari hamda Namangan viloyatining 52, 53, 82-ummumiy o‘rta ta’lim maktablari ta’lim sub’ektlariga anketa tarqatdik (1-ilova). Anketalarga olingan javoblarga ko‘ra, ta’lim sub’ektlari taniqli sportchi, mashhur aktyor, xo‘shovoz xonanda, taniqli siyosatshunos, mehnat faxriylarining uzatayotgan axboroti ularda zalvorli ta’sir ko‘rsatishini bildirdilar (97%). Tadqiqotda qatnashgan 89% respondentlar haqiqiy

ishonch haqiqiy voqelikka mos kelishini va shaxsning jamiyat oldidagi qadr-qimmatini oshirishini ma'qullashgan. O'zining haqiqiy ishonchiga sodiq bo'lishda 64% respondent qahramonlarning jasoratida namoyon bo'lganini ko'rsatishgan. Masalan, Vatan uchun jonini fido qilgan Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Tuychi Eryigitov va boshqalar misolida ta'lif sub'ektlari o'zida ishonch hissini rivojlantirishlarini uqtirishgan. 71% respondentlar soxta ishonch sinf jamoasi, qolaversa, jamiyat uchun ham zararli bo'lgan odatlarni shakllanishiga olib kelishini uqtirishgan. Sinaluvchilarning 86% soxta ishonch o'zi va atrofdagilar ta'sirining umumlashuvi natijasida vujudga kelishini ta'kidlashgan. 23% o'quvchilarda faqat baho uchun o'qish, bilim egallashda ko'r-ko'ronalik, o'qituvchi va tevarak-atrofdagilarni aldash, mакtab ichki tartib-qoidalarini buzish sohta ishonch paydo bo'lishiga sabab bo'lishini qayd etishgan. Javoblardan anglanishicha, yuqorida bunday ishonchlar o'quvchida shakllanib, asta-sekin boqimandalik, o'qish va mehnat faoliyatida sustkashlik kayfiyatini yuzaga keltiradi.

O'tkazilgan anketa savollaridan ishontirish faqat o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida sodir bo'lmasdan, balki oila a'zolari, o'quvchining tengdoshlari, o'rtoqlari, turli referent guruhlar bilan muloqotga kirishish natijasida ham yuzaga kelishi aniqlandi. Masalan, biz tajriba tadkikot olib borgan bir mакtabning ukituvchisi bu borada shunday fikr bildirdi: "Pedagoglik tajribamda o'quvchilar bilan munosabatga kirishishda *ishontirish* muhim ahamiyatga ega ekanligining guvohi bo'laman. Jumladan, sinfimdagи o'rtacha qobiliyatli, sekinlik bilan vazifa bajaruvchi Nodir ismli o'quvchi borgan sari fanlarni yomon o'zlashtiradigan bo'lib qoldi. Mening "Nima uchun fanlarni yomon o'zlashtirayapsan?", - degan savolimga Nodir "Men buni tushunmayapman", -deb javob berdi. Suhbatdan aniq bo'ladiki, uyda vazifa bajarayotganda buvisi yonida o'tirgan va uning sekin harakatlanishi va sust fikrlashidan zerikib "Sening miyang ishlamaydi", - der ekan. O'quvchi bu fikrga o'zini ishontirib, fanlarni yomon o'zlashtira boshlagan". Demak, o'quvchi bilan muloqatga kirishishda o'qituvchi hamisha o'quvchining o'z kuchi, iqtidori, qobiliyati va ijobjiy sifatlarini shakllantira va rivojlantira olishiga ishontira olishi muhimdir.

Ishontirish ijobjiy va salbiy bo'lishi mumkin. O'qituvchi o'quvchida ijobjiy holat

- uy vazifasini tayyorlash, sport turlari bilan mashg‘ul bo‘lish, biron ijodiy va fan tugaraklariga qatnashish ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida goho ifodali, goho hukmron tovushda uni ishontira olishi lozim.

Shaxs rivojlanishiga o‘z - o‘zini ishontirishning o‘rni muhim. O‘z - o‘zini ishontirishning yuksak darajasini biz mashhur sportchilar, yoglar, ekvilibristlar faoliyatida ko‘rishimiz mumkin.

Soxta ishonchni bartaraf qilish o‘qituvchidan astoydil mehnat qilishni talab qiladi. Buning uchun o‘qituvchi, avvalambor sinf jamoasida sog‘lom ijtimoiy fikrni shakllantirishi, muhim ahamiyat kasb etuvchi hayotiy tajriba yaratish, soxta ishonchlarni asosli ravishda inkor qilishi lozim. Birinchi navbatda jamoani shakllantirishga, uni yaqin kelajakda va istiqboliy rivojlanish yo‘nalishlarini yaratishga alohida e’tibor berish zarur. O‘qituvchi har bir o‘quvchidagi ijobiy fazilatlarga asoslangan holda, ahil sinf jamoasi yordamida soxta ishonchlarni bartaraf qilishi kerak. Soxta ishonchlarni o‘zgartirishning quyidagi usullari mavjud:

- o‘quvchiga o‘zini boshqalar bilan taqqoslashga undash, uning fikriga qaramaqarshi fikrda bo‘lgan kishi bilan yaqindan tanishtirish (masalan, o‘quvchi o‘qishni hohlamaydi, lekin uning tanish o‘rtog‘i ko‘p o‘qiydi va biladi, va o‘zini «quruq yodlovchi» yoki «o‘ta bilimdon» qilib ko‘rsatmaydi);

- noadekvat (noto‘g‘ri) qarashlar va ishonchsizlik oqibatini ko‘rsatish (masalan, ana shunday xislatlarga ega bo‘lib o‘z hayotini barbod qilgan, o‘z erki, g‘ururi va vijdonini yo‘qotgan kishilar haqida so‘zlab berish. Buning uchun hayotiy misollar, badiiy asar, kinofilmlar va boshqalardan foydalanish);

- soxta ishonchni yoqlab himoya qiluvchi o‘quvchining fikrini mantiqiy rivojlantirib, uni hayratga soluvchi holatga etkazish (masalan, o‘zgalarni aldash, ichki tartib-qoidalarga rioya qilmaslikning salbiy tomonlarini tushuntirish va boshqalar);

- o‘quvchiga o‘z qarashlarini asoslab, isbotlashga imkon berish va ularni alohida birma-bir inkor qilish. Soxta ishonchlar haqiqiy ishonch, ahloqiy tasavvurlar, qadriyatlar va odatlar bilan almashinishi lozim.

Mohir pedagog muloqatga kirishganda, o‘quvchini ikkilantirib turgan soxta ishonchlarni bartarafqilishi kerak. Agar o‘quvchi ishontirish jarayonini erkin, o‘z

hohishi bilan qabul qilsa, maqsadga erishish oson bo‘ladi. Ishontirish natijasi o‘qituvchining so‘z ta’sirchanligi va xulqiga ham bog‘liqdir. Tarbiyachining so‘zi va ishi bir bo‘lishi kerak. Masalan, jahl ustida o‘quvchini jazolash (hayfsan e’lon qilish, tanbeh berish, jamoada bilan qo‘rkitib, so‘ng esdan chiqarib qo‘yishi, o‘quvchilarga va’da berib uni bajarmaslik ishontirish metodi samarasini pasaytiradi.

Eng yomoni - o‘qituvchi o‘quvchilarga haqiqat haqida balandparvoz so‘zlarni aytsada, o‘zi kundalik ish faoliyatida unga amal qilmasligidir. Bunday o‘qituvchi jamiyatga katta zarar keltiradi.

Ishontirishning yuqori samaradorligi o‘quvchilar bilimlarini (irodaviy hislatlar, to‘g‘ri xulq me’yorlarini tarkib toptirish) mustahkamlovchi mashqlarga ham bog‘liq bo‘ladi. O‘quvchi xarakterini shakllantirishda mashqlar alohida o‘rin tutadi.

Tadqiqot doirasida tarqatilgan anketalarga berilgan javoblarda 6-9-sinf o‘quvchilari ba’zan maktablarda faqat og‘zaki tadbirlar o‘tkazishga nihoyatda ko‘p e’tibor berilishini ta’kidlashgan. Bunday tadbirlar o‘quvchilarni zeriktirishini (89%), ular hayotdagи aniq vaziyatlarda o‘zini qanday tutishga oid tajribani egallay olmasliklarini (56%) qayd etishgan. Natijada, ijtimoiy hayotda sustkash bo‘lib etishish mukinligini (41%) respondentlar ta’kidlashgan. Mabodo, shunday tadbirlar o‘tkazilar ekan, unda bunday og‘zaki tadbirlarni yuqori darajada ishontirish salohiyatiga ega bo‘ladigan qilib o‘tkazish maqsadga muvofiqligi (88%) respondentlar tomonidan ta’kidlangan.

Respondentlarning deyarli 94% o‘qituvchining kommunikativ ko‘nikmasi: yuz mimikasiga qarab o‘zgalar holatini tushuna olish, o‘zini namoyish qila bilish ham muhim ahamiyat kasb etishini e’tirof etishgan.

Yuz mimikasiga qarab o‘zgalar holatini tushuna olish - biror shaxsning o‘z fikrini namoyon (ya’ni og‘zaki va yozma xolatda) qilmaganda uning yuz tuzilishi, yuzidagi a’zolarning ba’zi bir harakatlaridan anglash, tushuncha olishdir. “Yuzni o‘qish” avvalo psixologik jihatdan idrok, diqqat va kuzatuvchanlikka bog‘liqdir.

O‘zgalar holatini tushuna olish o‘qituvchi uchun muhimdir. Sababi u qanday holat, sharoitda o‘sigan o‘quvchilarga dars berayotganligini bilishi lozimdir. O‘quvchilarning yurishi, o‘tirishi, harakatidan ularning qay holatda yurganliklarini

bilish mumkin.

O‘zini namoyon qila olish- bu bilim, malaka, ko‘nikma, odob-axloq, muomala, nutq, munosabat orqali o‘zini namoyon qila olishdir.

Pedagogik ta’sir etishning metodi bo‘lgan ishontirish bilan birga uqtirish ham o‘quv-tarbiyaviy jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi.

Uqtirishning mohiyati shundan iboratki, tinglovchi so‘zlayotgan shaxsga to‘la ishonch bildiradi. Bu holda so‘zlovchi tinglovchida aynan o‘zidagi tasavvur, qiyofa va sezgilarni gavdalantiradi va unda to‘liq ishonch hosil qiladi.

“Uqtirib ta’sir etishda axborot manbai bo‘lmish so‘zlovchining obro‘ga ega bo‘lishi, ikkinchi tomondan esa tinglovchida ishonch hosil qilishiga erishishdir. O‘qituvchi tahsil oluvchiga muayyan mavzuni uqtirayotganda pedagogik muloqot o‘zaro ta’sir etish jarayoni sifatida ixtiyoriy va ixtiyorsiz, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rinishga ega bo‘lishi mumkin. Pedagogik jihatdan to‘g‘ri qo‘llangan uqtirish juda katta tarbiyaviy kuchga ega¹”- deb yozadi M.Ochilovning “O‘qituvchi odobi” nomli kitobida.[66] Darhaqiqat, pedagogning samarali uqtirib ta’sir ko‘rsatishining zarur shartlaridan biri o‘quvchi va jamoa ruhiyatiga ta’sir qilish natijasida ularda ijobjiy hislatlar tarkib topadi. Eng muhimi shundaki, o‘quvchi o‘qituvchi aytgan harakatlarni bajaradi va ularni o‘zi mustaqil o‘ylab topgandek his qiladi.

Uqtirishga moyillik inson asab tizimining me’yordagi xususiyatidir. U yosh davriga (yosh o‘quvchilarni uqtirish osonroq), jinsga (ayollar uqtirishiga ko‘proq moyil bo‘ladilar), ongni rivojlanishi darajasi (intellekt)ga, salomatlikka (charchaganda yoki kasallikdan yaqinda tuzalgan kishini uqtirish oson bo‘ladi) va boshqa omillarga bog‘liq bo‘ladi. Bundan tashkari uqtirishga moyillik uqiruvchining obro‘si va uqtirish shakliga qarab ham o‘zgarib turadi. Uqtirishga moyillikning ayniqsa yosh davrlariga bog‘liqligi juda sezilarlidir.

O‘quvchilar 7-10 yoshda juda ta’sirchan bo‘ladilar, shuning uchun ular bilan ishslashda so‘zning uqtiruvchi qudratini oshiradigan alohida usullarini o‘ylab topishga ham zarurat qolmaydi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining hurmati juda yuqori

¹ Ochilov M., Ochilova N. O‘qituvchi odobi.- Toshkent: O‘zbekiston, 1996.-172 bet

bo‘ladi, o‘quvchilar uning har bir so‘zi, hikoyasi yoki tanbehini aniq haqiqat, deb qabul qiladilar. Ko‘p hollarda ishontirish va uqtirish o‘zaro bog‘liqdir. Ishontirish va uqtirishning umumiy belgilari:

- har ikkalasida ham so‘z ta’sir etish vositasidir;
- o‘qituvchining nutq maromi sust, ohangdorligi past bo‘lsa va uning yuz ifodasi hayotiy bo‘lmasa, ishontirish ham, uqtirish ham muvaffaqiyatsiz bo‘ladi.

Yosh oshgan sari o‘quvchilarda tanqidiy fikrga egalik oshadi. 11-14 yoshli o‘quvchilarda esa kattalar xatti-harakatiga taqlid qilish birmuncha yuqori bo‘ladi.

Taqlid qilish- inson ruhiyatini o‘ziga rom qilishning bir turidir. U asosan individning ma’lum bir hulq-atvor, harakat tarzi, qiliqlari takrorlanishini anglatadi. Mashhur psixoterapevt V.L.Levi ichki va tashqi taqlid qilish mavjudligini aniqlagan. Inson o‘zining ichki sezgisi, intuitsiyasi bilan (ong bilan sezish) o‘zgalar xatti-harakati, so‘zi, mimikasini taqlid qiladi. Ichki taqlid qilishda kishining tashqi qiyofasi ham hisobga olinadi. Ichki va tashqi taqlid qilishni bilish yosh o‘qituvchiga o‘z ustida ishslashga xizmat qiladi.

Nizolarning oldini olishda o‘qituvchining o‘quvchiga ta’sir etishi turli kommunikativ unsurlar orqali amalga oshiriladi (2.2-jadval).

2.2-jadval.

Nizolarning oldini olishda kommunikativ unsurlarning ahamiyati

T/R	Ta’lim sub’ektining boshqaruvi uslubi	Ta’lim sub’ektlarining xatti-harakati	Kommunikativ unsurlarning ahamiyati
1	Demokratik uslub	Nizolarning oldini olishda ta’lim sub’ektlarining birgalikda hamkorlik qilishlari	Yetuk pedagogik muloqot o‘qituvchining - o‘z-o‘zini, muloqot jarayoni va natijalarini nazorat qilib borishni nazarda tutadi. To‘g‘ri tashkil etilgan pedagogik muloqot davomida pedagogik nazokat mujassamlanadi

2	Avtoritar uslub	Nizoning oldini olish uchun ta’lim sub’ektining biri boshqasiga tazyiq o’tkazishi va ularning faolligini ro‘yobga chiqarmasliligi	Muloqotdagi vaziyat bir xil o‘zaro harakatni («yonidan» moslashish) boshqa ishtirokchiga muvofiqlashishni («quyidan» moslashish), boshqa ishtirokchiga tazyiq o’tkazishni («yuqoridan» moslashish)ni bildiradi
3	Liberal uslub	Nizoga nisbatan neytral munosabatda bo‘lish va hal etilayotgan masaladan chetga chiqish	Muloqotda emotsional tus berish xarakteri neytral hol orqali ijobiydan salbiygacha o‘zgaradi. Bularning hammasi muloqot muhitini, sinfda ma’lum iqlimni yaratadi

Jadvalda ifodalanganidek, nizo va ixtiloflarning oldini olishda pedagogik muloqotda o‘ziga xos qiyinchiliklar mavjud. Pedagogik kommunikativlik usullari ustida ishslashning asoslangan dasturini tuzish uchun har bir o‘qituvchi o‘zining “sub’ekt-sub’ekt” munosabatlarini tahlil qilib chiqishi muhim.

Nizo va ixtiloflarning oldini olishda o‘qituvchilar quyidagilarga e’tiborni qaratishlari lozim:

Muloqotda o‘quvchining sub’ektiv qarashlarini aniqlash; bu o‘quvchi bilan muloqotda oqilona hal qilinishi zarur bo‘lgan vazifalarni aniqlash, masalan, uning hulqini tuzatish yoki unda shunchaki ishonch kayfiyatini yaratish;

1. O‘quvchi bilan muloqotga kirishishda unda sodir bo‘luvchi psixologik to‘siqlarni bartaraf etishga yordam berish;

2. O‘zgalar fikrini tinglay olish, ularning fikrlariga qo‘shilish, empatiyaga moyillik bildirish. Muloqot natijalarini baholash va ularni foydalanilgan vositalar bilan taqqoslash.

Pedagogik muloqot davomida o‘qituvchi shaxsi, uning dunyoqarashi, shaxsiy pozitsiyasi, g‘oyaviy – siyosiy saviyasi, kasbiy tayyorgarligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga o‘qituvchining umumiyligi va boshqaruv qobiliyati, uning mayllari, xarakteri, muvaqqat psixik holatlari, shuningdek to‘plangan tajribasi muhimdir. O‘qituvchi shaxsini xarakterlash uchun faoliyatning individual uslubi kabi yig‘ma ko‘rsatkichlar, jumladan individual faoliyat uslubi (mazkur kishining individual –

psixologik xususiyatlariga mos keluvchi pedagogik faoliyat va pedagogik muloqotning vazifalari, vositalari va usullarining barqaror birligi) dan ham foydalaniladilar; ijodiyot (masalan, novator o‘qituvchidagi kabi, mazkur o‘qituvchi uchun sub’ektiv yangi, shuningdek pedagogika fani uchun ob’ektiv yangi pedagogik faoliyat va pedagogik muloqotning yangi vazifalari va vositalarini izlash va topish); ijtimoiy faol tutilgan yo‘l vaziyat (o‘qituvchi dalilining ta’sirchanligi, uning so‘zi bilan ishi birligi). Yetuk shaxs har doim bundan keyingi rivojlanishi uchun kurashadi, bu hol o‘qituvchiga ham taaluqli. Shaxsning kasbiy jihatdan o‘z - o‘zini tarbiyalash yo‘llaridan biri - o‘zining sifat va hislatlarini, shuningdek pedagogik faoliyat va muloqotlarning barqaror xususiyatlarini, o‘quvchilarning ta’lim olganligi va tarbiyalanganligidagi erishilgan natijalarini tahlil qilib borishdan iboratdir.

Nizo va ixtiloflarning oldini olishda pedagogik muloqot sotsial - psixologik jarayon sifatida quyidagi funksiyalari bilan tavsiflanadi: *muloqotning axborot almashish, o‘zligini anglash, ijtimoiy rollar almashinuvi, faoliyatni tashkil qilish, empatiyaga moyillik (hamdard bo‘lish) va h.k.*

Muloqotning axborot almashish funksiyasi materiallar va qadriyatlar bilan almashish jarayonini ta’minlab, o‘quv-tarbiya jarayoni uchun hamkorlikdagi izlanish muhitini yaratadi. O‘qituvchi ta’lim - tarbiya jarayonida o‘quvchilarni darsning turli elementlarini bajarishga jalb etadi, ularga tashkilotchi va ijrochi rollarida qatnashishga imkoniyat beradi. Muloqot shaxsni o‘zligini anglashga imkoniyat beradi. Shunday ekan, o‘qituvchining asosiy vazifalaridan biri - o‘quvchiga o‘zining "Meni"ni anglashga yordam berishi, uning qadr-qimmati, o‘zligini bilishga, o‘ziga baho berishga o‘rgatishi kerak.

2.2-§. Umumiy o‘rta ta’limda ta’lim sub’ektlari orasida nizolarning oldini olishga yo‘naltirilgan metodikalar

Pedagogika va psixologiyada shaxs qadriyatlari yo‘nalishi tuzilmasini aniqlash va ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq etishda muayyan metodikalardan foydalaniladi. Ma’lumki, shaxs qadriyatlari yo‘nalishi ijtimoiy- psixologik asos bo‘lib, uning

negizida inson xarakteri, ongi va o‘zini o‘zi anglashi shakllanadi. Hozirgi vaqtida shaxs qadriyatlar yo‘nalishini aniqlashda eng ko‘p qo‘llanadigan metodika polyak millatiga mansub amerikalik psixolog Milton Rokich tomonidan ishlab chiqilgan.

Qadriyatlar yo‘nalishi tizimi umumiy o‘rta ta’limda ta’lim sub’ektlari orasida nizolarning oldini olish, ta’lim ishtirokchilarining o‘ziga, atrof- muhitga, boshqa insonlarga bo‘lgan munosabatini bildirishga, shaxs dunyoqarashi, hayotiy faollik motivatsiyasini tarkib toptiruvchi asoslarni o‘rganishda, Men-konsepsiyani aniqlashtirishda, e’tiqod, dunyoqarash, maslakni tadqiq etishda muhim o‘rin tutadi.

Rossiyalik psixolog Yu.M.Antonyan tadqiqotlarida insondagi patogen g‘oyalar muayyan voqeа-hodisa, narsa-buyumlar yoki ijtimoiy tuzilmalarga ziddiyatli qarashlar natijasida paydo bo‘lishini uqtiradi va sub’ektning frustratsiyasi oqibatida alkogolizm, giyohvandlik yoki suitsid qilishga undashini ko‘rsatib beradi. Binobarin, shaxsning o‘z sog‘lig‘ini (jismoniy, ruhiy, ma’naviy) saqlashi, to‘g‘ri turmush tarzini qo‘llab-qo‘vvatlashi zarurligi shubhasiz.[25]

K.Leongardning shaxs tipologiyasiga ko‘ra o‘zini o‘zi boshqarolmaslik, xohish va intilishlari yuzasidan nazoratning sustligi, fiziologik mayllarning ustuvorligi bu tipdagi shaxslarda uyg‘unlashib ketadi. Ularga instinktivlik, impulsivlik, qo‘pollik, mijg‘ovlik, badqovoqlik, beadablik, orsizlik, dag‘allikka moyillik xosdir. Bunday kishilar turli nizo va munozaralarni keltirib chiqarib, ularning faol ishtirokchisi bo‘lishadi. Serjahl, serzarda, jizzaki bo‘lib tez-tez ish joylarini o‘zgartirib turishadi, jamoadagilar bilan chiqisha olmaydilar.

Muloqotga kirishuvchanligi, verbal va noverbal reaksiyalari, xatti- harakatlari sust. Qo‘zg‘aluvchan tipdagi kishilarning aksariyati bolaliklarida “qulqosiz” bo‘lishgan, xulq-atvori talabga javob bermagan. Boshlang‘ich sinflardanoq o‘qishga hafsalasi bo‘lmagan. Beto‘xtov nazorat ostida, istar- istamas ular uy vazifalarini, topshiriqlarni bajarishgan. Barcha yomon yorliqlar ularga yopishtirilgan. Yolg‘izlikda o‘zlarini yomon his qilishgan. Tashkilotchilik xislatlarining etarli darajada shakllanmaganligi ularning etakchi bo‘lishlariga imkon yaratmaydi. O‘qishni tez tashlashadi.

Shunday ekan, umumiy o‘rta ta’lim tizimida tahsil olayotgan o‘quvchisida shakllanishi lozim bo‘lgan unsurlar: o‘ziga ishonch, xavfsizlik hissi, mag‘lubiyatga

dosh berish istagi va boshqa psixik holatlarni o‘rgandik.

2.2.1-jadval.

**Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarida nizo va ixtiloflarni oldini
olishga yo‘naltirilgan sog‘lom tafakkurning shakllanish
bosqichlari**

O‘quvchi shaxsi yosh davrlari	Nizo va ixtiloflarni oldini olishga yo‘naltirilgan sog‘lom tafakkur	Destruktiv tafakkur
1 10-11 yoshli o‘smirlar	O‘ziga ishonch	Maqtanchoqlik, yolg‘onchilik
2 11-12 yoshli o‘smirlar	Xavfsizlik hissi	Pessimistik fikrlarning paydo bo‘lishi
3 12-13 yoshli o‘smirlar	Mag‘lubiyatga dosh berish istagi	Jizzakilik
4 13-14 yoshli o‘smirlar	Boshqa psixik holatlar	O‘z imkoniyatlariga ortiqcha baho berish, vijdonsizlik

Jadvaldan ko‘rib turganimizdek, umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarida nizo va ixtiloflarni oldini olishga yo‘naltirilgan sog‘lom tafakkur ularning aqliy va jismoniy faoliyatida alohida o‘rin egallaydi. O‘smir yoshidagi o‘quvchilar ijtimoiy munosabatlarga kirishar ekan, o‘zлari sezgan, idrok qilgan, tasavvur etgan narsa va hodisalarning to‘g‘riligi, aniqligi, xaqiqiyligi yoki ularning voqelikka mos tushishini aniklaydi.

Tafakkurning ahamiyati to‘g‘risida M.G.Davletshin quyidagi fikrni bildiradi: “...Odam ko‘zining alohida suratda tuzilganligi odamning olamni bilish imkoniyati uchun mutlaq chegara emas. Bizning ko‘zimizga boshqa sezgilargina qo‘shilib qolmay, balki shu bilan birga, tafakkurimizning faoliyati xam qo‘shiladi”.[37]

M.A.Abdullajonov va boshqalarning “Psixologiyadan izoxli lug‘ati”da: “tafakkur –inson aqliy faoliyatining yuksak shakli bo‘lib, sezgi, idrok, tasavvurlar orqali bevosita bilib bo‘lmaydigan narsa va hodisalar tafakkurda ongli

ravishda aks etadi. Tafakkur jarayonida fikr yuzaga keladi, bu fikrlar inson ongida hukm, tushuncha va xulosa shakllarida yuzaga keladi.”deb ta’rif keltirilgan.[22]

O‘zbek psixolog olimasi V.Karimova “Ijtimoiy psixologiya” kitobida: “Tafakkur insonning shunday aqliy faoliyatidirki, bu faoliyat voqelikni eng aniq (to‘g‘ri), to‘liq, chuqur va umumiylashtirib aks ettirishga (bilishga), insonning tag‘in ham oqilona amaliy faoliyat bilan shug‘ullanishiga imkon beradi” deb ta’riflanadi [46].

N.T.Norkulovaning «Affiliatsiya motivi – talabalar ma’naviy qiyofasini shakllantiruvchi ijtimoiyy-psixologik omil» mavzusidagi doktorlik disertatsiyasida ijtimoiy xulq shakllanishiga ta’sir etuvchi affiliatsion hamda ma’naviy omillarni o‘rganish masalalari tadqiq qilingan. Olimaning fikricha, affiliatsiya motivi ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida talaba shaxsining ma’naviy qiyofasi va qadriyatlariga ta’sir ko‘satadi. [64]

Q.R.Shonazarovning fikriga ko‘ra “tafakkur” tushunchasi “tafakkur voqelikni inson tomonidan bevosita hissiy idrok qilib bo‘lmaydigan ob’ektiv xususiyatlari, aloqalari, munosabatlari bilan ongli ravishda aks ettirilishini bildiradi; tafakkur biror tayyor echimi yo‘q muammo paydo bo‘lganda boshlanadi. Inson biror narsani bilish ehtiyoji paydo bo‘lganda fikrlay boshlaydi, tafakkur ongning voqelikni aniq, chuqur, to‘liq va bevosita umumlashtirib va bevosita aks ettirishga (bilish)ga qaratilgan faoliyatdir; tafakkur bu inson miyasida predmet va hodisalarning o‘z qonuniy aloqalari va munosabatlari bilan umumlashtirib aks ettirish jarayonidir; tafakkur yangilikni qidirish va ochishga sotsial jihatdan bog‘liq, aloqador, analiz, sintez jarayonida voqelikni bevosita va umumlashtirib aks ettirish jarayonidir; tafakkur individni bevosita va umumlashgan holda aks ettirishga qaratilgan bilish jarayoni; tafakkur ob’ektiv voqelikning faol in’ikosi; bilimlarning tushuncha, mulohaza, fikr, xulosa, nazariya va hokazolar tarzida shakllanishi, harakati va rivojlanishidir”

[97].”¹²

Destruksiya parchalanish, buzilish, inqirozga yuz tutish ekan, shaxs destruksiyasi

¹² Q.R.Shonazarov “Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini maktab o‘quvchilarida tarixiy tafakkurni shakllantirishga tayyorlash” Ped.f.n diss.-T., 2002 -134 b.

individ tasavvurlarining buzilishi, aqliy qobiliyati va malakalarining izdan chiqishi,

psixik rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi jarayonlar ta'sirida jamiyat uchun ijtimoiy xavfli yoki zararli insonga aylanishidir. Nizo va ixtiloflarning sabablarini o'rganish jarayonida biz tadqiqot doirasida “submadaniyat” atamasiga ham e'tiborni qaratdik, chunki o'smir yoshidagi o'quvchilarda ba'zi holatlarda an'anaviy madaniyatdagi mavjud me'yor va qadriyatlarni negativ talqin etish hissi paydo bo'ladi. Jamiyatda hukm surib turgan madaniyat ichida yoshlardan guruhlarining o'ziga xos turmush tarzi va tafakkurini shakllantirishga bo'lgan intilish asosida shakllangan me'yor va odalar “submadaniyat” sifatida tushuniladi. Mazkur holatni sotsiologlar ayrim jihatlaridan kelib chiqib, “deviant holat” - deb ham izohlaydilar. Sotsiologiyada bunday guruhlarning “noformallar”, “xippi”, “roker”, “metallist”, “panklar”, “lyuber”, “fan klub a'zolari”, “rok-madaniyat fidoyilari” kabi turlari farqlanadi. Demak, destruktiv mohiyat, mazmunga ega quyidagi tushunchalar mavjud:

- destruktiv ta'sir (davlat, jamiyat, guruh yoki shaxsning hayoti, faoliyati, himoyasiga emiruvchi, vayron qiluvchi ta'sir o'tkazadigan mexanizmlar);
- destruktor, destruktiv shaxs (boshqalarga emiruvchi, vayron qiluvchi ta'sir o'tkazadigan shaxs);
- destruktiv faoliyat;
- destruktiv faoliyat yo'naltirilgan shaxs (destruktiv faoliyatning qurboni);
- destruktiv dastur (destruktiv faoliyat maqsadi ifodalangan ish reja).

Destruktiv ma'lumotlar – individning psixik xususiyatlarini, yashash qobiliyatlarini susaytiruvchi ma'lumotlar. Destruktiv adabiyot, destruktiv san'at (musiqa, kino, tasviriy san'at), destruktiv madaniyat singari tushunchalarni ajratish mumkin.

Destruktiv axboriy ta'sirning aniqlangan oqibatlari:

1. Psixik mexanizmlar faoliyatining susayishi (diqqat barqarorligining pasayishi, tafakkurning buzilishi, doimiy o'rinsiz shubhalanish, hissiy zo'riqish, tajovuzkorlik):
2. Xato dunyoqarash, e'tiqodlarning shakllanishi (qadriyatlar tizimining, jazoning muqarrarligi to'g'risidagi tasavvurlarning o'zgarishi, qaror qabul qilishni

qiyinlashtiradigan keraksiz bilimlarning o‘zlashtirilishi, qondirilishi salomatlik uchun zarar keltiradigan, ko‘p mablag‘ talab qiladigan ehtiyojlarning tarkib toptirilishi);

3. Xulq-atvorning buzilishi (axloqiy buzuqlikning rivojlanishi, reflekslarning izdan chiqishi, shaxs tuzilmasining emirilishi, zararli g‘oyalarning o‘zlashtirilishi).

Destruktivlik belgilari:

1. Anomiya (umuminsoniy qadriyatlar ahamiyatining yo‘qolishi, doimiy asabiylilik, hayotdan norozilik, o‘z kelajagiga, porloq istiqbolga ishonmaslik, maqsadlarning yo‘qligi);

2. Addiktiv xulq-atvor (narkotiklar yoki ba’zi faoliyat ko‘rinishlari orqali o‘z psixik holatini sun’iy ravishda o‘zgartirishga intilish). Addikt (addiksiyaga intiluvchi shaxs)ga gedonistik ustanovkalar xos bo‘lib, u eng avvalo, o‘z huzur-halovatini o‘ylaydi, addiksiyaning bir ko‘rinishidan ikkinchisiga osonlik bilan o‘tadi.

Addiksiya vositalari (psixotrop moddalar, qimor, fahsh, badnafslik, buyumlarni yig‘ish, musiqa tinglash, mutolaa, ochlik (bir necha kun och qolish engil sarxushlik holatini yuzaga keltiradi), ish (muayyan faoliyat bilan shug‘ullanish).

“Destruktiv guruahlarning davlat va jamiyatga qarshi olib borayotgan psixologik urushlarida aholi ongida muayyan bir dushman timsolini yaratish asosiy o‘rin tutadi. Bu timsol mamlakat ichkarisida ham, tashqarisida ham bo‘lishi, tanlab olinishi yoki sun’iy yaratilishi mumkin. Mazkur timsol aholining barcha qatlamlari tomonidan dushman sifatida idrok etiladi va kishilar ongiga shu yo‘nalishda mafkuraviy, psixologik ta’sir o‘tkazib boriladi”.[97]

Muayyan g‘oyaning ehtimoliy salbiy baholanish ko‘rinishlari:

-bir hovuch, ma’lum bir kishilarninggina manfaatini ifodalashi (bu barcha destruktiv guruhlар mafkurasi, g‘oyasiga xos jihat);

-yolg‘onligi, jamiyatning talablariga javob bermasligi;

-ibtidoiy, qoloqligi, muhim jihatlarni nazarga olmasligi;

-almisoqdan qolganligi, jamiyatning yangilanib kelayotgan talablariga javob bermasligi.

Ontogenezda qadriyatlar shakllanayotgan kezda inqirozli vaziyatlarga tushish, tajribali o‘qituvchilar, psixologlar tomonidan o‘z vaqtida yordam bermaslik pedagogik

jamoada turli inqirozlar va ixtiloflarning kelib chiqishiga olib kelishi mumkin.

Ma'lumki, shaxs birdaniga destruktiv xulqli bo'lib qolmaydi. Guruh a'zosi bo'lishdan oldin unda apatiya, loqaydlik, tevarak-atrofda bo'lib o'tayotgan voqeahodisalarga nisbatan befarqlik hissi paydo bo'lishi mumkin, shu bilan birga kishida ijtimoiy aksilmoslashuv (dezadaptatsiya) ning turli shakllarini boshdan kechirish ehtimoli bor. Asotsial, destruktiv guruh bilan muloqotda bo'lish, ularga o'zini tenglashtirish unda salbiy, negativ xarakterda bo'lsa ham ijtimoiy rollar shakllanishiga olib keladi. Guruh bilan ixtiyoriy ravishda, birdan aloqalarni uzishning deyarli iloji yo'q - bu psixologik jihatdan o'zini o'ldirish, "Men"ini yo'qotish bilan barobar. Chunki guruhga jalb qilingan shaxsning o'zini o'zi baholash darajasi ilgari shu qadar past bo'lganki, qayta shakllangan pozitsiyasi, o'zligini yo'qotishni aslo istamaydi.

Inson yoshi qanchalik kichik bo'lsa, uning tashqi ta'sirlarga berilish ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi, zero atrofidagi kishilar doirasini u o'rgatuvchi, o'qituvchilar, ta'lim beruvchilar sifatida qabul qiladi. Jinsiy balog'atga etishning dastlabki bosqichlarida individ jamoada o'yin qoidalarini idrok etish, ya'ni kichik guruhlarda muloqotga kirishish, moslashishga faol yo'nalganligi bilan ajralib turadi. Ushbu yosh davrlari proektiv ravishda aynan tashqaridan izlanadigan ota-onada ramziy siymosi ahamiyatining keskin ravishda oshishi bilan ancha qaltis davr hisoblanadi.

Yuqori darajadagi sezgirlik, ta'sirchanlikning ikkinchi davri 17-19 yosh bo'lib, o'zini namoyon qilish, jamiyatda o'z o'rni, mavqeini belgilab olishga bo'lgan kuchli ehtiyojning yuzaga kelishi bilan ifodalanadi, biroq buning uchun imkoniyat barchada bir xil darajada etarli bo'lmaydi. Shuning uchun bunday shaxsda undan kuchliroq va bilimliroq bo'lgan homiyalar madadi, ko'magiga ehtiyoj tug'iladi. Yoshlar taqlid qilishi, ergashishi uchun shaxs kutilmagan holat, keskin vaziyatlarda xatti-harakatining samarasi, ta'sirini namoyish qilishining o'zi kifoya. Yoshlik davrida "Men" obrazining shakllanishi uchun umume'tirof etilgan xulq-atvor me'yorlarini inkor qilish motivatsiyasi kuchli namoyon bo'ladi. Shaxsning hayotda o'rmini belgilab olishi, "Men"ini aniqlashtirishi o'zini turli taqdirga ega, turli xildagi kishilar bilan solishtirishi, taqqoslashi natijasida amalga oshirila boradi. Aynan mana shu jihat asosida jamiyatda qabul qilingan me'yorlarga tubdan zid keluvchi rollar

manipulyatorlar tomonidan hali to‘liq shakllanmagan individuumga taklif etiladi. Shaxs etukligi, kamolotiga qo‘yiladigan ijtimoiy talablar unga rasmiy, zerikarli, zamonadan orqada qolgan, qoloq, istiqbolsiz talablar tarzida tushuntiriladi, etkaziladi

Umumiy o‘rta ta’limda ta’lim sub’ektlari orasida nizolarning paydo bo‘lish sababalarini aniqlash uchun B.Sosnovskiy, Milton Rokich Ye.Danina metodikalariga asoslandik.[38]

Buning uchun biz tadqiqot doirasida pedagoglar tarkibi va umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilari orasida “Ta’lim sub’ektlari orasida nizolarning oldini olish” metodikalarni amaliyatga targ‘ib qildik. 2017-2020 yillar mobaynida tadqiqot ishlariga Toshkent viloyatining Toshkent tumanidagi 11,18,22-maktablar, Samarkand shaxrining 1,6,42-umumiy o‘rta ta’lim maktablari hamda Namangan viloyatining 52,53,82-ummumiy o‘rta ta’lim maktablarining 233 nafar pedagoglari va 1572 nafar 6-9 sinf o‘quvchilari jalb qilindi. Jami tadqiqot ishlarida 1805 nafar respondentlar qatnashishdi.

2.2.2-jadval.

Tajriba-sinovda qatnashgan respondentlar soni

T/R	Umumiy o‘rta ta’lim maktablari (viloyatlar)	Respondentlar soni	O‘qituvchilar	Yoshi 25-58	5-9-sinf o‘quvchilari
1	Toshkent tumani	941	137	28-55	804
2	Samarkand shaxri	190	47	25-60	143
3	Namangan viloyati	237	48	25-59	189
	Jami:		232		1136

Jadvalda aks ettirilganidek, tajriba-tadqiqotlarda qatnashgan respondentlarning yoshi deyarli bir xil bo‘lishi ta’mindandi Bunda pedagogik jamoada sog‘lom ahloqiy - muruvvat mavjudligi, ahloqiy norma va yo‘l - yo‘riqlarning bajarilish holati, ta’lim

sub'ektlarining tartib - qoidalarga, urf - odatlarga ongli ravishda amal qilishlari, o'qituvchilar tomonidan pedagoglik ishiga ongli intizom, ijodiy faollik bilan bo'ysunish oqilona mo'jassamlanganligi inobatga olindi.

Pedagoglar jamoasida kelishmovchiliklar, qarama - qarshiliklar bo'lib turishi ham qonuniy hodisa. Chunki o'quvchilarni o'qitishva tarbiyalash murakkab jarayon bo'lib, konfliktlarni taqozo qiladi. Vujudga kelgan nizolarni o'z vaqtida tahlil qilib, bartaraf etish yo'llarini izlash lozim. Nizo va ixtiloflarning oldini olishga mo'ljallangan metodikani ishlab chiqishda o'zaro bir - birini tushunadigan, hurmat qiladigan ijodiy muhitni shakllantirishga e'tibor qaratildi. O'qituvchilar jamoasi uchun "Stress va nizolarning olidini olish" nomli pedagoglar uchun alohida metodika va o'quvchilar uchun "O'quvchilar jamoasida stress va nizolarning oldini olish" nomli alohida metodika ishlab chiqildi.

Mazkur metodikalar ta'lim sub'ektlari orasida 2018-2021 yillar mobaynida amaliyatga tatbiq qilinganida, pedagoglar jamoasining shaxs va jamoa uchun foydali ishlari samaradorligining oshganligini ko'rsatish mumkin. Metodikaga asoslangan psixologik ta'sir natijasida pedagogning ma'naviy qiyofasida chuqur ijobiy o'zgarishlar sodir bo'lganligi (8 %), ijtimoiy burchni to'g'ri anglash (11%), o'z hulqini (hatti-harakatlarni) to'g'ri baholay olish odati rivojlanganligi (9 %), jamoada shaslararo muomala madaniyati (7 %) oshganligini kuzattdik.

O'quvchilar jamoasi orasida esa ishlab chiqilgan mazkur metodika tatbiq etilishi natijasida tahsil oluvchilarning agressivligi, jizzakiligi sababli paydo bo'ladigan ixtiloflarning oldi olinishiga imkon yaratildi. O'quvchilar jamoasining fikri, muomalasi, ahloqiy baholashlarida tafovutlar paydo bo'lishini yumshatish maqsadida pedagogik va psixologik treninglar o'tkazildi. O'ziga ortiqcha bino qo'ygan, o'ziga nisbatan tanqidiy qaray olmaydigan, injiq tabiatli o'quvchilar bilan individual suhbatlar o'tkazilishi natijasida ularning jamoadagi mavqelari tiklandi. Ushbu o'quvchilar ayrim paytlarda talabchan va qattiqqo'l o'qituvchilar bilan ham nizoli vaziyatga tushib qolishlarini inobatga olib, pedagoglar orasida muomala munosabatlarini barqarorlashtiradigan mashqlar tizimi ishlab chiqildi (ilova).

Jamoada guruhbozliklarni keltirib chiqaruvchi sabablar aniqlanganda,

guruhbozlik, xudbinlik qusurlari pedagogik jamoani bo‘lib yuborishi, asosiy, muhim ishlarni bajarishdan chalg‘itishi, pedagogik jamoada nosog‘lom ahloqiy - ruhiy vaziyat paydo qilishi aniqlandi. Shu sababli, ishlab chiqilgan metodikalar bu illatlarni bartaraf etishga qaratildi va pedagoglar jamoasining kuch – g‘ayrati, pedagogik madaniyati, mahorati, mas’uliyatini oshirishga, o‘quvchilarning esa bilimini, o‘quv intizomini yaxshilash yo‘llarini izlashga safarbar etildi.

Tadqiqotlarimiz natijasida pedagogik jamoadagi nizo va ixtiloflarning oldini olishda o‘qituvchi faoliyatining ilmiy asosda tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatdi. Pedagoglar jamoasida o‘zaro muomala munosabatlarni yaxshilash, mактабдаги ахлоқија - руҳий вазијатни ко‘таринки руҳда ташкіл қилиш, о‘кувчиларнинг ахлоқија тарбиясига ижобија та’sир етүвчи шақл ва методлардан фойдаланиш лозимлиги о‘з тасдиғини топди. Ҳайрихолик билан адолат ҳал етилган келишмовчиліктар муомала одобига ижобија та’sир етишига ерішілди.

Tadqiqot doirasida dars, darsdan tashqari tadbirlar, ota-onalar soatlarini o‘tkazishga mo‘ljallangan ta’limiy va ta’limdan tashqari shakllarning xaritalari ishlab chiqildi. Quyida veb-kvest texnologiyasi asosida “Nizo va ixtiloflarning oldini olish» texnologiyasi modeli va texnologik xaritasini keltiramiz:

NIZO, STRESS: KELIB CHIKISH SABABLARI VA ULARNI BOSHQARISH

Veb-kvest texnologiyasiga asoslangan o‘qitish holati strukturasi

1-bosqich

- 1.Kirish (5 daq)
- 2.Voqeа (holat) bilan tanishish(5 daqiqa)
- 3.Guruhiy ishlash (guruh liderlari ko‘rib chiqiladi) Muammoni aniqlash va savolni shakllantirish-10 daq. Tanaffus Barcha guruhlarning auditoriyadagi takdimoti (har bir guruhga 10 dakika + 10 dakika muhokamasi) jami 30 min
- 4.Guruhlarda ishlash (30 min: topshiriq bilan kelishuv, rol va ish taqsimlash)

1-bosqich

1.Dalillarni qidirish, analiz va sintez-dalillarni umumlashtirish

2.Muammoning echimi bo‘yicha alternativ fikrlarni aniqlash.

Har bir fikr bo‘yicha “ha” va “yo‘q” argumentlarini aniqlash. Aniq asosga ega bo‘lgan va sizning qaroringizni quvvatlovchi dalillarga ega muammolarni xal bo‘yicha optimal strategiya bilan kelishuv.Umumiy guruh uchun prezentatsiya tayyorlash.

2- bosqich

1.Guruhlar takdimoti (har bir guruhga 10 daqiqadan 10 daqiqalik muhokama bilan) Hammasi 40 daqiqa.

2.Qaytar aloqa: O‘qituvchilar guruhga nima o‘rganilgani to‘g‘risida qaytar aloqada tushuntirib beradilar (10 daqiqa)

Tanaffus

3.Guruhlar prezentatsiyasi (har bir 10 daqiqa va 10 daqiqa muhokama)

Hammasi 20 daqiqa yaxlit baholash va qaytar aloqa (20daqiqa)

Baholash

Baholash-bu o‘qituvchini o‘qitish natijalarini aniqlash uchun turli xildagi metodlarni keng qo‘llashdir.

Baholash jarayoni o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

A.O‘qituvchilar bir-birini va guruhnini baholaydilar.

B.Ekspertlar har bir o‘qituvchini, guruhnini baholaydi.

Shu alfozda o‘tkazilgan tajribaviy tadbirlarda ijtimoiy rollar almashinuvni shaxsni har tomonlama namoyon bo‘lishini ta’minladi, boshqa kishi roliga kirish va shu bilan insonni inson orqali idrok qilish jarayoniga ta’sir ko‘rsatdi. Ayniqsa, bugungi kunda keng tus olgan interfaol uslublar orqali o‘qituvchilar o‘quv-tarbiyaviy jarayonda shaxs-rol shaklidan foydalandilar, mashg‘ulotning ayrim elementlarini bajarishga taklif qilindilar. Bunda o‘z shaxsi qimmatini namoyon qilish ham muloqot funksiyasi sifatida namoyon bo‘ldi.

Pedagoglar jamoasida nizolar chiqishiga, ko‘pincha, biror o‘qituvchining noto‘g‘ri xatti - harakatini baholash, tanqidni to‘g‘ri tushunmaslik, pedagoglar jamoasi

yoki ularning bir qismi bilan maktab ma'muriyati, jamoat tashkilotlari rahbarlarining kelishmovchiligi, oila bilan maktab o'rtasidagi ixtiloflar sabab bo'ladi. Bunday hollarda nizoni keltirib chiqargan sabab, motivlarni sinchiklab o'rganish, aniqlash va shunga qarab xal kilish lozim.

Pedagogik amaliyatda buning uchun real imkoniyatlar mavjud. Buning ko'rinishlaridan biri - birini saqlash uchun intilishdir. Obro' uchun kurash — ustunlik uchun kurashga, manmanlikka aylanib ketmasligi kerak.

Maktab jamoasida muomala odobining muhim vazifasi pedagoglar orasida ma'naviy vaziyatni yaxshilashdir. Shuning uchun maktab va jamoat tashkilotlarining rahbarlari pedagoglarning hayoti, faoliyati, muomala — munosabatlari qaysi omil (faktor) va shart — sharoitlarga bog'liqligini aniqlab, bilib olishlari zarur. Xarakteriga ko'ra ob'ektiv yoki sub'ektiv sharoitlar, omillar bo'lishi mumkin.

Muomala odobining shakllanishida jamoat tashkilotlarining roli kattadir. Ular pedagogning obro'sini oshirish, jamoat ishlariga faol qatnashtirish yo'li bilan o'qituvchining ahloqiy va pedagogik madaniyati, mas'uliyatini oshirishga ko'maklashadi. Jamoat tashkilotlari mакtabda mehnat intizomini mustahkamlashi, o'qituvchilarga talabchanlikni, ularning mas'uliyat hissini oshirish, qadr - qimmatini saqlash, qobiliyat va iste'dodini namoyish etishiga ko'maklashishi zarur.

Tajribaviy mashg'ulotlarda muloqot funksiyalarini bilish o'qituvchilar uchun dars va undan tashqarida o'quvchilar bilan bo'ladigan muloqotlarni yaxlit jarayon sifatida tashkil etishga yordam berdi.

Darsga tayyorgarlik ko'rayotganda muloqotning barcha funksiyalaridan yaxlit tarzda foydalanishga erishishga kirishildi. Tajribaviy mashg'ulotlarda o'qituvchilar darsni loyihalashtirishda nafaqat fanga oid ma'lumot berish haqida, balki o'quvchilarning o'z shaxsini namoyon qilishlari va o'z shaxsiy qobiliyatini ham ko'rsata olishlariga sharoit yaratishni rejalashtirishlariga alohida e'tibor qaratildi.

Tadqiqotlarimiz mobaynida pedagogik muloqotni oqilona tashkil etish uchun "Modellashtirish", "Breynshtorming", "Muzyorar" kabi turli interfaol metodlardan foydalanildi.

Modellashtirish metodidan foydalanish mobaynida o'qituvchining auditoriya

xususiyatlarini bilishi, o‘quvchilarning bilim o‘zlashtirish xususiyatlari, uchrashi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklar; ish dinamikasi, darsning tuzilishi, o‘zaro hamkorlikka asoslanganligini inobatga olinishi zarur, deb topildi.

“*Breynshtorming*” metodi orqali o‘quvchilar bilan tezkor aloqa o‘rnatish, ular fikrini mustaqil ravishda izhor etishlariga imkoniyat yaratish, ularga dinamik ta’sir ko‘rsatishga e’tibor qaratilib, uch bosqich: motivatsiya, idrok, refleksiya (mushohada yuritish) dan iborat bo‘lishi ta’minlandi. Aynan shu metod asosida ta’lim sub’ektlari orasida nizo va ixtiloflarning oldini olishga yo‘naltirilganligi bilan ahamiyatlidir. Chunki, har bir ishtirokchi bahsga kirishuvchilar bilan muloqot madaniyatini namoyish eta olishi lozim bo‘ladi¹. Demak, pedagogik muloqotda o‘quvchilar tashabbusi qullab-quvvatlanadi, dialog muloqotga zamin yaratiladi, yoshlarning o‘z fikrlarini real sharoitga moslay olish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Tabiiyki, bunda o‘qituvchi pedagogik muloqotni tashkil qiluvchi, tashabbuskor va etakchi shaxs sifatida maydonga chiqadi va ta’lim sub’ektlari orasida nizo va ixtiloflarning oldini olishga zamin yaratiladi.

Biz tadqiqot doirasida umumiy o‘rtta ta’lim maktablarining 5-9-sinf o‘quvchilari orasida nizo va ixtiloflarning oldini olishga yo‘naltirilgan quyidagi metodlarni qo‘lladik:

O‘quvchining kun tartibi va faoliyatini doimiy ravishda nazorat qilish, ya’ni mustaqil fikrlashga imkon beradigan darajada muayyan vaqtga belgilangan vazifalar bajarilishini qat’iy kuzatib borish (muloqot (darsda nimanidir tushuntirish, ishontirish)jarayonida o‘qituvchi o‘z e’tiborini barcha o‘quvchilarga qaratishi, uning nazaridan hech biri chetda qolmasligi; ma’ruzalar tinglash, suhbatda bo‘lish, har xil uchrashuvlar o‘tkazish, sport turlari, meditatsiya bilan shug‘ullanish, adabiyotlarni mutolaa qilish va h.k).

¹ Qarang: Pedagogik texnologiyalar. Abdullaeva Sh.A., Axatogva D.A.- Toshkent, 2003.- 56 –bet.

Natijasi: pedagogik muloqot jarayoni uzviy va tizimli bo‘lishi, nizolarning oldini olishga zamin tayyorlanishi; diqqatning oshishi, jismoniy va ruhiy taraqqiy etish, o‘z faoliyati va guruh faoliyatini tanqidiy baholash imkoniyatining vujudga kelishi.

1. Patternlar (namunalar) asosida ijobiy ustanovkalarni shakllantirish.

Patternlar (namunalar) o‘smir yoshidagi o‘quvchilar tarbiyasida muhim o‘rin egallaydi. Kinofilm, badiiy adabiyotdagi bosh qahramonlarning jasorati, shijoati, samimiyligi va kommunikativligi – bularning barchasi o‘quvchilar uchun o‘rnak vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Patternlardan suhbat jarayonida, darsda, darsdan tashqari tadbirlarda foydalanish mumkin.

Natijasi: Tarbiyaviy jarayonda ta’lim sub’ektlari o‘zlarining sevgan qahramonlariga taqlid qilish uchun ma’naviy va umummadaniy qadriyatlar ustanovkasini qabul qiladilar. Buning natijasida shaxsda ijobiy o‘zgarish dinamikasi kuzatiladi. Ularda jismoniy va ruhiy taraqqiy etish, o‘z faoliyati va guruh faoliyatini tanqidiy baholash imkoniyati vujudga keladi.

Axboriy nazorat, tashqi axborot manbalaridan (televidenie, radio, gazeta va jurnallar, internet, boshqa odamlar bilan aloqa) da bo‘lish, tevarak- atrofdagilar bilan kommunikativlikni shakllantirish, ochiqlik, samimiylilik hislarini tarkib toptirish, mas’uliyatni shakllantirish, ijtimoiy foydali mehnatga jalg qilish

Natijasi: tashabbuskorlik juda muhimdir. Pedagog sinfga nisbatan o‘ziga xos kommunikativ hujumni amalga oshirgandagina, kommunikativ ustunlikka erishishi mumkin. Ma’lumotlarning to‘g‘ri va ob’ektiv bo‘lishi mazkur metod samarasini oshiradi, ta’sirchanlik kuchini tarbiyaning maqsadiga yo‘naltiradi.

2. Kommunikativlikni oshirish. Pedagogik munosabatlarning boshlang‘ich davrida kommunikativ tashabbuskorlik juda muhimdir. Pedagog sinfga nisbatan o‘ziga xos kommunikativ hujumni amalga oshirgandagina, kommunikativ ustunlikka erishishi mumkin.

Natijasi: guruh a’zolari o‘zlarini yangi bilim, maxsus til va so‘z boyligiga ega bo‘lgandek sezadilar. Ular bir-birlari bilan muloqot jarayonida o‘zlarini erkin, bemalol his qilishadi.

3. Sog‘lom, tanqidiy tafakkurni shakllantirish. Bunda kerakli fikr,

tushunchalar mutloq haqiqat sifatida qabul qildiriladi, ta’lim ishtirokchilarining e’tirozlariga o‘rin qoldirmaydigan tarzda “Eng kuchli inson o‘z jizzakiligini jilovlay olgaidir”, “Jahl chiqqanda aql ketadi” singari javoblar beriladi.

Natijasi: Pedagogik sistemada-tashabbuskorlik pedagogning eng muhim kommunikativ vazifasi sifatida namoyon bo‘ladi. Tabiiyki, tashabbus ko‘rsatish shakllari turlicha bo‘ladi. Ular hozirgi faoliyatdagi hissiyotlar va bilim jarayonida yaratiladi va pedagogik vaziyatlarni o‘zgarib turishi natijasida ular ham o‘zgarib boradi.

4. Fikran yorqin timsollarni yaratish (vizualizatsiya)ni qo‘llash. Bunga fikran yorqin timsollarni yaratish (vizualizatsiya), meditatsiya, o‘zini o‘zi gipnoz qilish, nafas mashqlarini bajarish singari usullar kiradi.

Natijasi: diqqat-e’tiborni bir nuqtaga jamlashni talab qiluvchi, toliqtiruvchi bu metodikalar kamdan kam ishlatiladi. Shaxsda eyforiya holati yuzaga keladi. Trans va unga o‘xshash vaziyatlar kishiga juda samarali ta’sir ko‘rsatadi, barcha shubha-gumonlarini bartaraf qiladi hamda nizoli va ziddiyatli vaziyatlardan oson chiqish jarayonini tezlashtiradi. Biroq, markaziy nerv faoliyati sust ayrim ta’lim sub’ektlariga bu singari usullarni ehtiyojkorlik bilan qo‘llash lozim.

Yoshlik, o‘smirlilik davrida, inson kelajagi, istiqboli xususida mushohada qiladigan davrda ongning qadriyatlarni aniqlashtirishga yo‘naltirilgan faoliyati bиринчи o‘ringa chiqadi. Yoshi ulug‘ kishilar ustuvor deb hisoblagan qadriyatlar yoshlar tomonidan qaytadan tahlil qilib chiqiladi. Ular mavjud ijtimoiy-madaniy me’yorlar, talablarni o‘zlariga “o‘lchab” ko‘radilar va ko‘p hollarda hafsalalari pir bo‘ladi. Beqarorlik, aksariyat hollarda tasavvurlaridagi tushunchalarga hayotiy shart-sharoitlarning mos kelmasligi ularning tez moslasha olmasliklari, ba’zan domdirab qolishlariga olib kelishi mumkin. O‘quvchilar, ba’zan katta yoshdagilarning ham hayotiy tamoyillari, pozitsiyalaridagi nomuvofiqliklarni ko‘rib, his etib, umumqabul qilingan qadriyatlar, ijtimoiy-madaniy, ma’naviy-axloqiy me’yorlardan og‘ishlari ham mumkin. Shu sababli, o‘quvchilar orasida nizo va ixtiloflarning oldini olishga yo‘naltirilgan metodlarni qo‘llash uchun jamoaga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi nizo va mojarolarning asl mohiyatini sharhlash, ular bilan tegishli tarzda chuqur tanishtirish

lozim. Jamiyatda turli g‘oyalarning doimiy ravishda mafkuraviy-psixologik monitoringini olib borish, tahlil qilish, natijalar asosida zaruriy chora-tadbirlarni belgilash tegishli yo‘nalishdagi ishlar samaradorligini oshirishda muhim omillardan biri sanaladi. Har xil ko‘rinishga ega g‘oya, mafkuralar ommaviyligining ko‘rsatkichlari quyidagi mezonlar asosida o‘rganilishi mumkin:

- muayyan mazmundagi adabiyotlar, video yozuv, audio yozuvlarga bo‘lgan talab;
- gazetalarga nisbatan ehtiyoj;
- aholining kinoseanslarga qatnash darjasи;
- fuqarolarning yuqori davlat organlariga yo‘llayotgan murojaatlarimazmuni;
- gazetalarda e’lon qilinayotgan xatlar mazmuni;
- jamoat tashkilotlari, xususan partiyalarning soni va faoliyat yo‘nalishlari;
- aholining ommaviy tadbir, marosimlarga qatnash, ishtirok etish darjasи;
- anonim so‘rovlarning natijalari.

O‘quvchilar orasida nizo va ixtiloflarning oldini olishga yo‘naltirilgan metodlarni qo‘llashda pedagog bir tomondan tashabbusni qo‘ldan bermasligi, ikkinchi tomondan esa, muloqotdagi moslashishlar sistemasi orqali bu tashabbuskorlikni boshqarish, unga zarur kommunikativ vaziyat shaklini berishi zarur.

Shunday qilib, pedagogik jamoada ixtiloflarning oldini olishda tanlanadigan metodikalar o‘quvchining yoshi, maslagi, jinsini inobatga olib, qo‘llanishi muhimdir. Bu metodikalarni qo‘llash mobaynida o‘qituvchi pedagogik muloqatga kirishadi, uning madaniyati hamkasabalar, o‘quvchilar jamoasi va atrofdagilarga bo‘lgan turli - tuman munosabatlarda namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, o‘quvchilarga do‘stona munosabat bildirib, ularga mehribon bo‘lish o‘qituvchining hislarida, kechinmalarida ifodalanadi. Muomala rollar orqali shaxs faoliyati uchun sotsial maydon yaratib, unda u yoki bu ijtimoiy xulq- atvorni rejalashtirishga xizmat qiladi.

2.3-§. Pedagogik jamoada ixtilof va nizolarning profilaktik modelini tatbiq etish

Pedagogik jamoada ixtilof va nizolarning profilaktik modelini takomillashtirishda biz pedagogik muloqot, muomala, hamkorlikda faoliyat yuritish kabi interfaol faoliyatga hamda modelning tarkibiy qismi bo‘lmish metodlar va vositalarga alohida e’tiborni qaratdik.

Muloqot, uning tarkibiy tuzilishi ustida izlanish olib borgan olim Kan-Kalik fikricha, o‘qituvchi, ayniqsa, uning yordamiga muhtoj bo‘lgan o‘quvchilarga alohida e’tibor berishi, har bir o‘quvchini qiziqtirish usullarini, hamkorlik va ijodkorlikka asoslangan mehnatni tashkil etishni oldindan o‘ylab qo‘yishi lozim.

Tadqiqotlarimiz mobaynida ta’lim sub’ektlari orasida nizo va ixtiloflarning oldini olishga mo‘ljallangan muloqotning eng muhim funksiyalaridan biri – empatiyaga moyillik, hamdard bo‘lishga ham alohida e’tibor qaratildi. Bunda ta’lim sub’ektlarining boshqa ta’lim ishtirokchilari hissiyotlarini tushunish, boshqalar nuqtai nazarini ma’qullah qobiliyatini shakllantirish jarayonida munosabatlarni me’yorga keltirishga urg‘u berildi. Bunda o‘quvchining istaklarini tushunish va bular asosida o‘quvchiga ta’sir etish zarurligini anglash o‘qituvchi uchun juda muhimligi yana bir karra isbotlandi.

Tadqiqot davomida biz xorij, MDH mamlakatlarida nizo va ixtiloflarning oldini olish yuzasidan ishlab chiqilgan modellarni o‘rgandik. Ushbu modelarni o‘rganib, biz milliy mentalitetimizga mos bo‘lgan modelni ishlab chiqishni o‘z oldimizga maqsad qildik.

Fikrimizcha, Rossiya Federatsiyasining Janubiy Federal okrugi, Krasnodar, Ural kabi regionlarida ishlab chiqilgan nizolarning oldini olish modeli bir muncha qiziqish uyg‘otadi.

Rossiyadagi ta’lim muassasalarida yarashuv xizmatlarini yaratish va rivojlantirish texnologiyasi 1999 yildan boshlangan va Sud-huquq islohotlari markazi (<http://sprc.ru/>) faoliyati bilan bog‘liq. Sud-huquq islohotlari markazi notijorat tashkilot bo‘lib, mediatsiyaga restorativ yondashuv qadriyatlarini baham ko‘radigan professional huquqshunoslar, yuristlar, o‘qituvchilarni birlashtiradi. O‘tgan yillar davomida 600 dan ortiq ta’lim muassasalari ushbu tashkilotda ishlab chiqilgan

texnologiyadan foydalangan holda nizolarni hal qilishda restorativ vositachilik mafkurasini o'zlashtirdi va faol rivojlantirmoqda.

E.Yu.Zinova o'zining "Maktabni yarashtirish xizmatini tashkil etish (yo'riqnama)" asarida ta'kidlaganidek. - Xanti-Mansiysk, 2011) (16-21- betlar), hozirgi vaqtda gorizontal modellar deb ataladigan bitta ta'lif tashkiloti doirasida maktab yarashtirish xizmatining uchta tashkiliy modeli mavjud:

"profilaktika" modeli; "ta'lif"

(pedagogik) model; "xizmat"

modeli. Ya'ni PTX

Keling, Oltoy o'lkasining ta'lif muassasalarida davlat boshqaruvini rivojlantirish tajribasini hisobga olgan holda tanlangan modellarni ko'rib chiqaylik.[44]

Profilaktika modeli, ta'lif modeli, xizmat modeli (o'zini o'zi boshqarish tuzilmasi) 1chi, 2chi, 3chi o'zgaruvchan modelning muassasaning mahalliy dalolatnomalarida aks etishi PTX profilaktika kengashining tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi. PTX ta'lif va ijtimoiylashtirish dasturining bir qismidir: o'zgaruvchan o'quv kursi, sinfdan tashqari ishlar dasturi, sinf, maktab miqyosidagi tadbirlar tizimi strukturaviy birlik yoki yuridik shaxs tashkil etmagan holda, kattalar va bolalar vositachilari jamoat birlashmasi sifatida maktab o'zini o'zi boshqarishning mustaqil tashkiloti

Maqsad - o'smirlar muhitini dekriminalallashtirish, maktab o'quvchilarining noqonuniy xatti-harakatlarining sabablarini bartaraf etishga yordam berish, bolalar faoliyatining namoyon bo'lishi uchun sharoit yaratish, bolalarning o'zini ijobiy his qilishlari, jazolanmaslik imkoniyatini olish. Konstruktiv nizolarni hal qilish, ma'muriyatni boshqaradigan qarorlar qabul qilishda ishtiroy etish orqali maktab siyosatiga ta'sir o'tkazish qobiliyatidir.

Qaysi mavjud tizim voyaga etmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimining elementini birlashtiradi;

- maktab ma'muriyatining ijtimoiy-pedagogik blokiga tashkiliy jihatdan

birlashtirilgan: u profilaktika kengashi, ijtimoiy pedagog, psixolog va deviant xulq-atvor muammolari bilan shug‘ullanadigan boshqa maktab mutaxassislari bilan yagona tizimda ishlaydi ta’lim dasturi;

- tashkiliy nuqtai nazardan, u o‘zini o‘zi boshqarish shakllaridan biri sifatida maktabning ta’lim ishlari tizimiga kiritilgan holda juda avtonom bo‘lib qoladi: o‘quvchi, ota-on, pedagogik yoki aralash.

Maktabning ma’muriy tizimining bir qismiga aylanib, xizmat maktab rahbariyatiga bo‘ysunadi: u bilan muvofiqlashtiradi. Loyiha: koordinator, rollar va ishtirok ulushlarini taqsimlash va natija uchun javobgarlik. Nizom asosida avtonom boshqaruvga muvofiq pedagogik loyihaning amalga oshirilishini nazorat qilish. Barcha o‘zini-o‘zi boshqarish organlari va ta’lim tashkiloti ma’muriyati bilan hamkorlikda o‘z ishining masalalari va uning natijalari to‘g‘risida pedagogik (uslubiy) kengash qarorlari bilan direktorga yoki uning o‘rnbosariga hisobot beradi. Natijalarini maktab direktorining ochiq hisobotida aks ettirish. Maktab o‘zini o‘zi boshqarish doirasida, o‘z qarorlari va o‘zaro kelishuvlari asosida faoliyat natijalarini muvofiqlashtiruvchi organlar bayonnomalarida aks ettirish - o‘zini o‘zi boshqarish organlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik tamoyillari kelishilgan muzokaralar maydonchalari xizmat samaradorligi mezonlari

- amalga oshirilayotgan dasturlarning soni va murakkabligi, ijobiy dinamika, maktabda "mojarolar darajasini" kamaytirish;

- dasturlarning pedagogik maqsadlariga erishish;

- maktab o‘quvchilari jamoasining tarbiya darajasini oshirish (ko‘ngillilikka jalg qilish orqali yuqori ma’naviy va ishbilarmonlik fazilatlari) - xizmatning o‘zi duch keladigan vaziyatlarni engish qobiliyati (mustaqil baholash; audit, o‘z-o‘zini tekshirish);

- nizolarni hal etishning umumiyl ishbilarmonlik madaniyati (paydo bo‘lgan pretsedentlarga asoslangan nizolarni hal qilishning rasmiy yozma tartiblarining mavjudligi);

Buyurtmachi maktab ma’muriyati, o‘qituvchilar, sinf o‘qituvchilari, ota-onalar, kattalar sifatida, ta’lim faoliyatini monitoring qilish asosida pedagogik maqsadga muvofiq jarayonni tashkil etish. O‘quvchi (o‘qituvchi, ota-on, ma’muriyat)

vositachilik dasturida ishtirok etishga rozi bo‘lganligi - nizoni hal qilishning restorativ usuli. Konflikt mavjudligi haqidagi ma’lumot har qanday organ yoki axborot manbasidan olinishi mumkin.

Ziddiyatli vaziyatda xizmatning vazifasi maktab muhitini dekriminallashtirish, maktab muhitini o‘zgartirish, muloqot ko‘nikmalarini o‘rgatish, jamoada ishslash, o‘quvchilarining axloqiy fazilatlarini oshirish, ziddiyatli vaziyatda konstruktiv xulq-atvor tomonlar maqsad toifasi deviant xulq-atvorni ko‘rsatadigan o‘smirlar ta’lim tashkiloti talabalari ishtirokchilar jalg qilish.

Shunday qilib, birinchi ikkita model muassasaning ta’lim muhitiga ta’sir qilish qobiliyatiga ega, uchinchi model - umumiy manfaatlarni anglash va yangi qadriyatlarni namoyish etish amaliyoti asosida ta’lim tashkilotining davlat-jamoat boshqaruvini rivojlantirish tajribasi maktabning ta’lim muhitida fuqarolik jamiyatiga aylantirish. Perm o‘lkasi tajribasida yana biri yaratilgan va muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda maktablarni yarashtirish xizmatlarining "vertikal modeli" [44].

Ushbu modelning mohiyati shundan iboratki, maktab yarashtirish xizmati psixologik-pedagogik reabilitatsiya va korresiya markazi, diagnostika va maslahat markazi negizida tashkil etilgan shahar yarashtirish xizmati tomonidan nazorat qilinishi mumkin. Shuningdek, ushu markazlardan biri sudlar, prokuratura negizida, ehtimol, ijtimoiy himoya xizmatlari negizida tashkil etiladigan balog‘atga etmaganlar shahar xizmatining ish yo‘nalishlari bo‘lishi mumkin.

Nizo va ixtiloflarning oldini olish jarayonida biz tadqiqot doirasida pedagogik muloqotning ko‘p qatlamlilagini e’tiborga olish ham uning ta’sir ko‘rsatish kuchini oshiruvchi vosita ekanligini aniqladik. Chunki, o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida butun sinf bilan va har bir o‘quvchi bilan, o‘quvchi orqali esa butun sinf bilan muloqotda bo‘ladi. Shuni inobatga olib biz modelni takomillashtirishda ta’lim ishtirokchilarining xulq-atvorining faoliyatdagи o‘rniga ham e’tibor qaratdik. Shu sababli biz tomonimizdan “Pedagogik jamoada ixtilof va nizolarning profilaktik modeli” ishlab chiqildi.

Xulq - atvor, xatti-harakat va faoliyatda eksternal, tashqi nazorat lokusiga ega

bo‘lgan ta’lim ishtirokchilari o‘rganilganda, ularda (“true believers”) ayrim holatlarda, vaziyat taqozosi bilan destruktiv guruhlarning manipulyativ ta’siriga ma’lum muddatga bo‘lsa ham kirib qolish ehtimoli borligi aniqlandi. Muvaffaqiyatli ta’sir ko‘pincha guruh talablariga to‘la bo‘ysungan, uni qabul qilgan nomzod ma’naviy, psixik qiyofasining tubdan o‘zgarishi bilan ifodalanishini inobatga olsak, ta’lim ishtirokchilarining ilgarigi hayotiy yo‘nalishi, uslubi, so‘z boyligi, qiziqishlari, do‘stlari va qadriyatlarini guruh mezonlari orqali qayta ko‘rib chiqishga to‘g‘ri keladi. Agar ta’lim ishtirokchisining o‘tmishi bilan ayni vaqtagi vaziyatining bir- biriga mos kelmasligi, o‘z mohiyatini anglay olmaslik unda dastlab kuchli ruhiy toliqish, stress, tushkunlik holatini namoyon qiladi. Biroq vaqt o‘tishi bilan guruh talablariga bo‘ysunish, maslak, e’tiqodlarining o‘zgarganligini tan olish asta-sekin bu hissiyotlarning susayishiga olib keladi. Shu jihatlarni e’tiborga olib, biz pedagogik jamoada ixtilof va nizolarning profilaktik modelini takomillashtirdik (2.3-jadval)

2.3-jadval.

Pedagogik jamoada ixtilof va nizolarning profilaktik modeli

Bosqichlar	Davlat ta’lim standarti talablari – dunyoqarashi kengaytirish, kommunikativ qobiliyatga ega shaxs tarbiyasi
Nazariy bosqich	<p>Maqsad. Pedagogik jamoada ta’lim sub’ektlari orasida ixtilof va nizolarning oldini olish texnologiyalarini takomillashtirish</p> <p>Yondashuvlar: kompetent, shaxsga yo‘naltirilgan, kommunikativ-kognitiv, tizimli. Umumdidaktik tamoyillar: onglilik, faollik, avtonomlik, ravshanlik, hammaboplik. Metodik tamoyillar: kommunikativ yo‘nalganlik, yuqori madaniyatni shakllantirish; o‘quv predmetlarini informatsion-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida o‘qitish: interaktivlik, ta’limni insonparvarlashtirish.</p>

	<p>Metodik shartlar: ta’lim sub’ektlarida bilish faoliyati motivatsiyasini oshirish; fikrlash va vaziyatni taxmin qilish ko‘nikmalarini rivojlanтирishga yo‘naltirish; mustaqil faoliyatiga urg‘u berish; hamkorlik muhitini yaratish; mashg‘ulotlarda bevosita va bilvosita faolligini yaratish.</p>	
	<p>Metodlar: loyihaviy, interaktiv (TRKM), kommunikativ.</p>	
	<p>O‘qitish vositalari: veb-kvest texnologiyasi, Internet resurslari.</p>	
	<p>Tashkiliy shakllar: mustaqil, individual/guruhli, jamoaviy.</p>	
Texnologik bosqich	O‘quv mazmuni	
	O‘quv algoritmi	
	Baholash mezonlari	
	Til ko‘nikmalari	
	Nutqiy mahorat	
	Bilim	
Metakognitiv tajriba		
Ummadaniy Kompetensiya		
nutqiy kompetensiya		
ijtimoiy-madaniy kompetensiya		
<p>Natija – ta’lim sub’ektlari orasida ixtilof va nizolarning oldini olish texnologiyalarini takomillashtirish asosida pedagogik jamoadagi psixologik iqlim barqaror bo‘ladi, yuksak ma’naviyatlilik va madaniyatatlilikka zamin hozirlanadi.</p>		

Modelda aks ettirilganidek, ta’lim sub’ektlari orasida ixtilof va nizolarning oldini olish texnologiyalarini takomillashtirish natijasida pedagogik jamoadagi psixologik iqlim barqaror bo‘ladi, yuksak ma’naviyatlilik va madaniyatatlilikka zamin hozirlanadi.

Ta’lim sub’ektlari orasida ixtilof va nizolarning oldini olish texnologiyalarini takomillashtirishda ularda destruktiv g‘oyalarning paydo bo‘lmashligiga alohida e’tiborni qaratish kerak.

Adabiyotlarda ta’kidlanishicha, destruktiv g‘oyalarga moyillar aksariyat hollarda, psixopatik sifatlarga, etakchilik xislatlariga, zo‘ravonlik, zolimlik xususiyatlariiga ega shaxslar bo‘lib, ular omma, ko‘p miqdordagi kishilarning bo‘ysunishidan moddiy yoki siyosiy jihatdan manfaatdordirlar.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, niyat, orzularning beqarorligi, maqsadlarning

noaniqligi, o‘zga fikrlarga nisbatan toqatsizlik, shoshqaloqlik yoshlik davrida nisbatan ko‘proq uchraydigan xususiyatlardandir. Bunday sifatlar o‘smir va o‘spirinlarning otasi-onasi va yoshi ulug‘ insonlar bilan maslahatlashish, fikrlashish emas, balki o‘ziga o‘xshaganlarni topishga intilishini kuchaytiradi. Bu esa, pedagogik jamoada turli nizo va ixtiloflarni paydo bo‘lishiga olib keladi. Bunday guruhlarda o‘ziga xos madaniy me’yor va ustanovka (yo‘l-yo‘riq)lar, qadriyatlar, “biz” va “ular” degan psixologik qarama-qarshilikni ifodalovchi tushunchalarga asos bo‘luvchi omillar shakllana boshlaydi.

Dastlab avlodlar orasida, ya’ni “biz” – yoshlar va “ular” – yoshi ulug‘ insonlar o‘rtasidagi ixtilof ko‘zga tashlanadi. Bunday qarama-qarshilik o‘smir yoki o‘spiring alohida musiqani tinglashi, so‘zlashuv jarayonida jargon va adabiy tilga xos bo‘lmagan turli iboralami qo‘llashi, so‘nggi urfdagi kiyimlarni kiyishga intilishidagi deyarli bezarar xatti- harakatlarida ifodalanadi. Bu ma’lum vaqtgacha yoshlarning kattalardan ajralib turishga nisbatan xohishidir. Biroq, keyinchalik, yoshlarning muxoliflik xususiyati kuchaya boradi. Destruktiv g‘oyalar, mafkuralarning mohirlik bilan olib boriladigan targ‘iboti hamda yoshlar onginging to‘la shakllanmaganligi, ularning ma’lumot, axborotni tanqidsiz va tahlilsiz qabul qilishi natijasida hatto ekstremistik va terroristik kayfiyatdagagi guruhi, uyushmalar vujudga kelishi mumkin.

“Nega yoshlar destruktiv g‘oyalar ta’siriga tez tushishga moyil bo‘ladilar?” degan savol tug‘iladi. Ijtimoiy psixologiya sohasida tadqiqotlar olib boruvchi olimlarning ta’kidlashlaricha, yot g‘oyalarning faol targ‘ib qilinishi natijasida yoshlarda ongning o‘ziga xos, ekstremal tipi shakllanadi. Bunday ongga ega yoshlarda oldilariga qo‘ygan bo‘rttirilgan mazmundagi maqsadlarga ko‘r-ko‘rona intilish bilan bog‘liq aqidaparastlik (fanatizm), haqiqatni tan olmaslik va qiyinchiliklardan qochishda namoyon bo‘luvchi nigilizm (har qanday me’yor, tamoyil va qonunlarni inkor etish) yorqin ifodalangan bo‘ladi.

Turli ob’ektiv va sub’ektiv omillar yoshlar onginging destruktivligini kuchaytirishi yoxud kamaytirishi mumkin. Hozirgi kunda jamiyatimizda keng qamrovli ma’naviy-ma’rifiy yangilanishlar, islohotlar olib borilayotgan bir vaqtda bag‘rikenglikka yo‘naltirilgan ijtimoiy-psixologik tadbirlarni ham amalga oshirishga

e'tiborni kuchaytirish zarur. Yoshlarga hozirgi vaqtida turli, ijtimoiy jihatdan qarama-qarshi qadriyatlar ta'sir o'tkazmoqda. Ijtimoiy mavqe, dunyoqarash nuqtai nazaridan yosh avlod ijobiy hayotiy qadriyatlarni to'g'ri tanlashda ikkilanishlari mumkinligini hisobga olib, ularga bu borada to'g'ri yo'lni ko'rsatish ota-onalar, pedagoglar, umuman, muayyan tajribaga ega katta yoshdagi avlod vakillarining vazifasidir.

Ikkinchchi bob bo'yicha xulosalar

Shunday qilib, tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Ontogenetika qadriyatlar shakllanayotgan kezda o'smir va o'spirin yoshidagi o'quvchilar inqirozli vaziyatlarga tushishi, tajribali o'qituvchilar, psixologlar tomonidan o'z vaqtida yordam bermaslik pedagogik jamoada turli inqirozlar va ixtiloflarning kelib chiqishiga olib kelishi mumkin.

2. Pedagogik nizolarning ob'ektiv sabablari:

-- bolaning asosiy ehtiyojlarining etarli darajada qondirilmasligi.

--O'qituvchi va o'quvchining funksional-rol pozitsiyalarini qarama-qarshi qo'yish (birinchisining vazifasi – o'qitish, ikkinchisining vazifasi – o'rghanish; o'qituvchi – o'quvchidan ongi, bilimi, tajribasiga ko'ra apriori ustun hisoblanadi. va uning ustidan hokimiyatga ega).

--Erkinlik darajalarining sezilarli darajada cheklanishi (qat'iy intizom talablari, bo'y sunish, o'qituvchi, fan, sinfni tanlamaslik, darslarga majburiy qatnashish va boshqalar).

--G'oyalar, qadriyatlar, hayotiy tajriba, turli avlodlarga mansublikdagi farqlar ("otalar va bolalar" muammozi).

--O'quvchining o'qituvchiga bog'liqligi.

-- O'quvchilarni o'qituvchi tomonidan baholash zarurati.

--Rasmiylashtirilgan ta'lim tizimlarida o'quvchilarning shaxsiy muammolariga e'tibor bermaslik.

Ta’lim muassasasida, ota-onasi, o‘rtoqlari yoki boshqa muhim shaxslar tomonidan talabaning turli, ba’zan bir-biriga zid bo‘lgan talablari tufayli o‘ynashga majbur bo‘lgan rollarning ko‘pligi.

--O‘quv materialining real hayot hodisalari, ob’ektlari o‘rtasidagi farq.

--Ijtimoiy beqarorlik va boshqalar.

2. Sub’ektiv sabablarga quyidagilar kiradi:

--O‘qituvchi va o‘quvchining psixologik mos kelmasligi.

-- “Konfliktli shaxs” deb ataluvchi xususiyatga ega bo‘lgan o‘qituvchi yoki o‘quvchining mavjudligi (tajovuzkorlik, asabiylashish, xushmuomalalik, kinoya, o‘ziga ishonch, qo‘pollik, qattiqko‘llik, ayb izlash, skeptitsizm va boshqalar).

-- O‘qituvchi yoki o‘quvchining muloqot madaniyatining yo‘qligi.

--Bu fanni barcha talabalar tomonidan o‘rganish zarurati va muayyan talaba tomonidan unga qiziqishning yo‘qligi.

--Bu o‘quvchining intellektual, jismoniy imkoniyatlari va unga qo‘yiladigan talablar o‘rtasidagi nomuvofiqlik.

--O‘qituvchining etarli darajada kompetentsiyaga ega emasligi (tajribaning etishmasligi, fanni chuqur bilishi, nizolarni hal qilishga tayyorligi, muayyan kasbiy qobiliyatlarning past darajada rivojlanishi).

--O‘qituvchi yoki talabaning jiddiy shaxsiy muammolari, kuchli asabiy taranglik, stress mavjudligi.

--O‘qituvchi yoki talabaning haddan tashqari yuklanishi.

-- O‘quvchilarning majburiy harakatsizligi.

-Ta’lim jarayonida mustaqillik, ijodkorlikning yo‘qligi.

-- O‘quvchining o‘z-o‘zini baholashi bilan o‘qituvchi tomonidan berilgan baho o‘rtasidagi nomuvofiqlik va h.k.

Tadqiqotlar mobaynida, modelni amaliyatga tatbiq qilar ekanmiz, quyidagi

amaliy ishlarga urg‘u berish lozimligi kuzatildi:

- Konfliktni yanada muvaffaqiyatli hal qilish uchun X.Kornelius va S.Fair tomonidan ishlab chiqilgan konflikt xaritasini tuzish maqsadga muvofiqdir.[50] Uning mohiyati quyidagicha:
 - konflikt muammosini umumiy ma’noda aniqlash. Masalan, bajarilgan ish hajmiga bog‘liq nizo yuzaga kelgan taqdirda, yukni taqsimlash sxemasini tuzing;
 - konfliktda kim ishtirok etganligini aniqlash (shaxslar, guruhlar, bo‘limlar yoki tashkilotlar);
 - konfliktning asosiy ishtirokchilarining har birining haqiqiy ehtiyojlari va tashvishlarini aniqlash.

Ushbu xarita sizga quyidagilarga imkon beradi:

1. Munozarani ma’lum bir rasmiy doiralar bilan cheklash, bu his- tuyg‘ularning haddan tashqari namoyon bo‘lishining oldini olishga yordam beradi, chunki xaritalash paytida odamlar o‘zlarini ushlab turishlari mumkin;
2. Muammoni birgalikda muhokama qilish, o‘z talab va istaklarini bildirish imkoniyatini yaratish;
3. O‘z nuqtai nazaringizni ham, boshqalarning nuqtai nazarini ham tushunish;
4. Empatiya muhitini yaratish, ya’ni muammoni boshqa odamlarning ko‘zi bilan ko‘rish va ilgari ularni tushunilmagan deb hisoblagan odamlarning fikrlarini tan olish imkoniyati;
5. Ziddiyatni hal qilishning yangi usullarini izlash.

6. Mojaroni hal qilishdan oldin quyidagi savollarga javob berish tavsiya etiladi:

- Ijobiy natijani chin dildan xohlaysizmi;
- Qarama-qarshi tomonlar o‘rnida o‘zingizni qanday his qilasiz;
- Nizoni hal qilish uchun vositachi kerakmi;
- His-tuyg‘ularingizni yaxshiroq nazorat qilish uchun nima qilish kerak;

--Qanday muhitda (vaziyatda) odamlar yaxshiroq ochilishi, umumiyl til topishi va o‘z echimlarini ishlab chiqishi mumkin edi.

Pedagogik jamoada nizo va ixtiloflarning oldini olishda ta’lim sub’ektlari takomillashuv jarayonida o‘zining ijtimoiy-madaniy muhitdagi mavqeini o‘zgartirib boradi. Shu bilan birga o‘zi mansub ijtimoiy-madaniy muhit tuzilmasini rivojlantirish, o‘zgartirishga ham hissa qo‘sishi mumkin. Harakatchanlik, vaziyatga tez moslashish, tashkilotchilik va tashabbuskorlik sifatlariga ega ta’lim sub’ektlari o‘zlarining ijtimoiy va ijodiy faolliklari, intilishlari, qobiliyatlarini nisbatan tezroq namoyon etadilar.

III BOB. PEDAGOGIK JAMOADA IXTILOF VA NIZOLARNING KELIB CHIQISHINI OLDINI OLİSH TEXNOLOGIYALARI

3.1-§. Pedagogik jamoada ixtilof va nizolarning profilaktik modelini amaliyatga tatbiq qilish samaradorligi

Pedagogik jamoada ixtilof va nizolarning oldini olishga yo‘naltirilgan tajriba-tadqiqot ishlari respublikamizning Toshkent tumanidagi 11, 18, 22-maktablar, Samarkand shaxrining 1, 6, 42-umumiy o‘rta ta’lim maktablari hamda Namangan viloyatining 52, 53, 82-umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 2017-2020 yillar mobaynida olib borildi. Bunda tajriba mobaynida ishtirok etgan 232 nafar o‘qituvchilar va 1136 nafar o‘quvchilar orasida tavsiya etilayotgan modelning samaradorligi tajribadan o‘tkazildi. Jami tadqiqot ishlarida 1368 nafar respondentlar qatnashishdi.

Tajriba-sinov ishlari uch bosqichdan: aniqlovchi va ta’kidlovchi (2017– 2018), shakllantiruvchi (2018–2019), yakunlovchi bosqich tajriba-sinov (2019– 2020) ishlaridan iborat bo‘lib, xalq ta’limi boshqarmalari va ta’lim muasasalarini qamrab olgan holda o‘tkazildi.

A.Asingerning metodikasi asosida tuzilgan testlar tajriba guruhidagi o‘qituvchilarning pedagogik jamoada ixtilof va nizolarning profilaktik modelini amaliyatga tatbiq qilishda ishlatildi. Bu asosan, pedagog shaxsining o‘zhamkasablari bilan munosabatda kirishishidagi samimiylilik, kommunikativlik darajasi (kirishimliliği) ni aniqlash maqsadida o‘tkazildi.

Mazkur metodika javoblarni xolisona baholash uchun hamkasabalar orasida bir-birini baholovchi suhbatlar tariqasida o‘tkazildi. Bu ularning o‘z-o‘zlarini tashxislashda qanchalik odil hukm chiqarganliklarini aniqlashda yordam berdi. Dissertatsiya sahifalarida metodikadagi ayrim savollarni keltiramiz:

Javoblar tagiga chizing.

1. Pedagogik jamoada navbatdagi nizodan so‘ng yarashish yo‘llarini qidirishga moyilmisiz?
 - 1) Har doim.
 - 2) Gohida.

- 3) Hech qachon.
2. Pedagogik vaziyatdagi mushkul holatda o‘zingizni qanday tutasiz?
- 1) Ich-ichingizdan g‘azablanasiz.
- 2) Xotirjamligingizni saqlaysiz.
- 3) O‘zingizni tuta olmaysiz
- 4) O‘quvchilar oldida dadilligingizni yo‘qotmaysiz.
3. Hamkasblaringiz sizni qanday odam deb hisoblashadi?
- 1) Kekkaygan xasadchi.
- 2) Samimiylar.
- 3) Xotirjam va xasadchi emas.
4. Agar sizga mas’ul lavozim taklif qilinsa, siz qanday munosabat bildirasiz?
- 1) Uni bir muncha xavotirlanish bilan qabul qilasiz.
- 2) Ikkilanmasdan rozi bo‘lasiz.
- 3) Undan o‘zingizni xotirjamligingiz uchun voz kechasiz.
5. Agar hamkasblaringizdan birontasi ruhsatsiz sizni stolingizdan qog‘oz olsa o‘zingizni qanday sezasiz.
- 1) Unga kimligingizni ko‘rsatib qo‘yasiz.
- 2) Qaytarishga majbur qilasiz.
- 3) Unga yana biror narsa kerak emasligini so‘raysiz.
6. Agar o‘quvchingiz darsga kech qolsa, uni qanday so‘zlar bilan kutib olasiz.
- 1) Siz nega shunchalik kechikdingiz?.
- 2) Shu paytgacha qaerda edingiz.
- 3) Men xavotir ola boshlayotgan edim.
7. O‘qituvchilar orasida o‘tkaziladigan ko‘rik-tanlovlarda o‘zingizni qanday tutasiz?
- 1) Sizdan o‘zib ketayotgan hamkasabangizni ortda qoldirishga harakat qilasiz
- 2) G‘oliblik qo‘ldan ketsa ham sizga baribir.

- 3) Har qanday yo‘l bilan g‘oliblikni qo‘lga kirtasiz.
8. Sizni hayotga qarashingiz qanday deb hisoblaysiz?
- 1) Uyg‘unlashgan, optimistik
 - 2) Yengiltak
 - 3) Vazmin, pessimizm ko‘rtaklari otrmoqda
9. Agar ishlaringiz yurishmayotgan bo‘lsa nima qilasiz?
- 1) Aybni birovga ag‘darishga harakat qilasiz.
 - 2) Ko‘nikasiz.
 - 3) Kelgusida ehtiyotkorroq bo‘lasiz
10. Siz zamonaviy yoshlarning orasida axloqsizlik haqidagi feletonga qanday munosabat bildirasiz?
- 1) “Bunday vaqt chog‘likni taqiqlash kerak”
 - 2) Ularga uyushgan va madaniy tarzda dam olishi uchun imkoniyat yaratish lozim.
 - 3) Nimaga endi biz ular bilan shunchalar ovoramiz.
11. Agar siz egallamoqchi bo‘lgan lavozim boshqa birovga nasib qilsa, nimani his qilasiz?
- 1) Bu narsaga asabiylashmayman.
 - 2) rahbariyatga uning qaysi hislati yoqdi ekan?
 - 3) Men keyingi safar buning uddasidan chiqarman.
12. Qo‘rinchli film ko‘rayotganda qanday holatda bo‘lasiz?
- 1) Qo‘rqasiz
 - 2) Zerikasiz
 - 3) Chin dildan zavqlanasiz
13. Agar siz yo‘ldagi tiqilinch tufayli muhim majlisga kechikayotgan bo‘lsangiz...
- 1) Majlis vaqtida asabiylashasiz
 - 2) Hamkasabalaringizga iltifot ko‘rsatishga harakat qilasiz
 - 3) O‘zingizdan va tevarak-atrofdagilardan ranjiysiz
14. Sport bilan shug‘ullanar ekansiz, bu faoliyatingiz turiga qanday qaraysiz?

- 1) Albatta natijaga erishishga harakat qilasiz
- 2) O‘zingizni yanada yosh his qilasiz
- 3) Agar omad kelmasa, juda xam jahlingiz chiqadi.

15. Agar sizga maktab oshxonasida kerakli darajada xizmat qilishmasa nima qilasiz?

- 1) Janjaldan qochib, chidaysiz
- 2) oshpazni chaqirasiz va tanbeh berasiz
- 3) Oshxona boshlig‘iga arz qilasiz.

16. Agar bolangizni maktabda hafa qilishsa, o‘zingizni qanday tutasiz?

- 1) O‘qituvchi bilan gaplashasiz.
- 2) “Voyaga etmagan jinoyatchining” ota-onasi bilan janjallashasiz
- 3) Bolangizga javob qaytarishni maslahat berasiz.

17. Sizningcha, qanday odamsiz?

- 1)o‘rtacha kirishimli
- 2)O‘ziga ishongan
- 3)Uddaburon

18. Tanaffusda o‘quvchilar sizga bexosdan urilib ketsa va kechirim so‘ray boshlasa, siz nima deb javob berasiz?

- 1) “Uzr, bu meni aybim”
- 2) “Hechqisi yo‘q”
- 3) “E’tiborliroq bo‘lsangiz bo‘lmaydimi?!”

19. Tarbiyasi qiyin yoshlar orasidagi bezorilik haqidagi maqolaga siz qanday munosabat bildirasiz?

- 1) “Qachon axir, jiddiy choralar ko‘riladi”
- 2) “Jismoniy jazo choralarini kiritish kerak”
- 3) “Hammagini yoshlarga ag‘darish to‘g‘ri emas, tarbiyachilar ham aybdor”

Natijalar tahlili.

36-44 ball. Sizning asablaringiz biroz charchagan. O‘rtacha darajada tajavvuzkorsiz, bu pedagogik jamoada ham o‘z aksini topayapdi. Hayotda

muvaafaqqiyatli bo‘lishga harakat qilayapsiz. Sizda samimiy izzattalablik va ishonch bor.

45 va undan ortiq. Siz ortiq darajada tajavvuzkorsiz va ko‘pincha hamkasabalingiz va o‘quvchilaringizga nisbatan loqayd va shavqatsizsiz. O‘zingizni metodlaringizga ishongan holda rahbarlikka ko‘tarilishga umid qilasiz, bunda oila a’zolaringiz va atrofingizdagilar manfaatlarini qurbon qilasiz.

35 va undan past. Siz haddan ziyod tinchliksevarsiz, bu esa sizda o‘zingizning kuchingizga va imkoniyatlaringizga ishonch etarli emasligini anglatadi. Siz qat’iy bo‘lishingiz, pedagogik talabchanlik uslublariga rioya qilishingiz lozim.

Agar siz 7 ta va undan ko‘p savollarga 3 balldan va 7 tadan kam savollarga 1 tadan ball to‘plagan bo‘lsangiz, unda siz pedagogik jamoada nizo chiqarishga moyilsiz. Ayrim vaziyatlarda rejorashtirilmagan ishlarda ayovsiz munozaralarga moyilsiz. Siz hamkasabalarga mensimaslik bilan qaraysiz va o‘z xulqingiz bilan janjalli murosasizlik holatlariga undaysiz, vaholanki ularning oldini olishingiz mumkin.

Agar siz 7 ta va ko‘proq savollarga bir ochkodan va 7 tadan kam savollarga 3 ochkodan olsangiz, unda siz haddan ziyod odamovisiz. Vazmin va bosiq tabiatlisiz. Shunga o‘xshash metodikalar asosida o‘qituvchilarning kasbiy, umummadaniy, maxsus kompetensiyalarini o‘rganishga mo‘ljallangan maxsus dastur ishlab chiqildi va pedagogik amaliyotga joriy qilindi.

Dastur asosida olib borilgan tajribaviy metodikaning samarasi yuqori ekanligi tadqiqotlar natijasida aniqlandi.


Pedagogik jamoada ixtilof va nizolarning profilaktik tadbirlarini tashkil qilishda individ ongi ommaviy ongning tarkibiy qismlaridan biri ekanligini inobatga olib, muayyan shaxs ongi etarli darajada tashkillashtirilgan va yo‘naltirilgan guruh ta’sirining oldida ojiz ekanligini aniqladik. Ta’sirga beriluvchan o‘quvchilarning dunyoqarashini o‘zgartirish, ularni turli destruktiv g‘oyalar, turli guruhlarning manipulyativ ta’siriga tushib qolishdan asrash uchun, ma’naviy-ruhiy dunyosini kengaytirishga mo‘ljallangan metodlardan foydalanishga harakat qildik. Buning uchun 5-9-sinf o‘quvchilari olrasida nizo va janjallarni chiqarishga moyil o‘quvchilarni maxsus diagnostik metodlar asosida aniqlab oldik va ularning hayotiy yo‘nalishi,

uslubi, so‘z boyligi, qiziqishlari, do‘stlari xamda qadriyatlarini guruh mezonlari orqali o‘rgandik. Ruhiy toliqish, stress, tushkunlik holatini namoyon qiluvchilarini alohida guruhlarga ajratib, ularga tavsiya etilayotgan metodlar: Kommunikativ ta’sir, ishontirish, rolli o‘yinlar asosida ta’sir o‘tkazishga muyassar bo‘ldik. Natijada, tajriba guruhi sinaluvchilarida maslak, e’tiqodlarini o‘sirish, dunyoqarashini kengaytirishga muvaffaq bo‘lindi. Shuningdek, pedagogik jamoada ixtilof va nizolarning profilaktik modelini amaliyotga tatbiq qilish uchun tadqiqotda respondentlarning individual-psixologik xususiyatlarining namoyon bo‘lishini o‘rgandik. Buning uchun pedagogik amaliyotda keng qo‘llanilib kelinayotgan K.Tomas va K.Shmisheklarning shaxs so‘rovnomalaridan foydalanildi.

Tajriba ishlariga Toshkent viloyatining Toshkent tumanidagi 11, 18, 22-maktablar, Samarkand shahrining 1, 6, 42-umumiy o‘rta ta’lim maktablari hamda Namangan viloyatining 52, 53, 82-ummumiy o‘rta ta’lim maktablarining 232 nafar pedagoglari va 1136 nafar 6-9 sinf o‘quvchilari jalb qilindi. Jami tadqiqot ishlarida 1368 nafar respondentlar ishtirok etgan. Sinf o‘quvchilarining individual-psixologik xususiyatlari, kommunikativlik, xulq-atvor ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqliklar (aloqadorliklar) mavjudligini ko‘rsatdi. Buning uchun sinaluvchilar ko‘rsatkichlarining o‘rtacha qiymati o‘zaro solishtirildi, natjalarning mosligi Styudent t-mezoni yordamida aniqlandi.(3.2-rasm)

Rasmda aks ettirilganidek, ikkala guruh sinaluvchilaridagi nizolar va ziddiyatlarga barqaror tura olish shkalalarining o‘rtacha ko‘rsatkichlari deyarli bir xil. Tajriba guruhidagi sinaluvchilarda ($n=62$) negativizm ishonchli darajada nisbatan yuqori ($P<0.05$), shuningdek g‘azab, verbal agressiya, aybdorlik hissi nisbatan yuqori ko‘rsatkichni ($R<0.05$) qayd etgan.


Sinaluvchilarda nizo va ixtilofdan qochishga moyillikning namoyon bo‘lishi o‘rtacha ko‘rsatkichdagi solishtirma tahlili ular o‘rtasidagi farqlarni ko‘rsatib berdi (3.2-rasm). Ko‘rsatkichlar taqsimotining me’yor darajasi Z-test orqali aniqlandi.



3.2-rasm. Respondentlarda nizo va ixtilofdan qochishga moyillik

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, nazorat guruhidagi sinaluvchilarda ($n=278$) gipertim tip, tajriba guruhidagi sinaluvchilarda ($n=76$) esa bezovtalik shkalasi yuqori ko‘rsatkichni qayd etgan ($R<0,05$). Ushbu ko‘rsatkichlardan nazorat guruhidagi sinaluvchilarga kirishimlilik, ijobiy ruhdagi muloqotga kirishuvchanlik, faollik, tashabbuskorlik kabi xislatlar xos ekanligini anglash mumkin. Tajriba guruhidagi sinaluvchilarda yuqori darajadagi bezovtalanish, ehtimoliy omadsizliklardan xavotirlanish xos. Bu esa ulardagi o‘z kuchiga, imkoniyatiga ishonchsizlik bilan izohlanishi mumkin.

Pedagogik jamoada ixtilof va nizolarning profilaktik tadbirlarini tashkil qilishda ta’lim sub’ektlarining nizoli vaziyatlarda xulq-atvor turlarining namoyon bo‘lish xususiyatlari K.Tomas so‘rovnomasini yordamida aniqlandi.(3.3-rasm)



3.3-rasm. Nizoli vaziyatlarda xulq-atvor usullarining qiyosiy ko‘rsatkichi

Nazorat guruhidagi sinaluvchilar ($n=278$) nizoli vaziyatlarda deyarli barcha xulq-atvor shakllaridan vaziyatdan kelib chiqqan holda foydalanishlari ma’lum bo‘ldi. Tajriba guruhidagi sinaluvchilarning ($n=62$) esa asosan raqobatga kirishishga moyilligi kuzatildi. Nizoli vaziyatlarda moslashish, hamkorlik, murosa qilishga sinaluvchilardagi bezovtalik, qo‘zg‘aluvchanlik, pessimistlik, o‘z-o‘zini baholashning nomutanosib ko‘rinishi bog‘liq bo‘lishi aniqlandi ($R<0.05$).

Korrelyatsion tahlil tajriba guruhi ($n=62$) sinaluvchilaridagi agressivlik xarakter aksentuatsiyasi bilan bog‘liqlikni ko‘rsatdi. Verbal agressiya tormozlanuvchi va sikloid tipdagi aksentuatsiya bilan, gumon bezovtalik tipi bilan, jizzakilik namoyishkorona, sikloid tiplari bilan ijobiy korrelyatsiyaga ega ($P<0,05$).

3.1-jadval

Tajriba guruhidagi respondentlarda kirishimlilik ko‘rsatkichlari korrelyatsion bog‘liqligi

Kirishim lilik	Rig id	Qo‘zg‘ al uvcha n	Gipe rtim	Nam oyi sh	Peda ntik	Bezo vta	Dist imik	Sikl otim
Jismo niy	173,	-,099	,045	0,040	,223*	-,031	-,012	,030
Bilvosita	- ,087	,119	-,134	-,082	,098	,053	-,006	-,059
G‘azab	,053	-,069	,134	-,041	,103	-,048	-,174	-,097
Negativizm	- ,108	-,153	,147	,140	,009	-,094	-,026	,157
Jizzakilik	- ,013	-,114	,000	,198*	,002	,137	,073	,220*
Gumon	- ,138	-,006	,007	,137	,167	,215*	-,002	-,008
Verbal	,228	,038	,168	,021	-,055	,152	,087	,238
Aybdorlik	- ,095	-,080	-,034	-,179	,123	-,020	,055	,046

Korrelyatsion tahlil tajriba guruhi ($n=62$) sinaluvchilaridagi agressivlik xarakter aksentuatsiyasi bilan bog‘liqlikni ko‘rsatdi. Verbal agressiya tormozlanuvchi va sikloid tipdagi aksentuatsiya bilan, gumon bezovtalik tipi bilan, jizzakilik namoyishkorona, sikloid tiplari bilan ijobiy korrelyatsiyaga ega ($P<0,05$).

Tajriba guruhidagi sinaluvchilarda jizzakilik, gumon ko‘rsatkichi xulq-atvorning nizoli vaziyatlardan qochish usuli bilan teskari korrelyatsiyaga

ega ($P<0.05$). Jismoniy agressiya, g‘azab ko‘rsatkichlari o‘z-o‘ziga noadekvat baho berish darajasi bilan ijobiy korrelyatsiyani namoyon etgan ($P<0.01$).

3.2-jadval.

	Kirishimlilik	Nizodan qochis h	Kompro-mis	Yo n berish	Murosaga kelish	O‘z - o‘zig a bah o
	Yuqori	Verbal	,034	-051	- ,038	-,247
	O‘rta	-,059	-,081	,020	,051	,008
	Qoniqarli	-049	,044	,154	- ,059	-,108
	Qoniqarsiz		Jizzakilik	Gumon		

Tajriba guruhidagi sinaluvchilarda jizzakilik, gumon ko‘rsatkichi xulq-atvorning nizoli vaziyatlardan qochish usuli bilan teskari korrelyatsiyaga ega ($P<0.05$). Jismoniy agressiya, g‘azab ko‘rsatkichlari o‘z-o‘ziga noadekvat baho berish darajasi bilan ijobiy korrelyatsiyani namoyon etgan ($P<0.01$).

Pedagogik jamoada ixtilof va nizolarning profilaktik tadbirlarini tashkil qilishda yoshlarga hayotiy qadriyatlarining o‘ziga xos jihatlari ularda turli kayfiyatlar shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillardan ekanligi aniqlandi. Shuningdek, ontogenezda o‘smirlarda qadriyatlar shakllanayotgan kezda inqirozli vaziyatlarga tushish, tajribali insonlar tomonidan yordam qo‘lining o‘z vaqtida cho‘zilmasligi nizoli va ixtilofli oqibatlarga olib kelishi ehtimolini kuchaytirishi aniqlandi. Shu sababli inqiroz davrida o‘quvchilarga maslahat beradigan, ma’naviy qo‘llaydigan ota-onasi, o‘quvvatlar bo‘lishi lozim.

Ijtimoiy va madaniy stereotiplarning buzilishi, turli qiyinchiliklar ham inson qadriyatlar tizimining deformatsiyalashuviga olib keladi, bu esa o‘z navbatida, psixologik salomatlikka putur etishiga sabab bo‘ladi hamda o‘quvchilar jamoasida turli

nizoli va ixtilofli vaziyatlarni

keltirib chiqarishi mumkin. Bu jihatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

shaxs psixikasi, madaniy rivojidagi nuqsonlar va buzilishlar (psixologik infantilizm, yangi ma'lumotlarni qabul qilganda tasavvurda ular bilan bog'liq bo'lgan stereotiplarni o'zgartira olmaslik (kognitiv rigidlik), ong faoliyati va o'zini o'zi anglashning irratsionalligi va h.k.);

ijtimoiy va shaxsiy darajadagi tushkunlik (apatiya, mistikaga berilish, ijtimoiy-psixologik inqiroz, tanazzul);

shaxs o'zini o'zi anglashi va takomillashtirushi jarayonlarining buzilishi.

Pedagogik jamoada nizo va ixtiloflar profilaktikasida eng asosiy e'tibor ta'lim sub'ektlarida tanqidiy tafakkur va refleksiyani rivojlantirish, assertiv xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirishga qaratiladi.

Tanqidiy fikrlash barcha narsa, voqeа-hodisa yoki shaxslarni tanqid qilaverishni anglatmaydi. "Taqnidiy tafakkur deganda, eng avvalo ta'lim sub'ektlarining voqeа-hodisalarni tahlil qilishga, to'g'ri baholashga harakat qilish, hamma narsalarga ham ko'r-ko'rona ishonavermaslik, o'z xatti- harakatlariga adekvat baho berishi, xatolarini anglash va ularni to'g'rilash, boshqalarning taklif va mulohazalarini tanqidiy qabul qilishga bo'lgan intilishi tushuniladi" [99].

Refleksiya ma'nosida shaxsning o'zi, faoliyati va xulqi, ichki dunyosi, psixik xususiyatlari va holatini anglashga bo'lgan intilishi, o'zini boshqa inson o'rniga qo'yib ko'rishi, xayolan vaziyatni uning foydasiga hal qilib ko'rishi singari jihatlar nazarda tutiladi [168]. Zero, holatni tahlil qilib ko'rish, o'zi va o'zgalar (hamkorlar, hamsuhbatlar)ning manfaatlarini tushunish insonga konstruktiv harakat qilish, bir so'z bilan aytganda, assertiv bo'lish imkonini beradi.

Assertivlik – shaxs sifati, xarakter xususiyati bo'lib, insonning o'zini o'zi namoyon qilishida ko'zga tashlanadi.[44] Bunday shaxs boshqalarning talablarini qo'rquv, hadiksirash, ishonchsizlik, zo'riqish kabi holatlarni his etmagan holda qabul qiladi, o'zgalarning manfaatlariga zarar etkazmaydi, ularning huquqlarini va shu bilan birga o'z manfaatlarini ham hurmat qiladi. U kishilarni ishontirishi, ularga yordam berishi yoki xushmuomalalik bilan takliflarni rad qilishi, muammolarni hal qilishning

eng maqbul yo‘lini topishi mumkin. Demak, ta’lim sub’ektlari orasida nizo va ixtiloflarning oldini olishda ularda assertiv xulqni rivojlantirish muhimdir. Assertiv shaxsda insonlarga nisbatan ijobiy munosabat va o‘zini o‘zi baholashning adekvat, xolisona darajasi yuzaga kelgan bo‘ladi.

Biroq, ta’kidlash lozimki, ko‘rsatib o‘tilgan xususiyatlar ta’lim, dars jarayonida emas, ko‘proq insonning hayot tajribasi va faoliyati natijasida shakllantiriladi.

Dunyoqarash tarbiyasi imkoniyatlarini rivojlantirishimiz lozim. Masalan, “Ogohlik” iborasining ma’nolarini bugungi zamon sharoitidan kelib chiqib, ancha keng miqyosda tushunishimizga to‘g‘ri keladi. Ya’ni bugungi ogohlik xalqimiz, ayniqsa, yoshlar dilini, ruhiyatini, aql-idroki va umuman ma’naviyatini diniy-aqidaparastlik, jaholatparastliklar xataridan tashqari, ayni paytda, jahonda yuz berayotgan siyosiy, mafkuraviy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy va estetik manfaatlar yo‘nalishidagi oshkora va xufya kurashlarning keng miqyosdagi xatarli jihatlaridan, jumladan, “ommaviy madaniyat”ning emiruvchi ta’siridan muhofaza qilishni ham o‘z ichiga oladi.

“Bag‘rikenglikning rivojlanmaganligi, etarli darajada mafkuraviy immunitet, axborot iste’moli madaniyatiga ega bo‘lmaslik, ayniqsa, yoshlar uchun xavfli bo‘lib, ulardagi yosh davrlariga doir qiziqqonlik, barcha muammolarni darhol hal qilishga intilish mazkur ijtimoiy qatlamga g‘oyat ehtiyyotkoronalik bilan munosabatda bo‘lishni taqozo etadi” [9]. Zero, O‘zbekiston Respublikasi aholisining ancha katta qismi yoshlardan iborat bo‘lib, bu doimo davlatimiz va hukumat nazoratidagi dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelgan.

Butun dunyoda yoshlar, o‘smlar orasida jinoyatchilik holatlarining kuchayayotgani, ularning turli aksilijtimoiy tashkilotlar, oqimlar, g‘oyalar ta’siriga tushayotgani ijtimoiy-gumanitar fanlar sohalari mutaxassislari, olimlar, ilmiy jamoatchilik zimmasiga bu boradagi muammolarning ilmiy echimlarini topish, mexanizmlarini ishlab chiqish vazifasini yuklamoqda.

Hozirgi vaqtda ayrim yaqin xorij mamlakatlari olimlarining nizo va ziddiyatlarga qarshi choralar ko‘rishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarida etarli darajada tahliliy asosga ega bo‘lmagan xulosalar keltiriladi. Ularda ko‘proq mazkur hodisani tazyiq ishlatish vositasida bartaraf etishga ko‘proq urg‘u beriladi. “Bu o‘sha

jamiyatlar a'zolarining aksariyat qismi ongida ushbu usul orqali kurashishga nisbatan anglanmagan moyillikning mavjudligi bilan izohlansa kerak”[12].

Pedagogik jamoada nizo va ixtiloflarning oldini olishda ijtimoiy tajribani reproduktiv ravishda o‘zlashtirish va ijodiy mahsuldarlikka erishish malakalarini egallashda muhitning ijodiy xarakterga ega ekanligi, shaxslararo va xizmat munosabatlarining maqsadga muvofiq tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, nizo va ixtiloflarning oldini olishda madaniy shart- sharoitlar, ijodiy muhit, zaruriy individual-psixologik sifatlar mavjudligi, tegishli darajada moddiy ta'minlanganlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik jamoada ixtilof va nizolarning oldini olishga yo‘naltirilgan tajriba-tadqiqot ishlarini o‘tkazish mobaynida ta’lim sub’ektlari haqida muammo yuzasidan tegishli ma’lumotlarni to‘plash, yig‘ish va ularni bir tizimga solish, xulosalar chiqarish, ularni umumlashtirish, ma’lumotlar ishonchlilagini aniqlash taqozo etildi.

Tajriba guruhi sinaluvchilarida ixtilof va nizolarni barqarorlashtirish bo‘yicha ko‘rsatkichlarning korrelyatsion bog‘liqligi quyida 3.4-jadvalda aks ettirilgan.

Pedagogik jamoada ixtilof va nizolarni barqarorlashtirishda pedantik tip sub’ekti hamda o‘z-o‘zini noadekvat baholash ko‘rsatkichi bilan korrelyatsion

3.3-jadval.

Tajriba guruhi sinaluvchilarida nizolarni barqarorlashtirishda korrelyatsion bog‘liq

Agressiya	Boshqa ko‘rsatkichlar
Jizzakilik	Pedantik turi, o‘z-o‘zini noadekvat baholash
Qaxr-g‘azab	O‘z-o‘zini noadekvat baholash
O‘ta manmanlik	Namoyishkorona turi, o‘z-o‘zini noadekvat baholash
Gumon	Bezovtali turi, o‘z-o‘zini noadekvat baholash
Verbal	Rigid tiri

bog‘liqlikka ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin (P,0.05). G‘azab ko‘rinishidagi

agressiyani ifodalaydigan sinaluvchilarga o‘z-o‘zini ($R<0,05$), namoyishkoronalik alomatlari mavjud sinaluvchilar jizzakilik, o‘z-o‘zini noadekvat baholash xislati xos ekanJadvalda ifodalanganidek, pedagogik jamoada nizo va ixtiloflarning oldini olish, nizoli vaziyatlarni tahlil qilish va uni boshqarishda vaziyat ishtirokchilarining xulq-atvor modelini hisobga olish lozim bo‘ladi. K.Tomas va R.Killmen tomonidan taklif etilgan metodika aynan nizoli vaziyatlarda shaxs xulq-atvor usullarini o‘rganishda keng qo‘llaniladi. Nizoli vaziyatlarda sub’ektlarning o‘zaro samarali muloqotga kirishlari va xulq-atvor o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik mavjud. Ma’lumki, bahs, munozara jarayonida taraflardan birining ortiqcha emotsiyaga berilishi vaziyatning keskin tus olishiga sabab bo‘lishi mumkin. Hissiyotga berilish tomonlarning o‘zaro bir-birlarini tushunishlariga to‘siq bo‘ladi. Shuning uchun nizoli vaziyatlarda emotsiyalarni nazorat qila olish uni samarali bartaraf etishning asosiy shartlaridan hisoblanadi.

Nizoli vaziyatlarda emotsiyalarni nazorat qilish ko‘nikmalarini, shuningdek, konstruktiv xulq-atvorni shakllantirishda autotrening va ijtimoiy-psixologik treningning o‘rni katta. R.I.Rudenko, I.D.Ladanov, Ye.Orlov, A.P.Panfilova, A.V.Mironov[59] kabi bir qator mutaxassislar nizoli vaziyatlarda samarali muloqot va maqbul xulq-atvorni shakllantirishga qaratilgan quyidagi trening mashg‘ulotlarini taklif etadi:

1. Empatiyani rivojlantirish.
2. Konstruktiv xulq-atvorni shakllantirish.
3. “Keskin stressli vaziyatlarda birinchi yordam” autotrening mashg‘uloti.
4. Nizoli vaziyatlarda samarali muloqot qurish texnologiyalari va h.k.

Biz tadqiqot doirasida agressiv xulq-atvorga ega bo‘lgan ta’lim sub’ektlariga nisbatan ko‘rsatiladigan pedagogik-psixologik yordam o‘zida ijtimoiy-profilaktik, psixokorreksion va reabilitatsion chora-tadbirlarni qamrab olishi lozimligining guvohi bo‘ldik. Bunda psixologik himoya mexanizmlari, shaxsiy faollikning ijobiy jihatlarini rivojlantirish, turli ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlov, nizolarni hal etishning agressiv bo‘limgan usullarini shakllantirishga qaratilganligiga e’tibor qaratdik.

Agressiv xulq-atvorni profilaktikasi bo‘yicha amaliyatda qabul qilingan, quyidagi an’anaviy metodologik prinsiplarga asoslandik:

Kompleks va tizimli yondashuv B.G.Ananov [24]. Ushbu yondashuv muammoni yuqori darajadagi samaradorlik bilan hal etish imkoniyatini berdi. Biroq, ota-onal, pedagog va psixologning o‘zaro hamkorligi ta’minlanmas ekan, “xavfli” guruhga kiruvchi yoshlar bilan olib boriladigan profilaktik ishlar kutilgan natijani bermasligini ham aniqladik.

Agressiv harakatlar sodir etishga moyil bo‘lgan o‘quvchilarni tadqiq etishda, nizoli vaziyatlarda namoyon bo‘luvchi xulq-atvorni asosiy uchta shaklga ajratib o‘rganuvchi olimlar (S.M.Emelyanov, A.Ya.Ansupov)ning qarashlariga asoslandik. Profilaktik va psixokorreksion tadbirlar tajriba guruhi sifatida ajratib olingan yoshlar o‘rtasida 2018-2021 yillar davomida o‘tkazildi.(3.4-jadval)

3.4-jadval

Nº	Psixokorreksion chora-tadbirlar	Maqsad	Shakl va Metodlar
1	Guruhiy va individual ta’sir; Ota-onalar ishtirokida maxsus pedagogik treninglar o‘tkazish	Psixikaning kognitiv, emotsional va xulq-atvor bilan bog‘liq jihatlarini rivojlantirish	“Kreativlik”, mavzusida trening
2	Sinaluvchilarni emotsional jihatdan qo‘llab-quvvatlash	kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishga	“Shaxs xususiyatlarini kamol toptirish” mavzusida trening

3	ishonch bildirish orqali emotsional ta'sir	Psixikaning emotsional va xulq-atvor bilan bog'liq jihatlarini rivojlantirish	"Senzitivlik", mavzusida trening
---	--	---	----------------------------------

Shuningdek, tadqiqot doirasida pedagogik jamoada nizo va ixtiloflarning oldini olishga yo'naltirilgan profilaktik tadbir ishlab chiqildi.(3.5-jadval)

3.5-jadval

Pedagogik jamoada ixtilof va nizolar profilaktikasi dasturi

Nizo va ixtiloflarni keltirib chiqaruvchi omillar	Ko'rsatkichlar	Bartaraf etish yo'llari
Ijtimoiy-pedagogik		
Oiladagi tarbiya muhiti	To'liqsiz oila, nomaqbul oilaviy munosabatlar	Pedagogik maslaxat Psixologik konsultatsiya.
Oiladagi tarbiya usuli	Gipoproteksiya	Pedagogik maslaxat Psixologik konsultatsiya. Ota-onalar ishtirokidagi treninglar.
Ota-onsa va farzand o'rtasidagi o'zaro munosabat	O'zaro nizo, tushummovchiliklar	Oilaviy psixologik konsultatsiya. Ota-onalar ishtirokidagi treninglar.
Ota-onsa va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabat	Nizoli vaziyatlar	Pedagoglar ishtirokida amaliy mashg'ulot, seminarlar tashkil etish.
Bo'sh vaqt	Kompyuter o'yinlari	Senzitivlik, kreativlik Treninglari
Ijtimoiy-psixologik adaptatsiya	Sust	Ijtimoiy-pedagogik trening
Individual-psixologik ko'rsatkichlar		

Xarakter aksentuatsiyasi	Qo‘zg‘aluvchan	Psixokorreksion chora-tadbirlar, zaruriy shaxs xususiyatlarini rivojlantirishga qaratilgan psixotrening
O‘z-o‘ziga baho	Yuqori darajada	Individual-psixologik Korreksiya
Aybdorlik hissi	Past darajada	Shaxs xususiyatlarini rivojlantirishga qaratilgan psixotrening
Nizoli vaziyatlarda xulq-atvor turi	Raqobat	Ijtimoiy-psixologik trening

Pedagogik profilaktika davomida turli metodlar, xususan seminar, trening, munozara, aqliy hujum, suhbat, ma’ruza, rolli o‘yinlardan foydalandik. Albatta, pedagogik profilaktika o‘tkazish mobaynida ta’lim sub’ektlarining ixtiyoriy va ochiqlik bilan ishtirok etishlariga alohida ahamiyat qaratildi.

Shuningdek, tadqiqot doirasida pedagogik jamoada nizo va ixtiloflarning oldini olishga yo‘naltirilgan profilaktik tadbir ishlab chiqildi.

Pedagogik profilaktika davomida turli metodlar, xususan seminar, trening, munozara, aqliy hujum, suhbat, ma’ruza, rolli o‘yinlardan foydalandik. Albatta, pedagogik profilaktika o‘tkazish mobaynida ta’lim sub’ektlarining ixtiyoriy va ochiqlik bilan ishtirok etishlariga alohida ahamiyat qaratildi.

Pedagogik profilaktika ikki xil yo‘nalishda tashkillashtirildi:

1. Ijtimoiy-pedagogik va ijtimoiy-psixologik omillar profilaktikasi: kommunikativ qobiliyatlarni shakllantirish, yashirin shaxsiy imkoniyatlarni ochishga qaratilgan trening mashg‘ulotlari.

2. Shaxs xususiyatlarini rivojlantirish: hissiy-emotsional, kognitiv, xulqiy jihatlar.

Pedagogik jamoada nizo va ixtiloflarning oldini olish profilaktikasi individual va guruhiy mashg‘ulotlarda samarali, faol metodlarni qo‘llashga bevosita bog‘liq bo‘ldi. U bir-biriga o‘zaro bog‘liq bo‘lgan shaxs xususiyatlari, kommunikativ ko‘nikmalar, etakchilik sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan treninglardan iborat.

Bunda tadqiqot o‘tkazish jarayonida ishlab chiqilgan shaxs individual xaritasidan foydalanildi.

Ijtimoiy-pedagogik treningning vazifasi ishtirokchilarga o‘z imkoniyatlarini mustaqil ravishda namoyon qilishda yordamlashish hisoblandi.

Ijtimoiy-pedagogik treningning maqsadi:

- ijtimoiy-pedagogik bilim, ko‘nikmalarini o‘zlashtirish orqali jamoada sodir bo‘ladigan nizoli vaziyatlarning oldini olish;
- o‘zi va boshqalar shaxsiga to‘g‘ri baho berish qobiliyatini rivojlantirish;
- shaxs xususiyatlari va qobiliyatlarini tashxis qilish va korreksiyalash, o‘zini to‘liq va adekvat namoyish qilishdagi to‘siqlarni bartaraf etish;
- shaxslararo munosabatlarning maqbul usullarini o‘rganish, o‘zlashtirish va h.k.

Trening mashg‘ulotlariga destruktiv g‘oyalar ta’siriga moyillik ehtimoli mavjud bo‘lgan 187 nafar umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-9- sinf o‘quvchilari jalb etildi. Bunda asosan ota-onasi va pedagoglar bilan tez- tez nizoga borib turadigan, shaxslararo munosabat, samarali muloqot olib borishda muammolarga tez-tez duch keladigan sinaluvchilar tanlab olindi. Ijtimoiy-pedagogik trening 6 oy davomida haftasiga ikki marotaba, bir soatdan tashkil etildi. Albatta, bunda ta’lim muassalari psixologlari ham yaqindan yordam berdilar. Treningda guruhlardagi ishtirokchilar soni 8-10 nafar bo‘lishiga alohida ahamiyat qaratildi.

Shuningdek, ayrim respondentlar bilan birgalikda psixolog yordamida individual pedagogik maslahatlar ham olib borildi.

1. Kreativlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan trening.

Trening vazifasi – kreativlikni namoyon qilishdagi to‘siqlarni to‘g‘ri anglash va ularni engib o‘tish, kreativlik jarayonlarni boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

2. Senzitivlikni rivojlantirishga qaratilgan trening.

Trening vazifasi – ijtimoiy muhit, boshqa shaxs va eng muhim o‘z-o‘zini to‘g‘ri idrok qila olish, ularga nisbatan sezgirlik hislarini rivojlantirish.

Senzitivlikning rivojlanganligi voqeа-hodisalar, atrofdagilar, ularning

xatti-harakatlariga to‘g‘ri baho berish, to‘g‘ri qaror qabul qilish, oldindan rejalashtirish imkoniyatini oshiradi.

Maqsadi:

Kuzatuvchanlikni rivojlantirish. Bu boshqa shaxs va guruhlardan kelayotgan alomat, signallarni to‘g‘ri tahlil etish, eslab qolishni ta’minlaydi.

Boshqalar xulq-atvorini oldindan ko‘ra olish qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish.

1. Treninglar davomida ishtirokchilar kreativlik, uning namoyon bo‘lish shakllari, shuningdek ijodiy imkoniyatlarini namoyon etishda uchraydigan turli to‘siqlar haqida ma’lumotlarga ham ega bo‘ldilar.

2. Trening maqsadi konstruktiv, nostandard tafakkur, xulq-atvorni rivojlantirish, o‘z imkoniyati, tajribalarini to‘g‘ri anglash, baho berish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

III. Kommunikativlikni rivojlantirishga qaratilgan trening.

Ushbu treningning asosiy vazifasi boshqalarni eshita olish, ma’lumotlarni aniq uzatish, noverbal muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, muloqot jarayonida kuzatuvchanlik, o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish hisoblanadi.

Trening maqsadi muloqot, turli toifadagi shaxslar bilan munosabat o‘rnatish, o‘zini anglash, boshqalar istak va xohishlari, hissiyotlarini yaxshi tushunish, o‘ziga nisbatan ishonchsizlik, tortinchoqlik, qo‘rqinch, agressivlik xislarini bartaraf etish, kayfiyat va xulq-atvorini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat.

Ijtimoiy-pedagogik treningning ikkinchi yo‘nalishida asosiy e’tibor pedagog va ota-onalarga qaratiladi. Pedagoglar bilan “Nizo va ixtiloflarga moyil o‘quvchilari xulq-atvorining o‘ziga xos jihatlari” mavzusi doirasida seminar va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazilib, unda asosiy e’tibor quyidagilarga qaratildi:

1. Oilaviy muhit va uning o‘quvchi tarbiyasiga ta’siri.
2. O‘quvchi, pedagog, ota-onalar bilan profilaktik mashg‘ulotlar tashkil etish.

Agressiv xulq-atvor profilaktikasida pedagog, psixologlarning o‘rni.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, tadqiqotga jalb etilgan ta’lim muassalari

ma'muriyati ushbu jarayonga katta qiziqish bilan ijobiy munosabatda bo'lib, psixodiagnostik va profilaktik tadbirlarni tashkil etish masalalarida o'zlarining amaliy yordamini ayamadilar.

Pedagogik jamoada nizo va ixtiloflar profilaktikasini tashkil etishdagi eng murakkab jihatlardan biri – bu ota-onalarni ushbu jarayonga jalb etish hisoblandi. Buning bir qator ob'ektiv va sub'ektiv omillari mavjud. Ota-onalar bilan o'tkaziladigan trening mashg'ulotlarida quyidagilarga ahamiyat qaratildi:

1. Oiladagi ijtimoiy-psixologik muhit va uning o'quvchi shaxsi rivojlanishidagi ahamiyati.
2. Er-xotin va farzandlar o'rtasidagi o'zaro munosabat.
3. Ota-onalarga psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish.
4. Farzandlar bilan muomala jarayonini qiyinlashtiruvchi ustankovkalar.
5. Farzand hayotidagi qiyinchilik va muammolar borasida ota-onalar bilan ish olib borish.
6. Ota-onaning farzandiga nisbatan pozitsiyasi, munosabatini korreksiyalash va h.k.

Ishlab chiqilgan dasturlarning qanchalik samadorligini aniqlash maqsadida tajriba guruhidagi sinaluvchilarda treningacha va treningdan keyingi diagnostika natijalarining qiyosiy tahlili o'tkazildi. Natijalar tahlili pedagogik jamoada nizo va ixtiloflar profilaktikasi dasturining samadorligini isbotladi. Tajriba hamda nazorat guruhidagi sinaluvchilarda agressiya ko'rsatkichlari nisbatan farq qilinishi aniqlandi. Negativizm hamda jizzakilik ko'rsatkichlarini hisobga olmaganda, ko'rsatkichlar o'rtasida ishonchli farq o'zini namoyon etdi.

Pedagogik jamoada nizo va ixtiloflar profilaktikasini o'tkazish jarayonida ta'lim muassasi pedagog va psixologlari ham taklif etildi. Ular mashg'ulotlar davomida o'quvchilarining yangi qirralarini payqaganliklari, ularni yanada yaxshiroq tushuna boshlaganliklari, o'zlaridagi ichki qarama-qarshilik, xavotirlanishlar nisbatan pasayganligini ta'kidladilar. Shuningdek, ta'lim muassasi ma'muriyati va pedagoglari bilan suhbatlar o'tkazildi. Ushbu suhbatlarida ular treninglar, olib borilgan psixologik

konsultatsiyalar borasidagi fikrlarini bildirib o‘tdilar.

Ma’lum vaqt o‘tgach, ta’lim muassasalari rahbariyati profilaktik chora- tadbirlar natijasida shaxslararo nizoli vaziyatlarning sezilarli darajada pasayganligi (9 foiz), o‘quvchilar jamoasida o‘zaro do‘stona muhitning qaror topganligi (12 foiz), tartib-intizomning ijobjiy tarafga o‘zgarganligi (14foiz), o‘qituvchilarda o‘quvchilarga nisbatan shikoyatlarning kamayganligini (17 foiz) alohida ta’kidlab o‘tdilar.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, yoshlar ijtimoiylashuvi jarayonida ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning buzilishi singari salbiy tendensiyalar, muhim hayotiy ahamiyatga ega tushunchalarning noto‘g‘ri idrok etilishi natijasida vujudga keladigan stixiyali ijtimoiylashuv, o‘spirinlarning o‘zini namoyon qilishga intilishi bilan bog‘liq ravishda shakllanadigan nizoli vaziyatlar, deviant, delikvent xulq-atvor rivojlanishi uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin.


3.2-§. Tajriba-sinov tashkil etilishi va samaradorlik darajasi

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, pedagogik jamoada ixtilof va nizolarning kelib chiqishi ijtimoiy muhit bilan mustahkam aloqadorlikka ega.

Tadqiqot ishi umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilari, ularning ota-onalari, pedagoglar o‘rtasida o‘tkazildi. Tadqiqotimizda pedagogik jamoada ixtilof va nizolarning kelib chiqishini oldini olishga yo‘naltirilgan tajribalar uchun ikki xil variantda ijtimoiy-psixologik so‘rovnama ishlab chiqildi. Uning birinchi varianti (1-ilova) o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, yoshlarning o‘zi va tengdoshlari, kattalar, axloqiy odob qonunlariga bo‘lgan munosabat, qonun va unga rioya qilish haqidagi bilimlari, yoshlarda mafkuraviy immunitetning shakllanishidagi asosiy omillarni o‘rganishga qaratilgan. Ushbu so‘rovnama 18 ta savoldan iborat bo‘lib, ochiq va yopiq shaklda taklif qilindi. (3.2.1-rasm)

Ijtimoiy-psixologik so‘rovnomaning ikkinchi varianti (2-ilova) o‘qituvchilarga mo‘ljallangan bo‘lib, unda 26 ta savol mavjud. So‘rovnama o‘qituvchilarning nizolarga barham berish, yoshlarning turli g‘oyalari ta’siriga berilishida asosiy omillar,

mafkuraviy bo‘shliqni to‘ldirishda ta’lim va tarbiyaviy ish, uning samarali shakllari borasidagi fikr-mulohazalarini aniqlashga qaratilgan.




3.2.1-rasm.Tadqiqotga jalb etilgan respondentlar haqida ma’lumot

Yoshlar uchun mo‘ljallangan so‘rovnoma da 67.7 % (209 nafar) o‘g‘il va 32.3 % (99 nafar) qiz (2-rasm) bolalar ishtirok etib, ularning o‘rtacha yosh ko‘rsatkichi 17 yoshni tashkil etadi. Sinaluvchilarning 64,5 % qishloq hududlarda, 35,5 % shahar, tuman markazida istiqomat qiladilar.

Nazorat guruhidagi sinaluvchilar (n=246)ning 53.2 % o‘zaro hurmat, tushunish munosabati qaror topgan oilada voyaga etayotganligi, 35.5 % sinaluvchilarning oilasidagi tarbiyaviy jarayon giperproteksiya, ya’ni ota-onan farzandning har bir qadamini nazorat qiluvchi, unga nisbatan ko‘p talablar qo‘yishga asoslangan muhitni ifodalayotgani ma’lum bo‘lgan. 7.2 % sinaluvchining esa oilasida gipoproteksiya hukmron, ya’ni ota-onan farzand, uning muammolari bilan umuman qiziqmaydi.

Tajriba guruhidagi sinaluvchilar (n=62) oilasida esa (80 %) gipoproteksiya hukmron ($p<0.01$).

Oiladagi tarbiyaviy muhit




3.2.2- rasm.Oiladagi tarbiyaviy muhit

Sinaluvchilarning 54.8 % 3 va undan ko‘p farzandli oilada, 55.2 % 1-2 farzandli oilada kamol topayotganligi ma’lum bo‘ldi.

Nazorat guruhidagi sinaluvchilarning 98 % da o‘zlashtirish darajasi 4-5 bahoni, tajriba guruhidagi sinaluvchilarning 75.2 % da o‘zlashtirish qoniqarli bahoni tashkil etdi.

Nazorat guruhidagi sinaluvchilarning 90.3 %ning ota-onasi aniq bir turdag'i mehnat faoliyati bilan shug‘ullanadi, tajriba guruhidagi sinaluvchilarning 55.7 ($r<0.01$) %ning ota-onasidan biri doimiy ish o‘rniga ega emas (3.2.2- rasm).

Синалувчилар ота-онасининг аниқ турдаги меҳнат фаолияти билан шуғулланиши



3.2.3- rasm. Sinaluvchilar ota-onasining aniq turdag mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishi

Har ikki guruhdagi sinaluvchilar ta’lim muassasini tamomlagach, o‘qishni
oliy ta’lim muassasida davom ettirishni (90.4%, 75%, mos ravishda) boshqalari esa
mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishni rejalashtirganlar.

**Biz tajribaviy mashg‘ulotlarda quyidagi metodika bilan bolalarga murojaat
etdik:**

NIZOLI VAZIYATLARDA O‘QUVCHILARGA BILDIRILADIGAN MUNOSABAT DIAGNOSTIKASI

Ma’lumki, ota-onalar va pedagoglarning bolalarga bo‘lgan munosabatlari
so‘rovnomasisi chuqur va jiddiy ish natijasi bo‘lib, psixologiyaning yirik
namoyandalari L.S. Vigotskiy, S.L. Rubinshteyn, L.I. Bojovichlar tomonidan ishlab
chiqilgan me-todologik yondashuvga, shuningdek, K.Rodgers, A.Masloulearning
insonparvarlik psixologiya tamoyillariga va V. Franklning ekzistensial psixologiyasiga
asoslangan. Test-so‘rovnomani uslubiy hal qilish F. Ya. Varga va V. V. Stolin
tomonidan ishlab chiqilgan ota-onalar munosabatlari mashhur metodikasining
(OOMS) aso-siy

vaziyatlari bilan aniqlangan. Biztomondan ishlab chiqilgan so‘rovnomaning ishonchlilagini aniqlash va standartlashtirish maqsadida 20 yil mobaynida maktablar, bolalar bog‘chalari va xonadonlarda, umuman olganda, respublika bo‘yicha 1500 dan ortiq pedagog va ota-onalarda sinaldi. So‘rovnama tarbiyachi- lar, o‘qituvchilar va ota-onalarning bolalarga bo‘lgan munosabatlari xususiyat- larini aniqlashga qaratilgan psixodiagnostik qurol sifatida xizmat qiladi. U nafaqat kattalarning bolaga bo‘lgan munosabat xarakterini, balki bolalar emo-sional sohasi va bilish faoliyatidagi destruktiv o‘zgarishlar, shuningdek, bo-laning tengdoshlari, kattalar va atrof-olam bilan shaxslararo munosabatla-ri buzilishi sabablarini aniqlashga imkon beradi. Kattalarning bolaga nisbatan aniqlangan munosabat xususiyatlari pedagog va ota-ona muhtoj bo‘lgan kerak-li psixologik qo‘llab-quvvatlanishni namoyish qilishga yordam beradi. Asosiy g‘oya shundaki, bola shaxsidagi ijobiy o‘zgarishlar, uning asab- psixik holati, bi-lish imkoniyatlari, insonlar bilan o‘zaro faoliyat uslubi, qimmatli ehtiyojlar yo‘nalishi, birinchi navbatda, bola tarbiyasi borasida mas’uliyatni o‘z zimmasiga olgan kattalar shaxsi bilan aniqlanadi. Ko‘p sonli tadqiqotlar, shuningdek, bizni natijalarimiz va oilalar bilan ishlash tajribamiz shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchining bilish imkoniyatlari poydevori bola hayot faoliyatining umu-miy muvaffaqiyati bo‘lib, uning konstruktiv asab-psixik holati va emotsi-o-nal qulayligi hisoblanadi. Shu tariqa, kattalarning munosabat xarakteri bola shaxsi rivojlanishining tayanch xususiyatlarini aniqlaydi.

OTA-ONALAR VA PEDAGOGLARNING OLALARGA BO‘LGAN MUNOSABATLARI SO‘ROVNOMASI

Diagnostika maqsadi: o‘quvchilar o‘zaro munosabatlaridagi nostandart vanizoli pedagogik, hayotiy vaziyatlarda kattalar holat ta’siri ostida tez javob beradilar. Aynan shu tez ta’sir ko‘rsatish, hayotda << shaxsdan >> deb nomlanuvchi holatni yuzaga keltiradi va kattalarning bolaga nisbatan munosabatini hulq-atvor (bilim va his-tuyg‘u sifatida emas) sifatida aniqlaydi. Kattalar va bolalar o‘zaro munosabatlarini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlarning katta hajmi shuni ko‘rsatadiki, samarali pedagogik ta’sir ko‘rsatishning asosiy sharti bolani qanday bo‘lsa, shundayligicha emotsiunal ijobiy qabul qilish hisoblanadi.

Diagnostika nimaga qaratilgan? Tavsiya etilayotgan metodika kattalarning bolalarga bo‘lgan munosabatining tarkibiy qismi bo‘lgan integral, emotsional, kognitiv va hulq-atvor xususiyatlarini aniqlash va o‘rganish borasida muhim qurol bo‘lib hisoblanadi. Metodika bo‘yicha test natijalari psixologga nafaqat kattalarni bolalar bilan o‘zaro munosabatining buzilishi sabablari tavsifini, balki pedagog yoki ota-onu uchun zarur psixologik rag‘bat va tarbiya mahoratining rivojlanishini aniqlashni ta’minlaydi.

Diagnostikani individual va guruhiy ishlarda olib borish mumkin.

So‘rovnomaning ikkita varianti tavsiya etilgan bo‘lib, birinchisi ota-onalar, ikkinchisi xalq ta’limi xodimlari uchun mo‘ljallangan. Har ikki variantning kaliti va olingan natijalar tahlili bir-biriga mos keladi.

Kattalarning bolaga nisbatan kasbiy munosabati bolalar bilan munosabat-ning nafaqat bilim va ko‘nikmalari, balki bolaga nisbatan munosabatning hulq-atvor, kasbiy stereotiplarini aniqlovchi turli xil his-tuyg‘ular tizimi sifatida ham tushuniladi..

Diagnostik so‘rovnama to‘rtta shkaladan iborat:

- I. << **Qabul qilingan-xo‘rlangan** >>. Bu shkala kattalarni bolalarga emotsional integral munosabatida namoyon bo‘ladi.
- II. << **Kooperatsiya** >> - kattalarni bolalarga kasbiy munosabatining ijtimoiy xohlovchi obrazi.
- III. << **Avtoritar giperijtimoiylashuv** >> - bola hulqini nazorat qilishi yo‘nalishi va shaklining ko‘rinishi.
- IV. << **Kichik omadsiz** >>. Kattalar bolalarni idrok qilishida va tushunish xususiyatlarida namoyon bo‘lishi.

Test-so‘rovnomasini o‘tkazish uchun ko‘rsatma

«Iltimos, har bir ta’kidni diqqat bilan o‘qib chiqing. Agarda ta’kidga rozi bo‘l-sangiz, javoblar varaqasida «+», agarda norozi bo‘lsangiz «-> belgisini qo‘ying. Chin dildan javob berishga harakat qiling. To‘g‘ri yoki noto‘g‘ri javoblar bo‘lmaydi. Biz Sizlar bilan yana bir marta bolalarni tarbiyalash murakkab ekanligini, unda har xil qiyinchiliklar borligini tahlil qilib ko‘rishimiz kerak. Bizning Sizlar bilan

maqsadimiz bolalarga sog‘lom va baxtli bo‘lishiga yordam berish.

«Pedagoglarni bolalarga munosabati» test so‘rovnomasi

(«So‘rovnama matni-1» kartochkasi)

1. O‘ylaymanki, tarbiyachilar va o‘qituvchilar bola nimani o‘ylayotganini bilishi zarur.
2. Odatda, pedagoglar bola shaxsiga bo‘lgan hurmatni o‘z harakatlarida namoyon eta olmaydilar.
3. Pedagoglar ko‘pincha o‘z farzandlaridan g‘azablanadilar.
4. Ba’zida pedagoglar farzandlariga rahbar-xizmatchi munosabatida bo‘ladilar.
5. Ba’zida pedagoglar o‘z guruhiga yoki bolalarining ahvoliga achinadilar.
6. Ba’zida mening tarbiyalanuvchilarim mening achchig‘imni chiqarish uchun o‘zini atayin yomon tutayotganga o‘xshaydi.
7. Mening tarbiyalanuvchilarim hamma yomon narsalarni «gubka» singari shimb olayotganga o‘xshaydi.
8. Bolani qattiq quyishqonda ushlash kerak, shundagina undan vijdonli odam chiqadi.
9. Sinfdagи tinchlik buzilsa ham tarbiyalanuvchilarning men bilan emotsional ochiqligi menga yoqadi.
10. Pedagogik kengashda boshqa bolalarni maqtasalar, men o‘zimni noqulay his qilaman, sababi mening tarbiyalanuvchilarim men xohlaganchalik aqli va qobiliyatli emas.
11. Tarbiyalanuvchilarim o‘sayotganini va ulg‘ayayotganidan achinaman, ularning kich-kinaligini entikib eslayman.
12. Tarbiyalanuvchilarim yoki sevimli o‘quvchim hayotda men erisha olmagan narsalarga erishishini orzu qilaman.
13. Maktab qarorlar qabul qilishda bolaning fikrini ham inobatga olishi zarur.
14. Pedagog bolalar bilan janjallahib qolganda, ko‘pincha uning haqligini tan olaman.
15. Bolalar pedagoglar ham xato qilishlari mumkinligini barvaqt bilib oladilar.
16. Ko‘pchilik pedagog va o‘qituvchilar tarbiyalanuvchilarning did va

xohishlarini agar ular o‘zlarinikiga to‘g‘ri kelmasa, inobatga olmaydilar.

17. Bolalarning injikyaiklarini asosiy sababi dangasalik va o‘jarlik deb bilaman.

18. Sinfdan tashqari tadbirlarni o‘tkazish sinfda ishlashga qaraganda murakkabroq.

19. Ba’zida menga bolalar hech bir yaxshi narsaga yaramaydigan bo‘lib ko‘rinadi.

20. Kattalar odatda arazlovchanlik, ko‘z yoshi va qaysarlikninghaqiqiy sabablari mavjudligi haqida o‘ylamaydilar.

21. Bola tarbiyasi — doimiy asabbuzarliklardan iborat.

22. Qattiqtarbiya uchun bolalar keyinchalik minnatdor bo‘ladilar.

23. Mening tarbiyalanuvchilarim biror narsani mustaqil qila olmaydi, qilganida ham bu ish ko‘ngildagidek chiqmaydi.

24. Mening tarbiyalanuvchilarim qiyinchiliklarga moslashmay voyaga etayotganligi meni xavotirga soladi.

25. Tarbiyalanuvchilarim menga qanday bo‘lsa shundayligicha yoqadi.

26. Ba’zan hayot pedagoglarni shamollagan va ayni paytda dori ichgan bolada maktabga kelishini talab etishga majbur qiladi.

27. Bola kattalarga yoqqan bolalar bilan do‘stlashishi maqsadga muvofiq.

«Ota-onalarni bolalarga munosabati» test so‘rovnomasi

(«So‘rovnama matni-2» kartochkasi)

1.Uylaymanki, ota-onalar o‘z farzandlari nimani o‘ylayotganligini bilishla- ri zarur.

2. Odatda, ota-onalar bola shaxsiga bo‘lgan hurmatni o‘z harakatlarida namoyon eta olmaydilar.

3. Ota-onalar, ko‘pincha o‘z farzandlaridan g‘azablanadilar.

4. Ba’zida ota-onalar farzandlariga rahbar-xizmatchi munosabatida bo‘ladilar.

5. Ba’zida ota-onalar o‘z farzandlarining holiga achinadilar.

6. Ba’zida mening bolam achchig‘imni chiqarish uchun o‘zini atayin yomon tutayotganga o‘xshaydi.

7. Mening bolam hamma yomon narsalarni «gubka» singari shimb olayotganga o‘xshaydi.
8. Bolani qattiq quyishqonda ushslash kerak, shundagina undan vijdonli odam chiqadi.
9. Farzandimning do‘satlari uyimizga mehmon bo‘lib kelishlari menga yoqadi.
10. Tanish-bilishlarim orasida bolalar haqida gap ketganda, men o‘zimni noqulay his qilaman, sababi mening farzandim men xohlaganchalik aqli va qobiliyatli emas.
11. Farzandimning o‘sayotgani va ulg‘ayayotganidan achinaman, uning kichkinaligini entikib eslayman.
12. Fmrmidimiing hayotda men erisha olmagan narsalarga erishishini orzu qilaman.
13. Oilaviy qarorlar qabul qilishda bolaning fikrini ham inobatga olish zarur.
14. Farzandim bilan janjallahib qolganimda, ko‘pincha uning o‘zicha haqligini tan olaman.
15. Bolalar ota-onalar ham xato qilishlari mumkinligini barvaqt bilib oladilar.
16. Ko‘pchilik ota-onalar o‘z farzandlarining did va xohishlarini agar ular o‘zlarinikiga to‘g‘ri kelmasa, inobatga olmaydilar.
17. Farzandimning injiqliklarini asosiy sababi dangasalik va o‘jarlik deb bilaman.
18. Agar ta’til bola bilan o‘tsa, mazza qilib dam olish qiyin.
19. Ba’zida menga farzandim hech bir yaxshi narsaga yaramaydigan bo‘lib ko‘rinadi.
20. Kattalar odatda arazlovchanlik, ko‘z yoshi va qaysarlikning haqiqiy sabablari mavjudligi haqida o‘ylamaydilar.
21. Bola tarbiyasi - doimiy asabbuzarliklardan iborat.
22. Bolalikdagi qat’iy intizom kuchli xarakterni rivojlantiradi.
23. Mening farzandim biror narsani mustaqil qila olmaydi, qilganda ham bu ish ko‘ngildagidek chiqmaydi.
24. Mening farzandim qiyinchiliklarga moslashmay voyaga etayotganligi meni xavotirga soladi.

25. Farzandim menga qanday bo‘lsa shundayligicha yoqadi.
26. Ba’zan hayot ota-onalarni shamollagan bolaga dori berib, maktab yoki bog‘chaga jo‘nativishga majbur qiladi.
27. Bola uning ota-onasiga yoqqan bolalar bilan do‘stlashishi maqsadga muvofiq.

Natijalar tahlili

Har bir kalit bilan to‘g‘ri kelgan javob uchun bir ball qo‘yiladi. So‘ng ballar har bir shkala uchun alohida hisoblab chiqiladi.

1. «Qabul qilingan-xo‘rlangan»; 2+, 3+, 6+, 10+, 16+, 17+, 18+, 19+, 20+, 20+, 21+, 24+, 25+;
2. «Kooperatsiya»: 4+, 13+, 14+, 15+; va 6-, 8-, 16-;
3. «Avtoritar giperijtimoiylashuv»: 1+, 8+, 12+, 22+, 26+; va 10- 27-; 4. «Kichik omadsiz»: 5+, 7+, 10+, 11+, 14+, 16+, 23+, 27+; va 24-.

«Qabul qilingan — xo‘rlangan» shkalasi — maksimal yig‘indi 13 ball.

Agarda sinaluvchi 0 dan 4 ballgacha to‘plasa, u holda kattalarga (pedagogga yoki ota-onaga) bola qanday bo‘lsa, shundayligicha yoqadi. U har bir bolaning individuallilagini hurmat qiladi va yoqtiradi. Kattalar ko‘p vaqtlarini bolalar bilan o‘tkazishga va ularning reja va qiziqishlarini qabul qilishga harakat qiladilar.

Agarda sinaluvchi 4 va undan yuqori ball to‘plasa, bunda u bolalarni tartibsiz, omadsiz, moslasha olmaydigan, deb qabul qiladilar. Ko‘p holatlarda kattalar bolalarga nisbatan asabiylashish, aggressivlikni his qiladi. Umuman olganda, bolalarga ishonmaydi va bola shaxsiga hurmat bilan qaramaydilar.

Psixolog kattalar 8 balldan yuqori ball olgan holatlarga diqqat- e’tiborini qaratish kerak. Bu shundan dalolat beradiki, u bolaga nisbatan munosabatlardagi o‘zining hatti-harakatlari, izohlari va tarbiyalanuvchi shaxsiga hurmat munosabatini bildirishda qiyinchilikni his qiladi.

Bolalarga nisbatan kasbiy to‘g‘ri yondashuvni amalga oshirish sifatida pedagogning kasbiy muhim shaxs sifatlarining shakllanmaganligi hisoblanadi. Ota onalar vaziyatida ota-onaning tarbiyachi sifatida kasbiy mahoratlari

yondashuvi analogi bo‘lib hisoblanadi. Bu jarayonni anglash, kasbiy muhim sifatlarni (tarbiyalash mahorati) takomillashtirishga qaratilgan o‘z ustida ishslash, kattalarni bolalarga nisbatan integral, emotsiyal munosabat hususiyatlari mexanizmini korreksiya qilish muhim hisoblanadi.

«Kooperatsiya» shkalasi — maksimal yig‘indi 7 ball.

Agar sinaluvchi mazkur shkala bo‘yicha 5-7 ball to‘plasa, bunda kattalar bolalariing reja va ishlari bilan qiziqadi, bolalarni qo‘llab-quvvatlab, hamdardlik bildirishga harakat qiladilar. U bolalarni intellektual va ijodiy qobiliyatlarini yuqori baholashi va tarbiyalanuvchilari uchun g‘urur hissini his qilishi mumkin. Kattalar bolalarning tashabbusi va mustaqilliligini rag‘batlantirib, ular bilan o‘zlarini teng ko‘rib, ishonib, babsli savollarda ularni fikrlarini qabul qilishga qodir.

Agar sinaluvchi 4 ball va undan past ball to‘plasa, bu bolalning yolg‘izligidan dalolat beradi.

«Avtoritar giperijtimoylashuv» shkalasi — maksimal yig‘indi 7 ball.

